

# Ezgulik

Asling kabi ko'r'in yoki  
ko'ringaning kabi bo'l

Adabiy-badiiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va ommabop gazeta

Gazeta 2023 yil 1 fevraldan chiqa boshladi.

2025-yil 25-mart №6-son (54)

## Navro'z tarovati

*Qishning ayozlari tugab ohista,  
Eshik qoqib keldi, Navro'z bir pasda.  
Shabada shivirida ko'klam ifori,  
Har daraxt-novdada bahor iqrori.  
  
O'lkamning bog'lari, qir, adirlari,  
Yashilga burkanmish go'yoki baxmal.  
Baxtiyorlik zavqin tuyar yosh-qari,  
Shodlikdan yuzlari yonar go'yo la'l.  
  
Har yonda doshqozon, qaynar sumalak,  
Halimlarning hidi borliqni tutar.  
Atrofda sho'x qizlar go'yoki malak.  
Yurt bo'ylab yangraydi qo'shig'u lapar.  
Elimda hamisha bahorlar kulsin,  
Baxt bo'lib, nur bo'lib kirsin har dilga.  
Yovuz, yomonlardan Alloh asrasin,  
Yurtim tarovati ko'chsin har tilga.*



Dilobar BOZOROVA,  
O'zbekiston Respublikasi Notarial  
palatasining Buxoro viloyati hududiy  
boshqarmasi boshlig'i



## "Sumalak sayli" taassurotlari

O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasining Buxoro viloyati  
hududiy boshqarmasi tomonidan Buxoro shahri markazida  
hududda faoliyat yuritayotgan notariuslar uchun "Sumalak sayli"  
tashkil qilindi. Navro'z bayrami arafasidagi tadbirda hamkasblar  
bir piyola choy ustida yig'ilib, diydorlashdi.

Palataning viloyat hududiy boshqarmasi rahbari Dilobar Bozorova tashabbuskorligida o'tgan sayl kuy-ko'shiq, jozibali raqlar va mavzuga oid she'rlar, bayram tabrikllari bilan yanada fayzli bo'ldi. Sumalak sayli bahona sohada uzoq yildan buyon sidqidildan mehnat qilayotgan ustozlar bilan ko'rishdik. Ularning pand-nasihatlari, o'gitlarini tingladik, shuningdek, Dilobar Bozorova tomonidan yanada fidoyi bo'lismiz uchun foydali bo'lgan tavsiyalarni eshitganimiz barchaga birdekk manzur bo'ldi.

Bu tadbir bayramdan so'ng  
ko'tarinki kayfiyat bilan ish  
boshlashimizda bizga juda qo'l  
keldi.

Jarayon davomida qalbimizda  
bir shukrona hissi barq urdi:  
Hamjihatligimizga ko'z tegmasin!

Gulshoda SAFOEVA,  
Nurillo IBRAGIMOV,  
Xususiy amaliyot bilan  
shug'ullanuvchi notariuslar



## FRANSIYAGA TASHRIF: YANADA YAQINLASHUV VA XALQARO HAMKORLIK

**2025-yilda O'zbekiston Prezidentining Frantsiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi strategik aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu tashrif O'zbekiston va Frantsyaning o'zaro manfaatlariiga asoslangan ko'plab muhim sohalarda hamkorlikni chuqurlashtirishga yordam beradi.**

Prezidentning Frantsiyaga tashrifi asosan iqtisodiy, madaniy, siyosiy va ta'lif sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Frantsiya – O'zbekistonning Yevropadagi muhim sherkilaridan biri bo'lib, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo va investitsiya sohasidagi aloqalar kundan-kunga mustahkamlanib bormoqda.

Tashrifning asosiy maqsadi O'zbekistonning iqtisodiyot sektoridagi zamonaviy talablarga javob beradigan texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish, shuningdek, Frantsiya bilan savdo va investitsiyalar hajmini oshirishdir.

Tashrif davomida turli yo'naliishlardagi ijtimoiy va iqtisodiy shartnomalarga imzo chekish kutilayotgani aytildi.

Tashrifning siyosiy ahamiyati ham katta. Prezidentlar o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralar ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni yanada chuqurlashtirish, xalqaro maydonidagi muhim masalalardagi hamkorlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan. Frantsyaning Yevropa Ittifaqidagi muhim rolini hisobga olgan holda, O'zbekiston Yevropa bilan strategik hamkorlikni yanada rivojlantirishga intilayapti.

Tashrifning yana bir muhim yo'naliishi madaniyat va ta'lif sohalaridagi aloqalarni mustahkamlashdir. Frantsyaning ma'rifat va madaniyat sohasidagi katta tajribasi O'zbekiston uchun qimmatli bo'lib, ikki mamlakat o'rtasida ilmiy va ta'lif sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirishga ko'maklashishi mumkin. Frantsuz tili va madaniyatini O'zbekistonda ommalashtirish, talaba almashinivi va qo'shma ta'lif dasturlari bo'yicha kelajakda yangi imkoniyatlar paydo bo'lishi kutilmogda.

Frantsiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, energiya, transport, fermierlik va turizm kabi sohalardagi yangi hamkorlik imkoniyatlarini ochadi. Frantsyaning eng ilg'or texnologiyalari va amaliy tajribasi O'zbekistondagi yangi infrastruktura loyi-halarini amalga oshirishda muhim rol o'yashni mumkin.

Tashrif davomida ko'plab muloqotlar va muhokamalar bo'lib o'tdi, ular ikki mamlakat o'rtasidagi strategik hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun yangi yo'naliishlar aniqlandi. Xususan, iqtisodiy hamkorlik, iqtisodiy savdolar, investitsiyalar va yangi texnologiyalarni kiritish orqali O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga yangicha yondoshishlar belgilandi.

O'zbekiston Prezidentining Frantsiyaga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi strategik hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishini va xalqaro maydonidagi rivojlanishlar uchun yangidan-yangi imkoniyatlar ochishini ko'rsatdi. Bu tashrif har ikki mamlakatning olamshumul maqsadlariga erishish yo'lidi qadamlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**F.AKIEVA,  
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat  
markazi  
Buxoro tuman bo'linmasi rahbari**



**BETAKROR  
YURTIMIZNING  
TURIZM SOHASIDAGI  
ISTIQBOLI**

**President Shavkat Mirziyoev turizm sohasini jadal sur'atlarda tiklash va mamlakatdagi sanitariya-epidemologik vaziyat barqarorlashgandan so'ng uni rivojlantirishning yangi yo'naliishlarini shakllantirish maqsadida tegishli farmon va qarorlar qabul qilib, hukumatga chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va bajarish vazifasi topshirildi.**

Alalxusus, yangi turistik zonalar, xalqaro aeroportlar, temir yo'l vokzallarini jahon andozalariga moslashtirish, minglab yangi ish o'rinnari, yangi kasblar paydo bo'lishi natijasida hududlar infratuzilmasi yaxshilanib boradi, keng ko'lamma obodonlashtirish ishlari, yangi mehmonxonalar, oshxonalar madaniyat uylari, transportning barcha turlari xizmati rivojlanadi, yangi sport maydonlari, qishki va yozgi suv havzalari, stadionlar ishga tushiriladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «1 turist – 1 investor» g'oyasining amalga oshirilishi ham turizmnинг mamlakatimiz iqtisodiyotidagi strategik tarmog'i ekanligini isbotlaydi. Zero, betakror yurtimizning turizm sohasidagi istiqboli va imkoniyatlari beqiyosdir.

**X.HAMRAYEV,  
Buxoro viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi  
jamoat xavsizligi bolimi jamoat tartibini  
saqlash guruhi inspektori,  
katta leytenant**

**Xavsiz turizmni ta'minlash uchun bir nechta muhim chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Quyidagi tavsiyalarni ko'rib chiqish mumkin:**

### RESPUBLIKADA XAVFSIZ TURIZMNI TA'MINLASH BILAN BOGLIQ HUQUQBUZARLIKLER HAMDA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

**1.** Xavfsizlikni ta'minlash uchun qonuniy asoslarni mustahkamlash: Turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlash uchun maxsus qonunlar va qoidalar ishlab chiqilishi lozim. Bu, ayniqsa, sayohat qilishda qo'llaniladigan transport vositalari, mehmonxonalar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi joylar uchun zarur bo'ladi.

**2.** Xavfsizlik nazorati va tekshiruvlari kuchaytirish: Havoportlar, temiro'l stansiyalari va avtobus terminalari kabi joylarda xavfsizlikni mustahkamlash uchun maxsus tekshiruvlar va nazoratlar o'tkazilishi kerak. Sayyoohlар uchun xavfsizlikni ta'minlashda video kuzatuva tizimlari va maxsus xodimlar rol o'ynaydi.

**3.** Turistik joylarda tibbiy yordam va yordam markazlarini tashkil etish: Sayohat qilayotganlarga kerak bo'lganda tibbiy yordam ko'rsatish uchun barcha turistik joylarda tez yordam markazlari yoki shifoxonalar bo'lishi zarur.

**4.** Yuqori malakali xodimlar tayyorlash: Sayohat sektori xodimlarini xavfsizlik, odamlar bilan muloqot qilish va avariya holatlari qanday harakat qilish bo'yicha muntazam ravishda o'qitish zarur.

**5.** Ma'lumot va ogohlilik oshirish: Sayyoohlар uchun xavfsizlik bo'yicha maxsus qo'llanmalar, ogohlilik oshiruvchi materiallar va sayohat qilishda ehtiyoj bo'lish kerakligini ta'kidlash orqali xavfsizlikni ta'minlash mumkin.

**6.** Ijtimoiy masofani saqlash va sanitariya-epidemiologik choralar: Pandemiya davrida va undan keyin sayyoohlilikni xavfsizlashtirish uchun sanitariya-gigiyena choralariga rioya qilish, ijtimoiy masofani saqlash va shaxsiy himoya vositalarini ta'minlash zarur.

**7.** Jurisdiktsiya va hamkorlik: Xavfsiz turizmni ta'minlashda davlat va xususiy sektorda hamkorlik, shu jumladan, boshqa davlatlar bilan o'zaro xavfsizlikni ta'minlash masalalarida kelishuvlarni amalga oshirish muhimdir.

**8.** Hodisa yuzaga kelganda samarali javob berish tizimini yaratish: Yuzaga kelgan favqulodda holatlarda (masalan, tabiiy ofatlar, terrorchilik xurujlari) tezkor va samarali javob berish tizimlarini tashkil qilish, sayohat qilayotganlarning xavfsizligini ta'minlash uchun zarurdir.

Bu chora-tadbirlar orqali xavfsiz turizmni ta'minlash va sayohatchilarni himoya qilish mumkin.

**M. SAMADOV,  
Buxoro viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash  
boshqarmasi jamoat xavsizligi bo'limi jamoat  
tartibini saqlash guruhi inspektori, leytenant**

Qadriyatlarin boqiy bo'lsin, Navro'z!  
 Anhorlar oqmoqda suvlarga to'lib,  
 Shukronalik aytdim tinchlikni ko'rib.  
 Mustaqil diyorga bezaklar bo'lib.  
 Xush kelding Bahor, hush ko'rdik, Navro'z!

Yurtimizda Navro'zi ayyomi kirib kelishi munosabati bilan mahalla va ko'chalarda, maydon va xiyobonlarda, tabiat bag'rida sayil-tomoshalar o'tkazilib, Navro'z ayyomi kutib olinadi. Barcha yurtoshlarimiz katta shodu xurramlik bilan bir-birini qutlab, shu yorug' kunlarga yetkazgani uchun shukronalar aytadilar. Tabarruk zaminimizga, ona diyorimizga o'zaro ahillik, mehr-oqibat fazilatları yanada yaqqol namoyon bo'lada. Shu dilbar faslda tabiatdagi o'zgarishlarga uyg'un bo'lib, jamiyatimiz, hayotimiz ham o'zgarib, yangilanib bormoqda. Yangi-yangi uy-joylar, ta'lim, tibbiyot va madaniyat maskanlari, zamonaviy korxonalar, obod mahalla, va qishloqlar yurtimiz chiroyiga chiroy qo'shmoqda. Bu yilgi xosiyatl Navro'z bayrami yana bir qutlug' va fazilati oy – muqaddas Ramazoni sharif bilan uyg'unlikda kirib keldi. Bu munavvar ayyom keyingi yillarda Vatanimizda amalga oshirilayotgan "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan oljanob g'oyaga hamohang bo'lib, tom ma'noda umumxalq bayramiga aylandi hamda mamlakatimizning barcha shahar va qishloqlarida keng nishonlanmoqda. Vobkent tumanida ham "Qadriyatlarin boqiy bo'lsin, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari yuqori saviyada keng nishonlandi. Bayram tadbirini nishonlash uchun tuman jamoatchiligi vakillari, korxona va tashkilotlar, muassasa va mahallalar mas'ullari, yurtimiz xalq xo'jaligi tarmoqlarida o'z beminnat xizmati bilan hurmat-e'tibor qozongan fidoyilar, mehnat faxriyileri va albatta, har sohada yetakchilik iqtidorini namoyon etayotgan yoshlar vakillari ishtirok etishdi. Qiz-ayollar jam bo'lismib, tong sahardan milliy taomlar tayyorlashga kirishib ketishdi. Albattada, Navro'z bayramini sumalaksiz tasavvur qilib bo'larmidi? Azaldan



## QADRIYATLARING BOQIY BO'LSIN, NAVRO'Z!

ham sumalakni asosan ayollar tayyorlashgan. Ular qozon atrofida suhabat qurishgan, hikoyalari, rivoyatlar va latifalar aytishgan. Childirma chalib, raqsga tushishgan, qo'shiqlar aytib, xursandchilik qilishgan. Sumalak sayli qadimdan kishilarda birdamlik, ahillik hissini tarbiyalab kelgan. Go'zal bahorning eng lazzatli taomi sifatida uni tayyorlash qadriyatimizga aylangan. Bayram tadibirleri davomida hunarmandchilik ko'rgazmalar, milliy sport turlari bo'yicha musobaqalari, kitob ko'rgazmalar, arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari, ko'chma savdo do'konlari tashkil etilib, ko'klam taomlarini tayyorlash hamda ularning ko'rgazma-savdolari va tanlovlari uyuشتirildi. Ushbu maskanlardagi xalq sayillarida korxona va tashkilotlar, ta'lim

muassasalari tomonidan azaliy urf-odatlarimizga muvofiq dasturxon bezatildi. Bahoriy taomlar, shirmoy kulchalar patirlar, doshqozonlarda tayyorlangan sumalak dasturxonlarga tortildi. Bu bayramning boshqa bayramlardan ajralib turadigan o'zgacha gashti va shukuhi bor. Mir Alisher Navoiy hazratlari asarlarida: "Har tuning qadr" o'lubon, Har kuning o'sun Navro'z", – deb bejizga bu kunni alohida yod etmaganlar. Navro'zning qadimdan tabiat va bahor bayrami, xalq ma'naviyatining ajrالmas va tarkibiy qismi bo'lganini yana bir karra isbotlaydi.

**N. NAYIMOVA,**  
**Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Vobkent tuman bo'linmasi bosh mutaxassisini**

## XUSH KELDING, SOG'INGANIM

Bahorni olib keldi qanotida qaldirg'och,  
 O't-o'langa kirib jon, ayladi jadal rivoj,  
 Qiz-kelinlar majnuntol bargidan kiydilar toj,  
 Ijozat ber jon elim, ittijo qilay o'zim,  
 Yurtimizga saodat olib kelgin, Navro'zim.

Dehqonning yelkasiga chiqar bo'ldi ketmoni,  
 Tong otgandan shomgacha mehnatda endi joni,  
 Peshonadan tomib ter, haloldir yegan noni,  
 Shunday mehnatkash xalqqa, sadqa bo'lay men o'zim,  
 Xush kelibsan yurtimga sog'inganim, Navro'zim.

Yerni yorib bo'y cho'zdi, yalpiz, jag'-jag', boychechak,  
 Dov-daraxt gulga kirdi, oppoq, misli kelinchak,  
 Dasturxonlar liq to'la nisholda, holva, chak-chak,  
 Chor atrofga qarsam, yashnab ketadi ko'zim,  
 Yana bizni so'roqlab kelibsan-da, Navro'zim.

Ona xalqim sho'x-shodon bayram qilar hammasi,  
 Ko'kda quyosh, oyning ham kelib ketar havasi,  
 O'yinda tush birodar, chetda turmoq nimasi,  
 Dasturxonga marhabo, choy qo'yaman man o'zim,  
 Xush kelibsan so'roqlab, bizni qadim Navro'zim.

Atrof ko'milib ketgan qizlar sepgan atirga,  
 Dasturxonlar liq to'la non-u kulcha, patirga,  
 Dilimdag'i ilhomim sig'mas mingta satrga,  
 Seni sog'indim qancha, O'zbekiston, men o'zim,  
 To'kin-sochinlik bilan tezroq kelgin, Navro'zim.

Jylda gul iforidan yigitlar lol-u hayron,  
 Qizlar chopib o'ynashar misoli ohu, jayron,  
 Bu hammasi tinchlikdan, tinchlik bo'lsin har qachon,  
 Bu elning shodligidan quvnab ketadi ko'zim,  
 Marhabo sog'inganim, marhabo, ey, Navro'zim.

Momoqaldoq chalib, chaqmoq chaqib kelsa sel,  
 Qo'zigorin terishga chiqar shunda bizni el,  
 Qani, shoshil birodar, savatchani olib kel,  
 O'zi bilan bahorim olib keldi non-tuzim,  
 Xush kelibsan yurtimga, sog'inganim, Navro'zim.

Ovul, shahar, qishloqda qaynamoqda qozonlar,  
 Kelinlar kiygan nimcha, yigitlar zar choponlar,  
 Bir mayin sabo esar sochim silab azonlar,  
 Ko'ksimga qo'yib qo'lim, hayqiraman men o'zim,  
 Buxoromga olib kel baxt va omad, Navro'zim.

Bayram tongi elimga baxt so'rayman Xudodan,  
 O'zbekiston, o'zbegim, o'zim senga fidoman,  
 Ushbu she'rim bayramlik – Abdurazzoq Atodan,  
 Dala, tog'lar oshib kel, sog'indim-ku men o'zim,  
 Sog'lik olib kel bizga, intiq kutgan, Navro'zim!

Abdurazzoq ATOIY, Peshku tumani



## NAVRO'ZING MUBORAK, O'ZBEKISTON!

Buxoroda Navro'z bayrami keng ko'lama va an'anaviy ravishda nishonlanadi. Navro'z, davomli tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, unga aholi o'rtasida katta qiziqish bor. Navro'z bayramiga tayyorgarlik boshlashdan avval, xalq bahorning kelishiga tayyor bo'lish uchun hasharlar o'tkazadi.

Bayram kunlari maydonlarda turli xil sayllar, an'anaviy o'yinlar va milliy musiqa bo'lib o'tadi. Navro'z bayramida milliy taomlar tayyorlanadi. Bu taomlar bayramning ramziga aylanib, odamlar orasida o'zaro hissiy va ijtimoiy bog'lanishlarni kuchaytiradi.

Navro'z nafaqat yangi yilning boshlanishi, balki ma'naviy qadriyatlarni, urf-odatlarni, xalqning birligini va baxtli kelajakni yaratishni ko'zda tutadi. Bu kabi marosimlar Buxoroda, ayniqsa, Romitanda Navro'z bayramining o'zgacha tantanali va shodlik bilan o'tkazilishini ta'minlaydi.

Yaqinda tumandagi 11-maktabning 5-A sinf o'quvchilari bilan muchal bayramiga bag'ishlab, "Navro'zing muborak, O'zbekiston!" mavzusida tadbir o'tkazdi. Unda o'quvchilar mavzuga oid she'rlar o'qib, sahna ko'rinishlari namoyish qilishdi.

Dilafruz BO'RONOVA,  
 Romitan tumanidagi 11-maktabning tarix fani o'qituvchisi

## KITOB JAVONDA EMAS, QALBLARDA YASHASHI KERAK!



**"Ziyo ularash" aktsiyasi – bu shunchaki kitob alishish emas, bu bilim, ilhom va ziyo ularashish demakdir!**

Adliya vazirligi tomonidan fevral oyidan boshlab tashkil qilingan har tomonlama foydali bo'lgan bu loyihada qatnashish baxtidan bebahra qolmang. Kogon tuman Davlat xizmatlari markaziga keling. Kitob tanlang va o'qing.



O'qib bo'lgach, qaytaring yoki o'rniga boshqasini qoldiring. Qisqa vaqtida ushbu tashabbus orqali ko'ngillilar tomonidan 399 nomdag'i kitob yig'ildi va ularning 227 donasi yangi egalarini topdi.

Kitob – inson hayotini o'zgartirishi mumkin! Siz ham bilim ulashing, "bukkrossing"ga marhamat!

**Olim MUYASSAROV,**  
**Kogon tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari**  
**markazi direktori**

## SIZ DAVLAT UY-JOY FONDI OB'EKTINI XUSUSIYLASHTIRMOQCHIMISIZ?

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining  
11.03.2024-yildagi 124-sonli qaroriga asosan, uy-joy  
fondi ob'ektini xususiylashtirish bo'yicha ariza  
beruvchi yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida  
ro'yxatdan o'tgan holda yoki davlat xizmatlari  
markazlari orqali so'rovnomaga yuboriladi.**

Viloyat hamda tuman (shahar) hokimliklari, davlat tashkilotlari tomonidan 1 oy ichida ko'rib chiqiladi. Xizmatdan foydalanuvchilar jismoniy shaxslar hisoblanadi. Xizmatni ko'rsatish uchun quydagi hujjatlar taqdim qilinadi:

1. Fuqarolarni imtiyozli xususiylashtirish huquqini tasdiqlovchi ma'lumotnomma.
2. Uy daftaring nusxasi (kvartira bo'yicha kartochkaning nusxasi) 17-shakl.
3. Birgalikda yashayotgan barcha balog'atga yetgan oila a'zolarining notarial tasdiqlangan roziliqi.
4. Uy (uyning bir qismi) yoki kvartira qiymatini qoldiq balans qiymati bo'yicha baholash to'g'risidagi baholovchi tashkilotning hisoboti taqdim etiladi.

**Dilbar HASANOVA,**  
**Buxoro shahar DXM katta mutaxassisি**

**"Kredit axboroti  
almashinuvni to'g'risida"gi  
O'zbekiston Respublikasi  
Qonuniga kiritilgan o'zgartirish  
va qo'shimchalarga asosan:**

- jismoniy shaxs o'zining ishtirokisiz yoki xabarlisiz kredit bitimi rasmiylashtirilishining oldini olish uchun o'zi bilan kredit bitimini tuzishni kredit byurosiga ariza kiritish orqali taqiqlashi mumkin;
- arizalar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, davlat



**HECH KIM SIZDAN BEXABAR  
NOMINGIZGA KREDIT  
OLMAYDI!**

xizmatlari markazlari yoki kredit byurolari orqali qabul qilinadi;  
- kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki bunday taqiqni olib tashlash ixtiyorli ravishda, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda bepul amalga oshiriladi.  
**Eslatma:** ushbu tartib 2025-yil 6-iyundan boshlab kuchga kiradi.

**Mubin ASHurov,**  
**Jondor tuman DXM bo'lim boshlig'i**



## 6 YILLIK MUAMMOGA YECHIM TOPILDI

**O'zbekiston Respublikasi 80-son Prezident farmoni,  
shuningdek, "Huquqiy mahalla" loyihasi doirasida mahallalarda  
aholiga tushuntirishlar olib borildi.**

Shu boisdan ushnu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida G'ijduvon tuman FHDY bo'limi xodimlari tomonidan G'ijduvon tuman Sarmijon MFY da umayuy yurish orqali fuqarolarning muammolari o'rganilib, ularning 8 tasi joyida hal qilinib, 2 tasi nazorat ostiga olindi.

O'rGANISHLAR natijasida, G'ijduvon tuman Sarmijon MFY, Oqqul qishlog'ida yashovchi fuqaro A.S. va A.N.larning shar'iy nikoh asosida yashayotgani aniqlanib, ularga tuman FHDY bo'limida nikoh tuzilganligi to'g'risidagi guvohnoma rasmiylashtirib, 6 yillik muammo hal qilinib berildi.

**Zulfizar SAYFIEVA,**  
**G'ijduvon tuman FHDY bo'limi mudirasi**

## NAVRO'Z SAYLI

**Buxoro tuman Markaziy  
o'yingohida  
"Qadriyatlarin boqiy  
bo'lsin, Navro'z!" shiori  
ostida Navro'z umumxalq  
bayrami sayli bo'lib o'tdi.**

Bayram tantanalarida tuman hokimi Anvarjon Ochilov ishtirok etib, barchani Navro'z bayrami bilan samimiyy muborakbos etdi.

Bayram tadbirleri doirasida tumandagi barcha mahallalar, korxona-tashkilot va muassalar uchun ajratilgan hududlar o'ziga xos uslubda bezatilib, milliy bahoriy pishiriqlar, doshqozonlarda tayyorlangan sumalak va osh taomlari, dasturxoniga tortildi.

Navro'z shodiyonalarida milliy xalq o'yinlari, folklor jamoalarining chiqishi, polvonlar bellashuvi, dorbozlarning dor o'yinlari, "Mohir pazandarlar" festivali barchada katta taassurot qoldirdi.

Bayram tadbir davomida o'zbek estradasining yorqin yulduzi Xamdam Sobirovning sho'x-shodon kuy-qo'shiqlari tadbiriga o'zgacha fayz bag'ishlab, tadbir ishtirokchilariga chinakam bayram kayfiyatini ulashdi.

Shuningdek, tuman madaniyat bo'limi xodimlari, taniqli va xushovoz san'atkorlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar barchani raqsga chorladi.

Bayram tadbirleri tumandagi barcha qishloq va mahallalarda, ta'lim maskanlarida, tashkilot va muassasalarda davom etmoqda.

**Umida SOLIYEVA,**  
**Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi**  
**Buxoro tuman bo'linmasi bosh mutaxassisি**



## BINO (INSHOOT) VA XONALARING YONG'IN XAVFSIZLIGI TALABLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA XULOSA OLİSH TARTIBIDAN XABARDORMISIZ?

**Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat etadi yoki davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) (<https://my.gov.uz/oz/service/669>)da ro'yxatdan o'tadi.**

Xulosani berishga vakolati organ(lar): Favqulodda vaziyatlar vazirligining davlat yong'in nazorati organlari.

Arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im miqdori: BHMning 10 foizi.

Xulosa berganlik uchun yig'im undirilmaydi.

Arizalarni ko'rib chiqish muddati: 10 ish kuni.

Xulosaning amal qilish muddati: cheklanmagan.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-martdag'i 169-son qarori. (<https://lex.uz/uz/docs/-6861943#-6862534>)

Erkin TURSUNOV,  
Peshku tuman DXM bo'lim boshlig'i

## MADANIY BOYLIKLARNI REALIZATSIYA QILISH BO'YICHA FAOLIYATNI BOSHLAGANLIK YOKI TUGATGANLIK TO'G'RISIDA XABARNOMA YUBORISH TARTIBI

**Xabarnoma yuborish uchun yuridik shaxslar yokka tartibdag'i tadbirkorlar "Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ([my.gov.uz](https://my.gov.uz)) murojaat qiladilar.**

Xabarnomani qabul qiluvchi organ: O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi.

Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori: bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi.

Unutmang, madaniy boyliklarni realizatsiya qilishda:

- \* madaniy boyliklarni O'zbekiston hududidan olib chiqish yoki vaqtincha olib chiqish uchun maxsus sertifikatga ega bo'lisingiz;
- \* 50 yil muqaddam va undan oldinroq yaratilgan madaniy boyliklarni O'zbekiston hududidan olib chiqish mumkin emasligi haqida xaridorni ogohlantirishingiz;

\* madaniy boyliklarni asrash choralarini ko'rishingiz lozim.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldag'i 86-son qarori. (<https://lex.uz/docs/-5871129#-5874980>)

Abbos BOLTAYEV,  
Peshku tuman DXM bo'lim boshlig'i

## KO'CHMAS MULK TARIXI

**Ko'chmas mulk sotish yoki sotib olishda "Ko'chmas mulk tarixi haqida ma'lumot" olish xizmatidan foydalanib, mulkka nisbatan amaldagi va avvalgi huquqlar, mulk davlat ro'yxatiga qachon kiritilgani, huquqni tasdiqlovchi hujjatlar turi, kim tomonidan berilgani, sanasi va raqami haqidagi ma'lumotlarni bilib olish mumkin.**

Ma'lumotnomani olish uchun davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat etish, yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (YIDXP) yoki O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining davreestr.uz veb-saytida ro'yxatdan o'tish kerak.

Davlat xizmatini ko'rsatuvchi vakolati organ(lar): O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari.

Davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun undiriladigan yig'im miqdori: BHMning 50 foizi. Davlat xizmatini ko'rsatish uchun YIDXP orqali murojaat etilganda, yig'im summasining 90 foizi undiriladi.

Davlat xizmatini ko'rsatish muddati: 3 ish kuni.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdag'i 380-son qarori.

Feruza AMRIYEVA,

Buxoro shaxar Davlat xizmatlari markazi katta mutaxassisi

## MEROS ISHI OCHILDI

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani, O'zanon MFY, O'zanon ko'chasi 109-uya yashab, 2024-yil 25-noyabr' vafot etgan Qodirov Salimjon Salomovichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

**Manzil: G'ijduvon tumani, XXI asr ko'chasi 8-uy.**

## \*DAVLAT XIZMATLARI YANGILIKLARI

### XABARNOMA YUBORISH TARTIBI

**Oftalmologiya tibbiy buyumlarining chakana realizatsiyasi (optika) bo'yicha faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnoma yuborish tartibini bilasizmi?**

Xabardornoma yuborish uchun yuridik shaxslar "Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ([my.gov.uz](https://my.gov.uz)) murojaat qiladilar.

Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar): Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar hududiy bo'linmalari.

Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori: bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldag'i 88-son qarori. (<https://lex.uz/docs/-5877863#-5879791>)

Shohjahon NUTFULLOYEV,  
Peshku tuman DXM bosh mutaxassisi

## OMMAVIY TADBIRLARNI O'TKAZISH UCHUN RUXSATNOMA OLİSH TARTIBIDAN XABARDORMISIZ?

**Murojaatlar "Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinadi.**

Ariza beruvchilar toifasi: ommaviy tadbir tashkilotchisi – ommaviy tadbirni tashkil qilish va o'tkazish majburiyatini o'z zimmasiga olgan davlat organi, yuridik shaxs va 18 yoshga yetgan jismoniy shaxs.

Vakolati organ: Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) ichki ishlar bo'limlari Xizmat bepul ko'rsatiladi.

Arizani ko'rib chiqish muddati: 10 ish kuni.

Arizani ko'rib chiqish natijasi bo'yicha ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun ruxsatnomasi taqdim etiladi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldag'i 86-son qarori. (<https://lex.uz/docs/-5871129#-5874980>)

Otabek QUDRATOV,  
Peshku tuman DXM etakchi mutaxassisi

## OILAVIY NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI BOSHLAGANLIK YOKI TUGATGANLIK TO'G'RISIDA XABARNOMA YUBORISH

**Xabarnoma yuborish uchun yakka tartibdag'i tadbirkorlar "Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ([my.gov.uz](https://my.gov.uz)) murojaat qiladilar.**

Xabarnomani qabul qiluvchi organ: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi.

Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori: bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldag'i 88-son qarori. (<https://lex.uz/docs/-5877863#-5879791>)

Abdulaziz DAVRONOV,  
Peshku tuman DXM bosh mutaxassisi

## VETERINARIYA DAVOLASH-PROFILAKTIKA FAOLIYATINI BOSHLAGANLIK YOKI TUGATGANLIK TO'G'RISIDA XABARNOMA YUBORISH TARTIBINI BILASIZMI?

**Xabarnoma yuborish uchun yuridik va jismoniy shaxslar "Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ([my.gov.uz](https://my.gov.uz)) murojaat qiladilar.**

Xabarnomani qabul qiluvchi organ: Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari.

Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori: bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldag'i 88-son qarori. (<https://lex.uz/docs/-5877863#-5879791>)

Laylo TURSUNOVA,  
Peshku tuman DXM katta mutaxassisi

## UYLI BO'LISH ORZUSI BILAN YURGANLAR DIQQATIGA! IPOTEKA KREDITLARI UCHUN SUBSIDIYA OLİSH BO'YICHA ARIZALAR QABULI DAVOM ETMOQDA!

Arizani qayerga topshirish mumkin?

- Davlat xizmatlari markaziga borib;
- Yoki [my.gov.uz](https://my.gov.uz/oz/service/325) (<https://my.gov.uz/oz/service/325>) orqali onlayn jo'natish mumkin.


Muhim! Davlat xizmatlari markazalari faqat arizalarni qabul qilishda vakolatlgi hisoblanib, ularni ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etmaydi.

Ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiya to'lanadigan talabgorlar komissiya va mas'ul tashkilotlar tomonidan qonuniylik, shaffoflik, adolat va haqqoniylig tamoyillari asosida tanlanadi.

Arizangizda ko'rsatilgan ijtimoiy mezonlarga muvofiqlik bo'yicha barcha ma'lumotlar belgilangan tartibda tekshiriladi. Bunda, arizalar komissiya va mas'ul tashkilotlar tomonidan navbat asosida ularning taqdim etilishi ketma-ketligiga muvofiq ko'rib chiqiladi.

**Mubin ASHUROV,**  
Jondor tuman DXM bo'lim boshlig'i

Nikohni qayd etish  
uchun onlayn ariza  
bering!



## NIKHDAN O'TISH DAVLAT XIZMATLARI ORQALI YANADA OSON

### Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatdan o'ting va nikohni qayd etish uchun FHDY organiga ariza yuborish xizmatidan foydalaning.

O'zingiz haqingizdagagi ma'lumotlarni kiriting hamda arizani davom ettirish uchun invoys raqamini arizanining boshqa ishtirokchisiga taqdim eting.

Ikkinci taraf arizani tasdiqlagan holda invoys raqamini kiritib, xizmatdan foydalanishda davom etadi.

Keyingi bosqichlarda ariza beruvchilar uchun qulay bo'lgan FHDY bo'limi, nikoh marosimi qanday tartibda o'tkazilishi tanlanadi.

Tegishli ma'lumotlar to'ldirilgandan so'ng ariza FHDY bo'limiga yuboriladi.

Bir ish kuni ichida tibbiy ko'rnikdan o'tish uchun yo'llanma olishingiz, bir oydan so'ng esa nikohni qayd etish uchun FHDY bo'limiga borishingiz mumkin

**Farhod BAQOYEV,**  
Peshku tuman DXM direktori

## KAMBAG'AL OILALAR REYESTRDAGI XOTIN- QIZLAR KONTRAKTINING BIR QISMI QOPLAB BERILADI



Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar-dagi bakalavriat va magistraturaning kunduzgi yo'nalishida ta'lim olayotgan xotin-qizlar yoki ularning tahsil olayotgan ikki va undan ortiq farzandlarining bir nafariga to'lov-kontrakt summasining 50 foiziga, biroq BHMning 50 baravaridan ko'p bo'lgan miqdorda bir marotaba to'lov-kontrakti to'lab beriladi.

**YO. NURETDINOVA,**  
Olot tuman adliya bo'limi FHDY 1-toifali inspektori



## “ADLIYA-QR” AXBOROT TIZIMI NIMA? BU FUQAROLAR UCHUN QANDAY QULAYLIKLARNI YARATADI?

**2025-yildan boshlab Davlat xizmatlari markazlarida fuqarolar uchun “Adliya-QR” axborot tizimi joriy etildi. Usbu tizim orqali fuqarolar:**

- Face-ID orqali ariza ma'lumotlarini tasdiqlash;
- arizaga tegishli to'lovlarni amalga oshirish;
- arizada kiritilgan ma'lumotlar bilan tanishish;
- xizmat sifatini baholash;
- ariza natijalarini yuklab olish;
- zarur ma'lumotlarni markaz xodimi bilan almashish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Bu yangilik fuqarolar uchun bir qancha qulayliklarni yaratadi jumladan: fuqarolar vaqtini tejaydi, navbatlar sezilarli darajada kamayadi, xizmat sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlar qisqaradi.

Davlat xizmatlarini yanada qulay va sifatli qilish yo'lida ishslashda davom etamiz.

**To'yqul QUDRATOVA,  
Buxoro shahar DXM yetakchi mutaxassisasi**

## TRANSPORT VOSITASINING IDENTIFIKATSİYA RAQAMINI SHAKLLANTIRISH

Transport vositasini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarga transport vositasining identifikatsiya raqamini shakllantirish:

Ariza beruvchilar toifasi: Yuridik shaxslar.

Vakolatli organ(lar): O'zbekiston texnik jihatidan tartibga solish agentligi.

Xizmatdan foydalanish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar: Talab etilmaydi.

Arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:

BHMning 30 baravari.

Arizani ko'rib chiqish muddatlari:

6 ish kuni.

**ASOS:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagji "Transport vositasini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarga transport vositasining identifikatsiya raqamini shakllantirish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 127-son qarori

**Abdulaziz IBODULLOYEV,  
Gijduvon tuman Davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i**

## AROQQA “DO'ST” BO'LISHNING “FOYDASI”

**O'.Davronov (ism-familiyalar o'zgartirilgan)  
2024-yilning 17-oktyabr  
kuni soat 13:00larda “Metal  
mega stroy” MCHJga  
tegishli bo'lgan binoning  
birinchi qavatida joylashgan  
kiyim almashtirish xonasida  
hamkasbi A.Ashurov bilan  
o'zaro kelishmovchilik  
natijasida xonadagi oshxona pichog'i bilan hamkasbing o'ng tirsak  
bo'g'imi ichki sohasiga bir marotaba urdi. Natijada, A.Ashurovga tan  
jarohati yetkazdi.**



Voqeа quyidagicha bo'lgan: Sudlanuvchi Buxoro shahridagi "Metal mega stroy" MCHJda payvandlovchi vazifasida ishlagan. A.Ashurov esa korxonada beton quyuvchi sifatida mehnat qilgan. Korxonaga tegishli binoning birinchi qavatida joylashgan kiyimlar almashtirish xonasida besh kishi spirtli ichimlik iste'mol qilishgan. Aroqqa bo'kkalar ovqatlanib bo'lishganidan so'ng stol ustini yig'ishtirishni boshlashgan. Shu payt sudlanuvchi va A.Ashurov o'rtasida tushumovchilik kelib chiqqan. O'.Davronov stol ustida bo'lgan oshxona pichog'in olib, spirtli ichimlik iste'mol qilganligi sababli A.Ashurovning qo'liga sanchgan.

Sud jarayonida jabrdiyda o'ziga pichoq sanchgan do'stini kechirganligini, aytib, unga nisbatan yengillik qilishni so'rab ko'rsatma berdi.

Sud, davlat ayblovchisining xulosasini, himoyachi advokatning fikrini, sudlanuvchi, jabrlanuvchining ko'rsatmalarini eshitib, jinoyat ishi hujjatlarini o'rganib chiqib, sudlanuvchining jinoyat sodir etganlikda aybli, deb topdi. Natijada, aroqni "do'st" bilgan mushtumzo'r qilgan "ish"iga yarasha jabrini tortadigan bo'ldi.

**Dilshod NAIMOV,  
Jinoyat ishlari bo'yicha Buxoro shahar sudining sud'yasi**

\*JINOYATGA JAZO MUQARRAR

## QABIH "SAVDO"

**Giyohvandlik – jirkanch illat. Ana shu jirkanch illatni tarqatish yo'lida boylik orttirish ilinjida bo'lgan kimsalarni kim deb atash mumkin..?**



2025-yil yanvar' oyining 23 kuni jinoyat ishlari bo'yicha G'ijduvon tuman sudi binosida bo'lib o'tgan ochiq sud majlisida xuddi shunday jinoyatni sodir qilganlar sudi bo'lib o'tdi.

Fazliddin To'laev oilali, 3 nafrar farzandi bor, ishlamaydi, Ozodbek Daminov oilali, 3 nafrar farzandi bor, ishlamaydi, Tohir Shodiev qariyb 60 yoshda, oilali, 2 nafrar farzandi bor, ishlamaydi, Alisher Boboev oilali, 3 nafrar farzandi bor, ishlamaydi...

2024-yil 13-iyul' kuni tezkor xodimlar tomonidan nazorat tariqasida giyohvandlik vositalarini sotib olish tezkor tadbir davomida, aniqlanishicha, F.To'laev O.Daminovga 2 dona rangsiz polietilen bo'lagiga qadoqlab solingen sof vazni 2,27 grammga teng bo'lgan ko'p miqdordagi "gashish" giyohvandlik vositasini 800.000 so'mga sotib, ko'p miqdorda giyohvandlik vositasini sotish jinoyatini sodir etgan. Bu qabib "savdo"zanjiri esa davom etdi.

O.Daminov "gashish" giyohvandlik vositasini olar ekan unga qo'nig'iroy qilgan tanishi T.Shodiev esiga tushdi. Uning iltimosini yerda qoldirish yaxshi emas, deb o'ylab "savdo"ni davom ettirdi.

F.To'laev giyohvandlik vositasini qonunga xilof ravishda sotish jinoyat ekanligini bilib turib, 2024-yil 17-iyul' kuni sinfdoshi A.Boboevga ham sof vazni 1,36 grammga teng bo'lgan ozginadan ko'proq miqdordagi "gashish" giyohvandlik vositasini 600.000 so'mga sotishga kelishdi.

"Zahri qotil" uchun 250.000 so'mni olib, qolgan pulni keyinchalik olishga rozi bo'ldi.

"O'yindan o't chiqadi", deyishadi-ku. Alisher Boboev sudda bergan ko'rsatmasida ko'cha-ko'ydan "gashish" giyohvandlik vositasi iste'mol qilish sog'liq uchun foydali ekanligini eshitgani sababli uni iste'mol qilish istagi paydo bo'lganini aytadi. Haqiqat oldida na bahona, na vaju karson tosh bosadi. Garchi sudlanuvchilar o'zlarini oqlash uchun turli bahonalar topishsada, fakt va daliliy ashyolar bilan jinoyat sodir etilgani o'z tassidig'ini topdi.

Giyohvandlik vositasi o'z xaridori qo'liga yetib borganida nima bo'lardi..? Nogiron bolalar, og'ir jinoyatlar, onalar ko'z yoshi... afsuski, bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin...

Sud F.To'laev, O. Daminov, T.Shodiev, A.Boboevlarni O'zbekiston Respublikasi JKning tegishli moddasi bilan aybdor deb topdi. Qilmishlariga yarasha jazo tayinlandi. F.To'laev 7 yil, O.Daminov va T.Shodievlar 6 yilu 6 oy ozodlikdan mahrum etildilar. A.Boboevga esa, ish haqining 10 foiz miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 1 yil 6 oy axloq tuzatish ishlari tayinlandi. Buzoqning yugurgani somonxonagacha, eskirmaydigan aksioma!

**Yahyo ANDAEV,  
Buxoro viloyat prokurorining  
katta yordamchisi**

### MEROS ISHI OCHILDI

Buxoro viloyati, Romitan tumani, Azizon MFY, Sarbiston qishlog'ida yashab, 2024-yil 15-sentyabrda vafot etgan Tursunov Turg'un Abzalovichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros gubernomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Romitan tumanidagi xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'rالadi.

## HOMILADORLIK VA TUG'ISH NAFAQASINI TAYINLASH

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar**

**Mahkamasining 2022-yil 20-sentyabrdagi "Davlat ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 515-sonli qrori bilan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish nafaqasini tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida" nizomi tasdiqlangan bo'lib, Ushbu nizom, O'zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda va yakka tartibdagi tadbirkorlarda mehnat shartnomasiga asosan oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan ayollarga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish nafaqasini tayinlash va to'lash tartibini belgilaydi.**



Mazkur nizomning 14-bandiga asosan, Nafaqa oluvchining oxirgi olti oy davomidagi uzluksiz ish stajini hisoblashda, yuridik shaxslarda "Yagona milliy mehnat tizimi" dagi va yakka tartibdagi tadbirkorlarda Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasidagi mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirilgan kunga qadar 6 oy uzluksiz ish staji inobatga olinadi.

Bunda ushbu davrda o'ttiz bir kundan ko'p bo'lgan tanaffuslar bo'lganda, mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirilgan kundan oldingi o'n ikki oy davomidagi ketma-ket davrlar ish stajini hisoblashda qo'llaniladi. Agar oxirgi olti oy davomidagi uzluksiz ish staji davrida xodimning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari mavjud bo'limasa, ushbu davr ish stajini hisoblashda inobatga olinmaydi.

**Azizbek INOYEV,  
Kogon tuman adliya bo'limi "Inson huquqlarini himoya qilish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'yicha" bosh maslahatchisi**

## OMMAVIY QABULLAR VAQTIDA TUSHGAN VA JOYIDA HAL ETILGAN OG'ZAKI MUROJAATLARNI RO'YXATDAN O'TKAZISH TALAB QILINMAYDI

**Davlat organining rahbariga yoki vakolat berilgan mansabdor shaxsiga ommaviy qabullar vaqtida tushgan va joyida hal etilgan og'zaki murojaatlarni ro'yxatdan o'tkazish talab qilinmaydi.**

Bunda jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining familiyasi (ismi, otasining ismi) uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, murojaatning qisqacha mazmuni, shuningdek uni ko'rib chiqish natijasi ommaviy qabul bayonnomasida ko'rsatiladi.

**YO.NURETDINOVA,  
Olot tuman adliya bo'limi FHDYO 1-toifali inspektori**

## GULZORDAGI "SASSIQ ALAF"

**Ayolni madh etishda bashariyat lug'atida neki go'zal so'z bor barchasi qo'llaniladi. Tashbehtar ham betakror. Chunki u avvalo Onada deymiz. Ammo ba'zan ayol ishtiroti bilan bog'liq jinoyatlar, chirkin holatlar haqida eshitib qolsak, ta'bimiz xira tortib, kayfiyatimiz tushishi tabiiy hol.**

Nima ham derdik, Rangin ko'kka bo'y cho'zgan, iforli gullar orasida begona o't, sassiq alaflar ham uchrashi tabiatning qonunida.

Shaxina Yovmutova (ism va familiyalar shartli ravishda o'zgartirildi. Chunki sudlanuvchining ikki nafrar voyaga yetmagan farzandlari bor) turmushidan ajrashgan. Buxoro shahar Zulfiya ko'chasidagi xonardonlarning birida ijara yashaydi. Kundalik ro'zg'or xaratatlari, ijara pulini to'lash barchasi o'zining zimmasida. U pul topishning juda qabib yo'llini tanlagani sababini shunda deb biladi.


— Salom, biz bir o'rtoq'im bilan "dam olmoqchi" edik, - (to'g'ridan to'g'ri begona ayolga bunday savol berishga haddi siqqaniga hayron bo'limang.)

— Manzilni bilasiz ha...

Shaxina o'ziga o'xshagan dugonasini esladi. Chunki Iqlimaga ham moddiy yordam kerak. Aslida ayol kishi o'z sulolasini sha'ni, obro'si, nomusi hisoblanadi va bu tuyg'ular pul bilan baholanmaydi. U pul bilan baholangan kun esa o'sha sulola nomiga ketmas dog' bo'lib qoladi.

Shaxina or-nomusni juda arzon 500 ming so'mga baholadi. Oyoq osti bo'lgan Ona degan nom, sharm-hayo juda arzon narxga sotib yuborildi.

Sud sudlanuvchi SH.Yovmutovaga nisbatan jazo turi va miqdorini belgilashda yuqorida Qonun talablari hamda Oliy sud Plenumi Qarori tushuntirishlariga amal qilgan holda uning muqaddam sudlanmaganligini, aybiga iqrorigini, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligini, moddiy ahvoli og'irligini, yolg'iz onaligini, onkologik kasallikdan



davolaniib kelayotganligini hamda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini, shu bilan birga qilmishni g'arazli va boshqacha past niyatlarda amalga oshirganligini inobatga olib, unga nisbatan u ayblanayotgan O'zbekiston Respublikasi JKning 131-moddasi 1-qismi bilan modda sanktsiyasi doirasida majburiy jamaot ishlari jazosi, JKning 131-moddasi 2-qismi bilan modda sanktsiyasi doirasida ozodlikni cheklash jazosi tayinlab, JKning 59-moddasi 2-qismi tartibida tayinlangan yengilroq jazoni og'irroq'i bilan qoplash yo'li bilan uzel-kesil 1 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlashni lozim topdi.

Shaxina xatosini anglab hayotda to'g'ri yo'lni topishi uchun vaqt yetarli. Pushaymonlik xatoni tazatmasligi ham bor haqiqat

**G'ayrat TOLIBOV,  
Buxoro shahar prokurori o'rinnbosari**

## \*DAVLAT XIZMATLARI YANGILIKLARI

### NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARGA O'QISH DAVRIDA YASHASH VA TRANSPORT XARAJATLARI UCHUN SUBSIDIYA AJRATISH TARTIBIDAN XABORDORMISIZ

[Nogironligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida](#)

[O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama-sining qarori, 21.06.2022 yildagi 341-son](#)

Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining (keyingi o'rnlarda - Agentlik) Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rnlarda - Jamg'arma) mablag'lari hisobidan nogironligi bo'lgan yoshlarga nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunar o'rgatish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rgatish, zarur hollarda yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibini belgilaydi. o'qish xarajati uchun subsidiya - nogironligi bo'lgan yoshlarga nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunar o'rgatish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti hamda ushbu Reglamentga 1-ilovada keltirilgan umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rgatish uchun ajratiladigan subsidiya;

yashash va transport xarajati uchun subsidiya - nogironligi bo'lgan yoshlarga ularning nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunar o'rganishi, ularda kasbiy ko'nikmalarning shakllantirilishi, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rganishi davrida yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun ajratiladigan subsidiya. Ariza beruvchi subsidiya olish uchun istalgan davlat xizmatlari markaziga murojaat qiladi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (keyingi o'rnlarda - YIDXP) davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi.

Ushbu Reglamentga muvofiq Jamg'arma mablag'lari hisobidan nogironligi bo'lgan har bir yoshga uning talabiga muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo'lgan miqdorda subsidiya ajratiladi.

O'qish xarajatlari uchun har oyda ajratiladigan subsidiya miqdori:

kasb-hunarga o'rgatish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti uchun BHMning besh baravardan;

umumta'lim fanlari uchun BHMning uch baravardan;

xorijiy tillarni o'rgatish uchun BHMning uch baravardan ko'p bo'imasligi lozim.

Bunda ariza beruvchiga faqat bir turdag'i o'quv kursida 12 oydan oshmagan muddatda o'qish uchun subsidiya ajratiladi.

Transport xarajatlari uchun ajratiladigan subsidiya miqdori, shu jumladan yo'l hujatlari mavjud bo'Imaga, har bir kilometrga bazaviy hisoblash miqdorining 0,2 foizidan oshmasligi lozim.

Bunda kilometr miqdori 500 metr va undan ortiq bo'lgan hollarda - ko'p tomonga, kilometr miqdori 500 metrdan kam bo'lgan hollarda - kam tomonga yaxlitlanadi.

Yashash xarajatlari uchun ajratiladigan subsidiya miqdori bir sutkada ijarada yashash uchun bazaviy hisoblash miqdorining o'n foizidan oshmasligi lozim. Subsidiya har yili arizalar topshirish ketma-ketligi bo'yicha ushbu Qaror talablariga to'liq mos kelgan 500 nafar nogironligi bo'lgan shaxsga ajratiladi.

**T.QOBILOV,**  
Qorako'l tuman adliya bo'limi  
Davlat xizmatlari markazi direktori

### AHOLI VA TADBIRKORLAR UCHUN YANA BIR QULAYLIK: QURILISHGA RUXSAT OLİSH MUDDATI 40%GA QISQARDI

[Adliya vazirligi va Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan Toshkent shahrida eksperiment tariqasida qurilishga ruxsat berish va arxitektura-rejalahtirish topshirig'ni \(ART\) ishlab chiqish davlat xizmatlari kompozit tarzda ko'rsatish bo'yicha qo'shma qaror tasdiqlandi.](#)

Mazkur hujjatga asosan 2025-yil 15-fevraldan boshlab, qurilishga ruxsat berish va arxitektura-rejalahtirish topshirig'ni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan muddatlar va ko'rib chiqish bosqichlari sezilarli darajada qisqartirildi.

Xususan, umumiy muddat 20 ish kunidan 12 ish kuniga, ko'rib chiqish bosqichlari 11 dan 7 taga qisqartirildi va yig'im miqdori BHMning 1,5 baravardan 0,5 baravariga tushirildi.

Muqaddam mazkur davlat xizmatlaridan foydalanish uchun talabgorlar jami 5 marotaba (ruxsatnomalar uchun ariza yuborish, ruxsatnomani olish, ART uchun ariza yuborish, ART to'lovi amalga oshirish hamda ARTni olish) davlat xizmatlari markazlariga kelishlari lozim bo'lgan bo'lsa, hozirda ushbu raqam 3 marotabagacha qisqardi (YIDXPdan yubotilsa kelish shart emas).

Bu o'zgarishlar nafaqat ortiqcha ovoragarchilikni, balki vaqt va mablag'ni tejashga ham yordam beradi. Bitta ariza bilan qurilishga ruxsatnomalar uchun ART hujjatlarini olish imkoniyati yaratildi.

Eksperiment 2025-yil oxiriga qadar Toshkent shahrida olib boriladi va natijalari bo'yicha respublika miqyosida joriy qilish uchun Vazirlar Mahkamasiga takliflar taqdim etiladi.

Yangi tartib shahar va respublikadagi qurilish sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim qadam bo'lib, aholi va tadbirkorlar uchun qulayliklar yaratishga xizmat qiladi.

**H.TOSHEV,**  
**Qorako'l tuman adliya bo'limi**  
**Davlat xizmatlari markazi sho'ba boshlig'i**

### TALABALAR TURAR JOYIGA JOYLASHISH UCHUN ARIZA YUBORISH TARTIBI QANDAY

[Oliy ta'lim muassasalari talabalarini turar joy bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.08.2023 yildagi 376-son qarori](#)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama-sining qarori, 21.06.2022 yildagi 341-son

Talabalarni turar joy bilan ta'minlashning shaffof va samarali tizimini joriy etish maqsadida Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

davlat oliy ta'lim muassasalarining talabalar turar joyiga joylashish faqat davlat xizmati markazlari va (yoki) O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (keyingi o'rnlarda - YIDXP) orqali elektron ariza berish yo'li bilan amalga oshiriladi hamda talabalarga navbatni onlayn kuzatish va to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi;

talabalar bilan tuziladigan turar joy ijara shartnomalari davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchining shaxsiy kabinetni orqali masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) texnologiyasi orqali elektron shaklda real vaqt rejimida hisobga qo'yiladi.

1. 2024/2025 o'quv yilidan boshlab barcha kurs talabalar uchun davlat oliy ta'lim muassasalari talabalar turar joyiga joylashish onlayn shaklda amalga oshiriladi. Bunda talabalar turar joyiga joylashish uchun ariza berish 1-avgustdan boshlab o'quv yili yakuniga qadar davom etadi;

quyidagi toifadagi talabalar ustuvorlik asosida talabalar turar joylariga qabul qilinadi:

"Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilari, yetim va ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan talabalar;

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri", "Temir daftari" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari hamda "Yoshlar daftari"da turadigan talabalar;

I va II guruh nogironligi bo'lgan talabalar;

bir oiladan bakalavriat bosqichi kunduzgi ta'lim shaklida ikki yoki undan ortiq to'lov-shartnomalar asosida o'qiyotgan oilalar farzandlari;

xalqaro fan olimpiadalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkaziladigan respublika fan olimpiadalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar;

"Yil talabasi" va "Talabalar teatr studiyalari" ko'rik-tanlovlarining respublika bosqichi g'olib bo'lgan talabalar;

oliy ta'lim muassasalari talabalar o'rtaida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinining respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar;

talabalar turar joyida talabalar kengashi raisi, qavat sardori bo'lgan talabalar;

g) davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali elektron ariza berish va to'lovlarni amalga oshirishda davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun to'lov undirilmaydi.

Ushbu Reglamentning qoidalari xorijiy, nodavlat va harbiy oliy ta'lim tashkilotlari talabalar turar joylari, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurilgan talabalar turar joylarining xususiy sherik uchun tijoriy maqsadlarda ajratiladigan o'rnlariiga talabalar qabul qilishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

**S.OLTIBOYEV,**  
**Qorako'l tuman adliya bo'limi**  
**Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassis**

## YASHASH JOYIGA DOIMIY RO'YXATGA TURISH UCHUN ARIZA YUBORISH TARTIBI QANDAY

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarni doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.12.2019 yildagi 1049-son qarori

Fuqarolar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga turish yuzasidan o'zlariga qulay bo'lgan tuman (shahar) ichki ishlari organlari yoki Davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilishlari mumkinligi belgilab qo'yilsin. Fuqarolar qonunchilik hujjatlari muvofiq doimiy yashash va (yoki) vaqtincha turgan joylari bo'yicha ro'yxatdan o'tishlari shart. Fuqarolar yangi yashash joyiga kelgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida ichki ishlari organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'lmalarini (keyingi o'rnlarda - MvaFRB), Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini (keyingi o'rnlarda - YIDXP) orqali doimiy yoki vaqtincha ro'yxatdan o'tishlari shart.

Tug'ilgan bolaga fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari (keyingi o'rnlarda - FHDY) tomonidan tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma rasmiylashtirilayotganda, u otasi yoki onasining doimiy ro'yxatga olingan manzilida idoralararo avtomatlashtirilgan tizim orqali ma'lumotlarni kiritish yo'lli bilan doimiy ro'yxatga olinadi. 16 yoshga to'Imagan fuqaro uning ota-onasi yoki vasiysi (homiysi), tutingan ota-onasi doimiy ro'yxatga olingan manzilda doimiy yoki vaqtincha ro'yxatga olinishi shart.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun davlat boji "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunda belgilangan miqdordorda undiriladi. 5. Fuqarolar "Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalarining ro'yxati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan tasdiqlangan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalari ro'yxatiga (keyingi o'rnlarda - Ro'yxat) muvofiq doimiy ro'yxatga olinadi.

Ro'yxatda nazarda tutilmagan shaxslar toifasi Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro'yxatga olinmaydi.

Davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkiloti rahbarining mazkur Nizomga 2-ilovaga muvofiq shaklda ishga taklif etilayotgan fuqaroni (yuqori malakali mutaxassis yoki tor ixtisoslikdagi mutaxassis) doimiy ro'yxatga olish to'g'risidagi elektron iltimosnomasi elektron hamkorlik tizimi orqali MvaFRB tomonidan olinadi.

**H.HAMIDOV,**  
**Qorako'l tuman adliya bo'limi**  
**Davlat xizmatlari markazi sho'ba boshlig'i**

## ISO 37001: 2016 NIMANI ANGLATADI?

ISO 37001:2016 - bu tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimini yaratishning xalqaro usullarini o'zida jam-lagan, korrupsiyaga qarshi mukammal boshqaruv tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qiladigan xalqaro standartdir.

ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqish, joriy etish, qo'llab-quvvatlash, tahlil qilish va takomillashtirish uchun talab va ko'rsatmalarni belgilaydi.

ISO 37001:2016 standartini joriy etish - O'zbekistonda ham fuqarolarning ishonchini orttirish, xodimlarning halolligini oshirish, huquqbuzarliklarni kamaytirish hamda aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning shaffof va samarali tizimini yaratishni maqsad qilgan davlat idoralari uchun juda samarali vosita bo'lishi mumkin.


Adliya vazirligi O'zbekistonda davlat boshqaruv organlari orasida birinchi bo'lib Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo'yicha ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatini qo'lga kirtgan.

Adliya vazirligi faoliyatining barcha yo'naliishlari bo'yicha "CERT INTERNATIONAL" xalqaro tashkiloti (Slovakiya) tomonidan o'rganildi.

O'rganish natijasida vazirlig O'zbekistonning davlat organlari ichida birinchi bo'lib ISO 37001:2016 faoliyatining barcha yo'naliishi "Korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" xalqaro standartiga muvofiq deb baholandi va xalqaro reestrga kiritildi hamda buni tasdiqlovchi sertifikatga ega bo'ldi.

Adliya vazirligining korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi xalqaro standart talablariga muvofiq ichki hujjatlardan tashkil topgan bo'lib, u butun Vazirlik tizimining doimiy nazorat ostida bo'lishini ta'minlaydi.

**A.RAXIMBERDIYEV,**  
**Qorako'l tuman adliya bo'limi**  
**Davlat xizmatlari markazi aloqa operatori**



## GEOGRAFIK KO'RSATKICHNI RO'YXATDAN O'TKAZISH NIMA?

Geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.07.2022 yildagi 385-son

Qonunning 7-moddasiga muvofiq geografik ko'rsatkich muayan geografik obyektda joylashgan va ushbu obyektning nomidan o'zi ishlab chiqarayotgan tovari belgilash uchun foydalanayotgan bir necha yuridik yoki jismoniy shaxsning (alohida hollarda, agar boshqa shaxsler mavjud bo'lmasa yoxud ular talabnomani berishda ishtiroy etish istagini bildirmasa, bitta shaxsning) talabnomasiga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Geografik ko'rsatkichlarni yoki geografik ko'rsatkichlardan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomasi (keyingi o'rnlarda - talabnomasi) berish va davlat xizmatidan foydalanish bo'yicha boshqa harakatlar ro'yxatdan o'tkazishni so'rayotgan yuridik va jismoniy shaxs (keyingi o'rnlarda - talabnomasi beruvchi) tomonidan bevosita yoki vakili (patent vakili yoki ishonchli shaxs) orqali amalga oshiriladi.

Bunda, geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnomasi bir necha shaxs tomonidan ularning istalgan biri yoki boshqa vakili orqali beriladi.

Talabnomasi quyidagi shaxs o'z ichiga oladi:

geografik ko'rsatkichni va (yoki) geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza (keyingi o'rnlarda - ariza);

talabnomada ko'rsatilgan belgi yoki, agar Geografik ko'rsatkichlarni davlat reyestrda (keyingi o'rnlarda - Reyestr) ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, geografik ko'rsatkich;

qaysi tovar turi uchun geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan bo'lsa, o'sha tovar turining nomi;

geografik obyektning chegaralaridagi tovar ishlab chiqariladigan joy;

tovarning xususiyatlari u ishlab chiqarilayotgan joyga bog'liq ekanligiga taalluqli ma'lumotlar;

tovarning geografik jihaddan kelib chiqishiga, mazkur geografik obyektni uchun xos bo'lgan tabiiy sharoitlarga va (yoki) inson omillariga sezilarli darajada bog'liq bo'lgan tovar xususiyatlarining tavsifi, shu jumladan tovari ishlab chiqarish uchun foydalaniладigan boshlang'ich materialning tavsifi, tovarning fizik, kimyoiy, mikrobiologik, organoleptik yoki badiiy xususiyatlari;

talabnomada bayon etilgan qoidalarga va tovarning aniq xususiyatlariga rioya etilganligini tasdiqlovchi vakolatlari inspeksiya organi yoki laboratoriyaning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili).

Davlat xizmatidan foydalanishda:

rezidentlar - vakolatlari organning maxsus axborot tizimi (keyingi o'rnlarda - axborot tizimi) yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini (keyingi o'rnlarda - YIDXP) orqali;

norezidentlar - axborot tizimi orqali vakolatlari organga talabnomasi beradi.

Talabnomasi vakolatlari organga pochta aloqasi orqali ham berilishi mumkin. Bunda talabnomasi vakolatlari organ tomonidan zudlik bilan axborot tizimiga kiritiladi.

Talabnomaga axborot tizimida avtomatik ravishda ikkita harfla va sakkiz xonali ro'yxat raqami beriladi, bunda harflar (GK) sanoat mulki obyekti - geografik ko'rsatkichni, talabnomasi raqamidagi dastlabki to'rtta son - talabnomasi berilgan yilni, keyingi to'rtta son - shu yildagi har yili birdan boshlanadigan tartib raqamini bildiradi.

**A.MAVLONOV,**  
**Qorako'l tuman adliya bo'limi**  
**Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassis**

## MEROS ISHI OCHILDI

Buxoro viloyati, Romitan tumani, O'zbekiston MFY, Churko'l qishlog'i, 155-uyda yashab, 2023-yil 8-fevralda vafot etgan Narzulloyev Voxit Sayfilloyevichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Romitan tumanidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

## BOSHI BERK KO'CHA

2024-yil dekabr oyining 11 kuni Jinoyat ishlari bo'yicha Buxoro tuman sudi binosida Qosimov Salim Erkinovich (ism-sharifi o'zgartirilgan)ning 1-2002-2401/157-tonli jinoyat ishi ko'rib chiqildi.



Sudlanuvchi Qosimov Salim Erkinovich muqaddam qasddan sodir qilgan jinoyatlari uchun bir necha marotaba sudlanib, xavfli retsidivist bo'la turib, yana qasddan jinoyat sodir qilish yo'liga o'tib, aldash va ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganining mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida, 2023-yil sentyabr oyida fuqaro Sayfieva Nozima Nazarovnaning ishonchiga kirib, uni va kelini M.Bekmurodovani tez fursatlarda RSHTYOIAM Buxoro filialiga hamshira vazifasiga ishga joylashtrib qo'yishini aytib, uning ishonchiga kirib, undan Buxoro tumanı, "Novmetan" m.f.y., "Novmetan" qishlog'ida 1.200 AQSH dollarri (1 AQSH dollari 01.09.2023 yilda 12.089.97 so'mga teng bo'lgan 14.506.800 so'm) miqdoridagi pullarni aldov yo'li bilan qo'lga kiritib, N.Sayfievaning ishonchini suiste'mol qilib, xavfli retsidiv firibgarlik jinoyatini sodir qilgan.

Sud unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 168-moddasi 3-qismi "b" bandlari bilan nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybli deb topib, unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 168-moddasi 3-qismi "b" bandlari bilan JK 57-moddasini qo'llab besh yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi hamda undiruvchilarning foydasiga 17.379.927 so'm zarar undirish belgilandi.

Har qanday qing'ir ishning ko'chasi hamisha berk bo'ladi. Xulosa chiqarish esa har kimning o'z vijdoniga havola.

Farrux QAHOROV,  
Jinoyat ishlari bo'yicha  
Buxoro shahar sudi tergov sud'yasi

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri"  
axborot tizimi orqali kam ta'minlangan  
oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy  
nafaqalar tayinlash bo'yicha elektron  
shaklda ariza berishni joriy etish choratadbirlari to'g'risidagi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasining 10.11.2023 yildagi 596-son qarori.

2024-yil 1-apreldan boshlab kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash uchun onlays ariza berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi - idoralararo elektron o'zaro hamkorlikni qo'llagan holda kam ta'minlangan oilalarni aniqlash, ularga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash hamda davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamni olish uchun murojaat qiluvchilar va oluvchilar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

ariza beruvchi - oilaning 18 yoshga to'lgan ijtimoiy nafaqa olish istagida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, O'zbekiston Respublikasi hududida yashash guvohnomasiga ega bo'lgan chet el fuqa-rosi yoki fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga (keyingi o'rinnlarda - ariza beruvchi) ko'rsatiladi. Davlat xizmati davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali yoxud O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan ko'rsatiladi va ijtimoiy nafaqa AT "Xalq banki"ning tuman (shahar) bo'limlari (filiallari) tomonidan to'lab beriladi. "Yagona reyestr" AT orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oila (shaxs)ga YIDXP yoki davlat xizmatlari markazi orqali uch daqqa ichida ushbu Reglamentga 2-ilovaga muvofiq shaklda ma'lumotnomasi taqdim etiladi.

Ushbu ma'lumotnomasi qonunchilik hujjalardan belgilangan xizmatlardan foydalanish va imtiyozlarni olish uchun taqdim etiladi va kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oydan boshlab o'n ikki oy davomida amal qiladi.

Agar bitta oila so'nggi o'n ikki oy davomida ketma-ket "Yagona reyestr" AT orqali bir necha marotaba:

kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan bo'lsa, bunda ma'lumotnomasing amal qilish muddati ushbu oila oxirgi marotaba kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oydan boshlanadi;

ijtimoiy nafaqa - kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam;

Davlat xizmati kam ta'minlangan

Kogon tumanı, Razane qishlog'ida yashovchi Toshtemer Sohibov (ism-familiyalar o'zgartirilgan) uyidan o'g'li bilan joriy yilning 26 yanvar kuni taxminan soat 8:20 larda Shofirkon tumanı markazida joylashgan "Dehqon bozori"da sho'rdanak sotish maqsadida yo'lg'a chiqishdi. "LASETTI"ni T.Sohibovning o'g'li boshqarib bordi.

## HAYDOVCHI JARIMADAN QUTULIB QOLDI

Ikkovlon taxminan soat 09:30 larda "Dehqon bozori"ga yetib borishgach, o'g'il avtomashinani yo'l chetida qoldirib, bir qop danakni olib, bozorga kirib ketdi. Avtomashina yukxonasi ochiq holatda bo'lganligi sababli ota mashinaning orqa tomonida edi. Shu payt IIB YHXB xodimi kelib, uni spirtli ichimlik ichgan holda avtomashina boshqarganlikda gumbonsirab, texnik vosita yordamida tekshirdi. Salbiy natija chiqdi. T.Sohibov mashinani o'zi boshqarmagani va bir kun oldingina spirtli ichimlik iste'mol qilganligini qayta-qayta ta'kidladi. Afsuski, noqonuniy ravishda hujjat rasmiylashtirildi.

Haq-huquqi toptalgan fuqaro esa aybsizligini isbot qilish uchun sudga murojaat qildi. U sudda IIB YHXB xodimining ushbu harakatidan norozi ekanligini bildirib, ko'rsatma berdi.

Sud, to'plangan dalillarga baho berib, T.Safarovning harakatida biror bir huquqbazarlik alomatlari mavjud emas, deganadolatli to'xtamga kelib, ma'-muriy ishni O'zbekiston Respublikasi MJtKning 271-moddasi 1-bandiga asosan harakatdan tugatishni maqsadga muvofiq deb hisobladi. T.Sohibovga nisbatan ma'muriy ish yurituvidan tugatildi.

Asosiyasi,adolat qaror topdi.

Ulugbek BOZOROV,  
Jinoyat ishlari bo'yicha  
Kogon tuman sudining sud'yasi



## KAM TA'MINLANGAN OILALARGA BOLALAR NAFAQASI VA MODDIY YORDAM TAYINLASHGA ARIZA BERISH TARTIBI QANDAY?

kam ta'minlangan deb e'tirof etilmagan bo'lsa, bunda ma'lumotnomasing amal qilish muddati ushbu oila kam ta'minlangan deb e'tirof etil-magan oydan keyingi oyning birinchi sanasida yakunlanadi. Davlat xizmatlari ko'rsatilganligi uchun yig'im undirilmaydi. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat qiladi, davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish uchun YIDXPdan ro'yxatdan o'tadi yoki "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlaridagi ijtimoiy xodimlarga murojaat qiladi. Ariza beruvchi tomonidan so'rovnoma noto'g'ri ma'lumotlarning ko'rsatilishi, uni tasdiqlashning rad etilishi, tegishli hujjatlar ilova qilinma-ganda yoki ariza beruvchi oilasi "Yagona reyestr" ATda kam ta'minlangan oila sifatida ro'yxatga olinan bo'lsa davlat xizmatlari ko'rsatishni rad etish uchun asos hisoblanadi. Davlat xizmatlari ko'rsatishni boshqa asoslar bo'yicha rad etish taqiqlanadi.

A.BO'RUYEV,  
Qorako'l tuman adliya bo'limi  
Davlat xizmatlari markazi katta mutaxassis

# FARZAND TARBIYASIDA OILA VA OTA-ONANING O'RNI

**OILA – jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Oila – nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalarini – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyuştirishdan iboratdir.**

Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdag'i yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamolotni uchun sarflangan har bir daqqaq ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Agar ota-onasi vaqtida farzandiga e'tibor qaratmassa, uning kelajagi uchun qayg'urmassa, keyinchalik afsus-nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtida esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e'tiborli bo'lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo'imaslik lozim. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-onasi o'z farzandi uchun ko'zgudir. Ularning muomala va munosabati, o'zini tutishi farzandiga bo'lgan e'tibori alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda internet rivojlangan bir vaqtida yoshlar ko'p vaqtini telefonda har xil videolar ko'rish, o'yinlar o'ynash bilan behuda sarflamoqda. Har sohada qobiliyatli yoshlar bilan bir qatorda vaqtini internet bilan o'tqazadigan yoshlar ham yo'q emas. Farzandlarni ilm olishga o'rgatishda oil ava ota-onaning o'rni muhimdir. Farzandni atrofidagilar kitob o'qisa, farzandlar ulardan o'rnak olishadi. Yevropa davlatlarida metrolarga o'qish uchun alohida kitob burchaklari tashkil etilgan. O'zbekistonda ham kitob olib o'qish uchun jamoat joylarida kitob burchaklarini tashkil etsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: "Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo'liga ilm-u adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. O'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir". Bu fikrlar orqali qattiqqo'llik va shafqatning me'yorda bo'lishini bilish mumkin. Mirzo Ulug'bekning oila muhitini yaxshilash, sog'lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya'ni oila muhim o'rinni egallaydi. Oilada ota-onalar bilimli bo'lishini, tarbiya berishda ota-onaning o'zi o'rnak va hayotiy misol bo'lishiga farzandi guvoh bo'lishi eng ko'p samara berishi ta'kidlangan. O'zbek adabiyotining mashhur namoyondalaridan biri akademik G'afur G'ulom asarlarda axloq, ilm o'rganish, farzand tarbiyasiga oid muhim jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Jumladan G'afur G'ulomning "Yodgor" qissasida bosh qahramoni Saodatning uydagilari o'qishi qarshi bo'ladi. Ammo, qizning o'rtoqlarini iltimosiga ko'ra o'qishga

ruxsat beradi. Saodat pedtexnikumga imtihon asosida o'qishga kiradi. Saodat bu haqda Jo'raka yozgan maktubida aytilib o'tgan. Asar bevosita orzu-umid va kechinmalarga boy tarzda yozilgan. Jo'raning maktubida shunday yozilgan: "Saodat! O'qishga kirganining eshitib, juda hursand bo'ldim. Kelajakda baxtli bo'lmogni istagan har bir qiz o'qishi kerak". G'afur G'ulom Jo'raning tilidan qizlarni o'qishga da'vat etmoqda. Adib usha davrlardayooq xotin-qizlarni ta'limiga e'tibor bergan kishi sifatida, jamiyatda xotin-qizlarning o'rni alohida ekanligini bildirmoqda. Jamiyatda, shunday bir naql bor, "Bitta erkak o'qisa, bitta oila ma'rifatlari bo'ladi. Bitta ayol o'qisa millat ma'rifatlari bo'ladi.

Qissada 1930-yillardagi voqealari tasvirlangan bo'lib, usha davrda xotin-qizlarning maktabdan keyingi ta'limi o'z erkida bo'lmagan. Saodat ham maktabni bitirgach ancha vaqt o'tib ota-onasining roziligi bilan o'qishga kiradi. Jo'raning singlisi Qumri esa maktabni bitirgach To'qimachilik institutiga o'qishga kiradi. Bu oilada muhit boshqacha edi. Jo'ra asarda ma'naviyati porloq inson sifatida tasvirlangan. Saodatga aytgan quyidagi so'zlarida ijtimoiy tenglikni yaqqol ko'rishimiz mumkin: "Ikki yildan keyin to'yimiz bo'ladi. Men o'qishimni bitirib kelaman. Sen ham o'qishingni bitirib qo'yishga majbursan. Porloq turmush uchun, chin hayot uchun, yaxshi farzandlarning ota-onasi bo'lish uchun ilgariga qarab shagom marsh!", "Men eng yaxshi shifokor bo'lib kelishni, u eng yaxshi pedagog bo'lishni va'dalashdik. Ko'rishimiz mumkinki, "Yodgor qissasi"da gender tenglik masalasi alohida ahamiyatga ega. Umuman olganda qissa yosh avlod uchun muhim tarbiyaviy darslar beruvchi asar hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda adibning "Farzandi Solih" hikoyasida farzandni tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerakligi, farzandni yoshligidan kasba yo'naltirish kerakligi haqidagi g'oyalari ilgari so'rilgan. G'afur G'ulom asarlari juda ham xalqchil ya'ni, ijtimoiy hayot bilan bevosita bog'liq bo'lib, bugungi kunda dolzarb bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni xalq tilida ochib bergen. Ushbu hikoya bosh qahramoni Shoshqol domla o'zi yaxshi hayot kechira olmaganligi uchun o'g'lini yoshligidan savdogarlikka o'rgatishga qaror qiladi. Asar qahramoni savdogarlikni eplolmagach Shoshqol domla o'g'lini shogirdlikka berishga qaror qiladi.

Adibning ushbu asari orqali har bir ota-onasi farzandini kelajagi haqida oldindan qayg'urishi zarurligini his qilamiz. G'afur G'ulom 1930-yillardayooq xotin-qizlarni ta'limi, ularning siyosiy faoliyi, farzand tarbiyasidagi o'rni, oilada tarbiya, mehnatsevarlik masalariga urg'u bergen. Zero, jamiyatga foydali insonni yetishtirish oiladada farzandlar tarbiyasidan boshlanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev oila xususida quyidagi jumlalarni ta'kidlaydi: "Hayotda eng katta narsa har bir inson uchun bu oila. Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qaerda ishlashingdan, kim bo'lishingdan qat'i nazar, oilada tarbiya, muhit, halollik, mehr-oqibatga e'tibor berilmasa, hech qachon kerakli natijaga erishilmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor bergenman. Farzandimga ham, nevaramga ham alohida munosabatim bor, har birining niyatini, istagini bilaman. Agar oila bilan bo'lsang, o'zingni baxtli deyishga to'liq haqing bor. Faqat oilam emas, xalqim ham baxtli bo'lsa, men o'zimni baxtli his qilaman".

**Nargiza AXTAMOVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi**



"Farzandi solih" hikoyasida Ostonaqul ismli yigitning ota-onasi bilan bo'lgan munosabatlari, ularning farzandlaridan kutgan umidlari va o'zaro mehr-muhabbat haqida so'z boradi. G'afur G'ulomning ushbu hikoyasi bir qator tarbiyaviy jihatlarga ega bo'lib, ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Hikoyada ota-onasi va farzand o'rtasidagi muhabbat va mas'uliyat masalasi markaziy o'rinni tutadi. Shoshqol domla va ayoli o'g'li Ostonaqulning "O'limasa magazinchi bo'ladi" deya yaxshi umidda ila, kelajakda o'z oilasini boqishga qodir bo'lishini orzu qiladi. Bu orqali adib ota-onalarning farzandlaridan kutgan umidlarni, ularning farovon kelajagi uchun qilgan fidokorliklarini ko'rsatadi.

Ostonaqul hayotning qiyinchiliklari tufayli

## G'AFUR G'ULOMNING "FARZANDI SOLIH" HIKOYASINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

**G'afur G'ulom o'zbek adabiyotidagi eng muhim va sermahsul adiblardan biri sifatida o'z asarlari orqali xalqning ma'naviy olamini, hayotiy qadriyatlarini va axloqiy mezonlarini yorqin aks ettirgan. Uning "Farzandi solih" hikoyasi ham o'zbek adabiyotidagi eng muhim asarlardan biri bo'lib, unda ota-onasi va farzand o'rtasidagi muhabbat, mehr-oqibat, sadoqat va mas'uliyat kabi muhim mavzular o'z aksini topgan. Ushbu hikoya nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham kitobxonlar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.**

o'qishni tashlab, turli ishlari bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. Ammo u ota-onasiga bo'lgan mas'uliyatini unutmaydi va ularning qadrini bilishga harakat qiladi. Bu orqali adib hayotiy sinovlar oldida taslim bo'lmashlik kabi muhim fazilatlarni o'rgatadi. Shu bilan birga, ota-onalarga farzandlarining qiyinchiliklarini tushunish, ularni qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'lda o'qishga o'rnaltirish mas'uliyatini eslatadi.

Hikoyada oila qadriyatlarining muhimligi alohida ta'kidlanadi. Ostonaqul va uning xotini o'g'illari Ostonaqul va Qosimdan o'z oilasini boqishga qodir bo'lishini, ota-onasi duosini olishga intilishini kutadi. Ostonaqul esa ota-onasining umidlarini ro'yogha chiqarish uchun harakat qiladi. Bu orqali adib oila ichidagi mehr-oqibat, bir-biriga yordam berish va o'zaro hurmat kabi qadriyatlarining muhimligini ko'rsatadi.

G'afur G'ulomning "Farzandi solih" hikoyasi bugungi kunda ham o'z ahmiyatini yo'qotmagan. Zamoniaviy jamiyatda ko'plab yoshlar o'qish va bilim olish, ota-onaga hurmat va mas'uliyat kabi masalalarda turli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu hikoya yoshlarga ota-onaning qadrini bilish, ularning

umidlarini ro'yogha chiqarish va hayotiy sinovlar oldida taslim bo'lmashlik kabi muhim fazilatlarni o'rgatadi. Shu bilan birga, ota-onalarga farzandlarining qiyinchiliklarini tushunish, ularni qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'lda o'qishga o'rnaltirish mas'uliyatini eslatadi.

G'afur G'ulomning "Farzandi solih" hikoyasi o'zbek adabiyotidagi eng muhim asarlardan biri bo'lib, unda ota-onasi va farzand o'rtasidagi muhabbat, bilim olishning ahmiyatni, hayotiy mas'uliyat va oila qadriyatlarining muhimligi kabi mavzular o'z aksini topgan. Hikoya o'quvchilarga ota-onaga surʼat, mehr va sadoqat, bilim olishga intilish va hayotiy sinovlar oldida taslim bo'lmashlik kabi fazilatlarni o'rgatadi. Shu sababli, "Farzandi solih" hikoyasi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham katta tarbiyaviy ahmiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni o'z oilasiga, ota-onasiga va jamiyatga sadoqatli bo'lishga undaydi.

**Sevinch RAMAZONOVA,  
TDYU 2-kurs talabasi**

Adabiyot vakili bo'lgan har bir ijodkorning ichki dunyosini, tafakkur tarzini va his-tuyg'ularini bilish uchun uning ijodini o'rganish kifoya. Biroq, ba'zan shaxs sifatida uning qalbiga yanada yaqinroq kirish, ichki kechinmalarini his qilish uchun rasmiy asarlardan tashqari, uning shaxsiy yozishmalari, xatlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Xat - bu ijodkorning qalbining yashirin tuyg'ulari aks etgan samimiy sahifa, ichki ovozning so'zga aylangan shaklidir.

G'afur G'ulom ham o'z xatlarida shoir va yozuvchi sifatidagi iste'dodini, hayotga bo'lgan teran nigohini va betakror uslubini namoyon qilgan. Uning xatlari shunchaki muloqot vositasi emas, balki badiiy san'at darajasiga yetgan asarlar hisoblanadi. U xatlarida xalqona humor bilan badiiy ifoda usulini uyg'unlashtirgan, chuqur falsafiy mulohazalarni soda va samimiy tarzda yetkazgan. Bu jihatlar shoirning nafaqat ijodida, balki shaxsiyatidagi ulug'verlikni ham namoyon etadi. Ushbu maqolada G'afur G'ulomning xat yozish mahorati, uning uslubiy xususiyatlari va shaxsiy yozishmalarida namoyon bo'lgan badiiy jihatlar tahlil etiladi. Shoирning xatlari nafaqat tarixiy hujjat sifatida qimmatli, balki o'zbek adabiy tilining mukammalligini ifodalovchi namunalardan biri sifatida ham alohida o'ringa ega.

Har qanday ijodkor uchun oila - ilhom manbai. G'afur G'ulomning xatlarida bu jihat yaqqol sezildi. Adibning yaqinlariga yozgan maktublari uning mehribon otaligi, sadoqatli turmush o'rtoqligi va o'z oilasiga bo'lgan yuksak mehr-muhabbatini aks ettirgan. Uning qizlari bilan yozishmalarida samimiylig va mehrni ko'rish mumkin. Shoирning qizi Olmosxon bilan suhbatda ham bu jihatlar yaqqol namoyon bo'lgan. Uning so'zlariga ko'ra, G'afur G'ulom juda quvnoq, mehribon inson bo'lib, farzandlariga katta mehr bilan munosabatda bo'lgan. Ular uuda kichik sahna tashkil etib, unda turli chiqishlar qilishgan. Shoир esa turli musiqiy asboblarni chalib, farzandlariga quvonch ulashgan. Bu ma'lumotlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkin: G'afur G'ulomning oila a'zolariga yozgan xatlari shunchaki yozishmalar emas, balki samimiyat, mehr va insoniylik namunalardir. U o'z maktublarida o'z farzandlariga hayot saboqlari berib, ularga o'z mehrini ifodalash bilan birga, o'qish va izlanishga

## *G'afur G'ulom xatlarining badiiyati va ularning o'zbek adabiy tilidagi o'rni*



MEN O'ZBEK SHOIRIMAN – O'Z XALQIMNING TILIMAN

G'afur G'ulom

undagan. Uning oilaviy xatlari milliy an'analar, oilaviy qadriyatlar hamda ota-onva farzand o'rtasidagi samimiy munosabatlarning ajoyib namunalaridir.

Shoirning shogirdlariga yozgan maktublari esa o'ziga xos badiiy tahlil va tanqid bilan sug'orilgan. U doimo yoshlarga o'git berish, ularning kamchiliklarini ko'rsatish hamda ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishga intilgan. Biroq, bu tanqidiy fikrlar doimo xalqona humor va badiiy tasvir bilan boyitilgan bo'lib, shogirdlar uchun juda tushunarli va qiziqarli uslubda ifodalangan. Uning shogirdlariga yozgan xatlaridan anglash mumkinki, u faqatgina ularga o'git berish bilan cheklanmagan, balki ularning iste'dodini charxlab, ularni yanada kamolot sari yo'naltirishga harakat qilgan. Uning xatlari murabbiylarning eng yorqin namunalari bo'lib, bugungi kunda ham yosh ijodkorlar uchun o'rganishga arziyidigan maktublardir. U har bir xatida insoniy kamchiliklarni badiiy uslubda yetkazgan, tanqidni muloyimlik va hazil bilan aralashirgan. Bu jihatdan uning xatlari adabiy maktub janrining mukammal namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Har qanday yozma asar tilning imkoniyatlarini namoyish etishda muhim ahamiyat kasb etadi. G'afur G'ulomning xatlari o'zbek adabiy tilining mukammalligini ifodalovchi eng yorqin namunalar sirasiga kiradi. Shoир o'z maktublarida sodda, ravon, xalqona, ammo shu bilan birga, adabiy tildagi anqlik va mantiqiy uyg'unlikni saqlagan holda fikr bildirgan. Uning xatlari bevosita xalq tiliga yaqin bo'lsa-da, ularning har biri adabiy til me'yorlariga to'liq mos keladi. Xat janri ba'zan rasmiy, ba'zan esa norasmiy shaklda bo'lishi mumkin. G'afur G'ulomning xatlari shu jihatdan universal ahamiyat kasb etadi.

U rasmiy uslubda ham, norasmiy uslubda ham yozgan, ammo har qanday holatda ham o'zbek adabiy tilining barcha talablariga javob bergan. Uning yozish uslubi xalqona va o'ziga xos badiiy bo'lib, so'z tanlovi va jumlalarning tuzilishi aniq, ifodali hamda ta'sirchan bo'lgan. Bugungi kunda yozma muloqot, ayniqsa, elektron maktublar va ijtimoiy tarmoq yozishmalar bilan bog'liq muammolar dolzarb masalalardan biridir. Tilshunoslar tomonidan yozishmalar madaniyatining pasayib borayotgani ko'p bora ta'kidlanmoqda. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, G'afur G'ulomning maktublari bugungi avlod uchun nafaqat badiiy, balki uslubiy jihatdan ham mukammal o'rnak bo'la oladi.

Xulosa

G'afur G'ulomning xatlari uning ijodiy va insoniy qiyofasini to'liq aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir. Uning oilaviy yozishmalar mehr, samimiyat va insoniy qadriyatlarning yorqin ifodasi bo'lsa, shogirdlariga yozgan xatlari pedagogik mahorat, tanqidiy fikrlash va badiiy tasvirning ajoyib namunalaridir. Shoир o'z xatlarida xalqona ifoda va falsafiy mulohazalarni uyg'unlashtirib, adabiy xat janrining eng mukammal namunalarini yaratgan. Bugungi kunda G'afur G'ulomning maktublari yozma muloqot madaniyatini shakllantirishda katta o'ringa ega. Ularning barchasi o'zbek adabiy tilining me'yorlariga mos bo'lib, nafaqat tarixiy hujjat sifatida, balki badiiy va uslubiy jihatdan ham o'rganishga arziyidigan bebaho manbalardir. Shu sababli, shoирning xatlari nafaqat adabiyotshunoslar, balki tilshunoslar, yozuvchilar hamda yozma nutq madaniyatini o'rganayotgan har bir inson uchun katta ilmiy va ma'naviy ahamiyat kasb etadi.



## Ayol

Dedilar: "Sabrdan yasagin qalqon,  
O'zingdan ketma, emassan-ku xon.  
Behuda narsaga bo'lma xomxayol,  
Axir sening noming ayoldir! Ayol!!!"

Oilam de, o'zni unut bu zamon,  
Gap-so'zlarga ko'zing yum pinhon.  
To'rt kunlik umring topmasin zavol,  
Axir sening noming ayoldir! Ayol!!!

Hurmat ko'rsat, xizmat qil beayov,  
Bo'lsin soching supurgi, qo'llaring kosov.  
Yegan oshingni qilarsan halol,  
Axir sening noming ayoldir! Ayol!!!

Ovozingni ko'tarib, kulmagin xandon,  
O'zgalar nazdida bo'lماgin yomon.  
Shunda jamiyatga kelmaysan malol,  
Axir sening noming ayoldir! Ayol!!!"

Bu so'zlarni tinglab, ezildim chunon,  
Ayolning azobin bilmaysiz, nodon.  
Dedim: "Hech kimsaga kelmasdir malol,  
Axir u mushtipar ayoldir, Ayol!!!"

Derlar: "Dunyolarni kuldirgan ayol,  
Tosh qalbdan muhabbat undirgan ayol".  
Kuchsiz deb o'ylamang, bo'lib xomxayol,  
Axir u yengilmas ayoldir! Ayol!!!

Ayol – bu hayotning otash yuragi,  
Dunyo-yu jahonga bordir keragi.  
Topgan-tutganini keltirar halol,  
Axir u jonkuyar ayoldir! Ayol!!!

Ilk bor payg`ambarga keltirgan iymon,  
Islom uchun fido qilgan jon.  
Xadicha, Sumayya bo'lgandir ayol,  
Axir bular erkakmas, ayoldir! Ayol!!!

Ayol – matonatli, yengilmas ona,  
Ayolsiz bu dunyo bo'lur devona.  
Butun dunyo ta'rifidan qolsin lol,  
Axir u tengi yo'q ayoldir! Ayol!!!.

**O'g'iloy TUYBOYEVA,  
BuxDU Filologiya fakulteti  
2-bosqich talabasi**

## Navro'z bayramini nishonladik

Navro'z bayrami bu ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan, tabiatning qayta tirlishini nishonlaydigan bayramidir. U xalqimiz uchun faqat yangi yil boshini emas, balki hayotning yangi davriga qadam qo'yishni, yashashni va hayotga qiziqishni anglatadi.



Navro'z bayramining tarixiy rivojlanishi va ahamiyati ko'plab xalqlar orasida keng tarqalgan. Navro'z so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "nav" (yangi) va "ro'z" (kun) so'zlarining birlashmasi bo'lib, "yangi kun" yoki "yangi yil" degan ma'noni anglatadi. Bu bayramning nomi, albatta, uning tabiat bilan bog'liqligini, yangi mavsum va tabiatning qayta tirlishini anglatishini ko'rsatadi.

Romitran tumanidagi 11-umumta'lim maktabi 3-“D” sinf o'quvchilari bilan Navro'z bayrami munosabati bilan tadbir o'tkazdik. Tadbirning mazmunli bo'lishini folklor, qo'shiqlar va raqslar ta'minladi.

Tadbirda bayramning tarixiy ahamiyati, xalq urf-odatlari haqida ham so'z bordi. Shuningdek, o'quvchilarga Navro'zga oid savollar berib, viktorina o'tkazdik. Bu savollar bayramning tarixiy tomonlariga, urf-odatlarimiz va tabiatga munosabatlarga oid bo'ldi.

**Laylo HAKIMOVA,**  
**Romitran tumani 11-umumta'lim maktabi 3-“D” sinf o'qituvchisi**

## Bahor tarovati



"Bahor" degan so'zni eshitgan insonlar yuraklaridan quvonch kechadi. Iliq kunlar, yashillikka burkangan dala va bog'lar, havoga taralgan gul iforlari kishiga o'zgacha zavq beradi.

Bahorda mayin shabadalar esib, quyosh iliq nurlar sochadi. Qushlarning chug'ur-chug'uri esa tabiat uyg'onganidan darak beradi. Bog'-rog'lar yashnab, daraxtlarning gullari ochiladi. Saraton oftobining hotamtoy iliqligi yurakka zavq bag'ishlaydi. Bu faslning eng katta bayrami Navro'zdir. Bu bayram tabiat uyg'onishi, yangilanish va birdamlik ramzi hisoblanadi. Navro'z kuni o'zbek xalqi milliy qadriyatlarini namoyon etadi: sumalak pishiriladi, xalq o'yinlari o'tkaziladi, do'stlar va qarindoshlar bir joyga yig'ilib, bahoriy bayramni nishonlaydi. Ayniqsa, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami bu faslga yanada o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Bahor nafaqat tabiatni, balki inson qalbini ham go'zallikka to'ldiradi.

Bu faslning yana bir ajoyib jihat yoshlarga ilhom bag'ishlashidir. Yosh bolalar quvonch bilan o'ynab kulishsa, kattalar bahordan bahra olishadi. Tabiat musaffoligi inson ruhiyatiga ham ijobjiy ta'sir qiladi.

Bahor nafaqat tabiatda, balki har bir inson qalbida ham yashashi kerak!

## Buvijonim

Alla aytib, yotmagan,  
Erkalatib tolmagan.  
Onamdayin mehribon,  
Buvijonim, buvijon.  
Allalari ma'noli,  
Ovozlar shirali.

Taomlari mazali,  
Buvijonim, buvijon.  
Mehrga to'la so'zları,  
Yuragimning ko'zları.  
Duo bilan oqqan yillar,  
Buvijonim, buvijon.

**Aslmuhabbat RAHMONOVA,**  
**Jondor tumani "Barkamol avlod" bolalar maktabi**  
**"Yosh qalamkash" to'garagi a'zosi**

# Maktabgacha yoshdagи bolalar psixikasining shakllanish jarayonlari

**Ta'lim va tarbiya jarayoni shaxsnи tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini astasekin ko'nikmaga aylantirib borishdagi asosiy jarayondir. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashda bu jarayon psixologik yondashuv orqali bolalarning intellektual rivojlanishiga tayanadi. Ammo muammo iqtidorli daholarni izlashda emas, balki ijodiy qobiliyatlarni magsadli shakllantirish, yangicha fikrlashni rivojlanirishdadir. Bu ijodkorlik, ixtiro qilish, bolaning shaxsiyatini shakllantiradigan, uning mustaqilligi va kognitiv qiziqishini rivojlaniradigan eng yaxshi, eng yangi narsalarni yaratish qobiliyatini shakllantirish asosida namoyon bo'ladi. Mazkur masalalar mantiqan bir-biri bilan uzviy bog'liq holda izchil tadqiq etilishi maktabgacha pedagogika sohasida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etishda yangicha psixologik yondashuvni taqozo etadi.**

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan bunday zamonaviy talablar tarbiyachilarni ushbu ta'lim tizimini rivojlanirishga yo'naltiradi. Bu esa o'z navbatida maktabgacha yoshdagи bolalar uchun rivojlaniruvchi, kognitiv, o'yninli ta'lim, izlanuvchanlik va o'zaro ta'sir elementlarini sintez qiladigan yangi texnologiyalardan foydalanan muhitining zarurligini taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagи bolalarning hayot tarziga nazar tashlasak, bog`chada bolalar ko`p vaqtin rasm chizish, qo'l mehnati bo'yicha vazifalarini bajarishga turli ertak va hikoyalarni tinglash, televizor ko`rish, o'tirib o'yninoqlar o`ynashga sarf qiladilar.

Bolaga shunday muhit va shunday munosabatlар tizimi yaratib kerakki, bu bolaning turli mustaqil faoliyatini rag'batlantirsin va unda kerakli vaqtida eng samarali ko'nikmalarni o'zlashtira olsin, shu jumladan asosiy qobiliyatlarini shakllantirsin. Tabiiyki, bunday muhitni yaratish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv va ta'lim jarayoniga interfaol xarakterga ega bo'lgan, bolaning mustaqil faoliyatini ta'minlaydigan o'ynili texnologiyalarini joriy etish zarur.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisining kasbiy mahorati uning bolalar bilan ishslashda interfaol texnologiyalar va o'qitish usullaridan foydalananida psixologik bilimdonligida namoyon bo'ladi. Bunda har bir tarbiyanuvchining individual-psixologik xususiyatlari inobatga olinichi muhim.


Interfaol ta'limning eng qiyin shakli bolalar bilan kichik guruhlarda ishslash shaklidir. Kichik guruhlarda ishslash shaklida ishtirokchilar guruhni umumiyoq vazifani oladilar, masalan, qandaydir muammoni birgalikda hal etish. Bu vazifalar asosan oy mavzusini qamrab olinishi kerak. Bahor mavzusida plakatga birgalikda rasm chizish, lego va kubiklardan uycha, avtoturargoh, kema porti, qurilish maydoni, bog'cha hovlisi, ertakdagи qasr loyixalarini birgalikda tayyorlash, turli konstruksiyalarni birgalikda bajarishlari mumkin. Faoliyat qiziqarli bo'lishi bilan birga har bir guruh a'zosini bu jarayonda o'z fikrini bayon etadi, uning fikri esa boshqa a'zolar fikriga mos kelmasligi mumkin. Bunday hollar ko'pincha turli ziddiyatlarga sabab bo'lishi ham mumkin va bu juda tez-tez takrorlanib turadi. Mohir tarbiyachi jarayonni kuzatib, uni tizimga solib,



bolalar uchun xavfsiz rivojlanish muhitini yaratish muhim hisoblanadi. Guruh bo'lib ishslash tajribasi tez-tez qo'llanilsa, bu muhitiga moslashgan har bir bola bir-birining fikriga qo'shilishi, ba'zida yon berishi, muloqot jarayonida jamoaviy tartib intizomga riosa qilishi, yangi tajribalarni o'rtoqlaridan o'zlashtirib olishi mumkindir.

Zamonaviy muassasada o'ynili ta'lim juda jonli, hissiy jihatdan qulay psixologik muhitda, xayrixohlik, erkinlik, tenglik muhitida, o'tkazilishi zarur. O'yn texnologiyalarini bolalarning erkin bo'lishiga yordam beradi, bolada o'ziga ishonch paydo bo'ladi. Tajribalar shuni ko'ssatadiki, maktabgacha yoshdagи bolalar haqiqiy hayotga yaqin o'yn sharoiti harakat qilib, har qanday murakkab materialni osonroq o'rganadilar. Bolalar o'zlarini yangi vaziyatda sinab ko'rish orqali o'yindan zavq olishlari muhimdir.

**G.YADGAROVA,  
BuxDPI "Psixologiya"  
kafedrasи dosenti, ps.f.n**



Negaki, muallif o'z asarlari orqali nafaqat jamiyatdagi kamchiliklar, huquqiy muammojaralar va eng muhimi asar qahramonlari obrazlari orqali o'zbegona insonparvarlik hamda olijanoblik xislatlarini mohirona tasvirlay olgan. O'zida mana shunday jihatlarni jamlay olgan asarlaridan biri bu "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidir.

Akademik yozuvchi tomonidan 1965-yilda yaratilgan ushbu hikoya urush davrida ro'y bergan hayotiy voqealar tasvirlangan. Hikoya muallifning Yetti qarochi yulduzi tik kelganda g'o'ng'ir- g'o'ng'ir ovozdan uyg'onib ketishi bilan boshlanadi. Uyg'onganida shuni sezadiki, Qora buvi (Roqiya bibi) kim bilandir gaplashayotgan edi. Buni qarangki, ularning uyiga o'g'ri tushgan va Qora buvi hikoya shaxsi sir saqlangan o'sha

o'g'ri bilan suhbatlashayotgan edi. O'g'ri Qora buvi bilan subatlashar ekan: "Ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham suv kerak, ham don kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak. Urush hali beri to'xtaydiganga o'xshamaydi. Hamma kasbning uyi vayron", degan gaplarni aytadi. Qora buvi mahalladagi boylarning uyiga o'g'rlikka tushishini maslahat berganda, esa " Jonimdan kechibmanmi, o'ldirmaganda ham, ular Sibir qilib yuboradi", deydi. Qora buvi el-yurt olidda tag'in badnom bo'lib qolmasligini nasihat qilar ekan, o'g'ri: " Orif sassiqning otxonasidan to'rtta tovuq, bitta xo'roz o'magan edim. Buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo'q, ellikkoshimiz Rahmonxo'jaga xo'rozni olib borib bergen edim, ishni bosdi-bosdi qilib yubordi. Bultur uni-buni totib, sakson uch so'm pul jamg'arib, pora bergen edim, "rabochiy" ga ketishdan olib qoldi", deydi. Hikoya

so'ngida Qora buvi oshxonda yarim pudlik qozon borligini, o'g'riga uni olib ketishini aytganda, o'g'ri buvining taklifini rad etadi.

Ushbu hikoyani huquqiy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, o'g'rlik O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 169-moddasiga ko'ra, o'g'rlik, ya'ni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmisht soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Lekin, biz tahlil qilayotgan hikoya jinoyat oxirga yetmaganligi sababli, jinoyat kodeksining 25-moddasiga ko'ra, qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi. Ya'ni, ushbu vaziyatda o'g'rining harakatlari o'g'rlikka suyiqasd deb baholadi. Qolaversa, ushbu hikoya yana bir jinoyat mavjud.

Jinoyat kodeksining 211-moddasiga ko'ra, pora berish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xi洛f ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish – bazavii hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi va shoir G'afur G'afur o'z asarlari orqali nafaqat ijtimoiy muammolarni balki, huquqiy muammolarni ham olib bergan.

**Xurshidabonu HAYDAROVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy huquq fakulteti talabasi**

# HISOBOT-SAYLOV KONFERENSIYASI

*"Buxoro suv ta'minoti" aktsiyadorlik jamiyatida boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotining hisobot-saylov konferentsiyasi hamda jamoa shartnomasi muhokamasi o'tkazildi.*



Konferentsiyada dastlab jamoa shartnomasining 2024-yildagi ijrosi bo'yicha korxona rahbarining hisoboti tinglandi. Ish beruvchi yil davomida xodimlarga mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlardan amalga oshirilganligi, barcha xodimlar bepul tibbiy ko'rnikdan o'tkazilganligi, xodimlarni ish stajiga qarab rag'batlantirilishi, bosqichma-bosqich o'qitilishi, korxonada bepul ovqatlanish tashkil etilganligi, maxsus kiyim-boshlar bilan ta'minlanganligini aytib o'tdi. O'z navbatida kasaba uyushmasining jamoa shartnomasi bandlarining bajarilishida olib borgan ishlari, ekspertiza komissiyasining jamoa shartnomasi ijrosi bo'yicha hisobotlari tinglandi.

Konferentsiya delegatlari tomonidan jamoa shartnomasiga kiritiladigan qo'shimcha va o'zgartirishlar yuzasidan takliflarini bildirdilar.

Konferentsyaning ikkinchi yarmida kasaba uyushma qo'mitasining o'tgan besh yil davomidagi faoliyati yuzasidan hisoboti tinglandi. Ayniqsa, xodimlarni sayohatlarga olib borilishi, xodimlarning ma'naviy ongini o'stirish, huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan "Ma'rifat soatlari"ning muntazam o'tkazilishi, xodimlarning muammolari bilan kasaba uyushma faollarining muntazam qiziqib borishlari kasaba uyushma a'zolariga ma'qul bo'lganligi ta'kidlandi.

Konferentsiyada kasaba uyushma qo'mitasiga raisligiga nomzodlar muqobililik asosida va ochiq ovoz berish yo'li bilan o'tkazilib, qo'mita raisligiga B.Jo'raev aylandi. Shuningdek, kasaba uyushma tashkiloti taftish komissiyasi va uning raisi ham saylandi. Tadborda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashi raisi o'rinnbosari Hamid Beshimov ishtirok etdi.

Abera IMOMOVA

## ПОНИМАНИЕ МОНИПУЛЯЦИИ СТУДЕНТАМИ РАЗНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ



**Саломатбону НАРЗУЛЛОЕВА,**  
Бухарский государственный педагогический институт  
Преподаватель кафедры психологии, доктор философских наук, (PhD)

**Врачам важно уметь отличать манипулятивное поведение пациентов (например, преувеличение симптомов ради больничного) от реальной клинической картины. Они также учатся, как избегать манипуляций со стороны фармацевтических компаний, продвигающих ненужные препараты. Однако в медицинском образовании этому вопросу уделяется меньше внимания, чем следовало бы.**

**Журналисты: манипуляция в СМИ**

Будущие журналисты учатся анализировать информацию, распознавать пропаганду и фейки. Их готовят к работе с фактчекингом и критическим мышлением. Однако манипуляция в медиапространстве становится всё изощрённее, и даже профессионалам бывает сложно отделить объективную информацию от агажированной.

**Психологи и маркетологи: тонкая грань между влиянием и манипуляцией.**

Будущие психологи изучают механизмы влияния на людей, что помогает им выявлять манипуляции. Однако это же знание используется в маркетинге и рекламе для управления потребительским поведением. Вопрос этичности здесь особенно важен.

**Почему манипуляции трудно распознать?**

Люди часто недооценивают, насколько на них

влияют внешние факторы. Когнитивные искажения, социальные нормы, доверие к авторитетам – всё это делает нас уязвимыми для манипуляции. Современное образование даёт базовые инструменты, но не всегда учит применять их в жизни.

**Вывод: нужно ли менять подход?**

Чтобы студенты лучше распознавали манипуляции, образовательные программы должны включать больше практических занятий, примеров из реальной жизни и междисциплинарных исследований. Только так можно подготовить специалистов, способных противостоять скрытым воздействиям и принимать осознанные решения.

**Манипуляция студентами: как и почему это происходит**

Манипуляция студентами – это использование скрытых методов воздействия на их поведение, мышление или решения. Это может происходить в образовательных учреждениях, со стороны преподавателей, однокурсников, администрации, рекламодателей и даже государства.

**Формы манипуляции в студенческой среде**  
**Манипуляция через страх и давление**

Преподаватели могут запугивать студентов возможностью отчисления или низкими оценками, чтобы заставить их выполнять дополнительные задачи.

Администрация может использовать угрозу потери стипендии или общежития для контроля поведения студентов.

**Манипуляция через чувство вины**

Некоторые преподаватели используют риторику типа «Вы меня подводите» или «Вы же будущие специалисты, неужели не хотите учиться?», чтобы добиться выполнения работы без дополнительных поощрений.

Студенты могут манипулировать друг другом, заставляя выполнять свою часть работы под предлогом «ты же умный, помоги».

**Mahalla atamasi arabcha bo`lib, "o`rin-joy" degan ma`noni anglatadi. Mahalla turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamaoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan. Mahalla – O'zbekistonda va boshqa ko`plab mamlakatlarda ma`muriy-hududiy birlik. Hozirgi kunda turli ma`muriy birliklar, jumladan, okrug, shahar tumani ma`nolarida ishlataladi.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.06.2024-yildagi 334-sون "Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" qarorida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'iga qo'yish va mahallalarda boshqaruva tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 21-dekabrdagi 402-sон qaroriga muvofiq, shuningdek, mahalla institutining jamiyatdagi rolini oshirish, "mahalla yetilligi" a'zolari tomonidan amalga oshirilgan ishlardan bo'yicha mahalla fuqarolar yig'ini oldida hisobot berish tizimini samarali yo'iga qo'yish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori tasdiqlangan.

Mahalla tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, jez davrining yodgorligi bo'lgan Sopollitepada 8 ta oila yashagan. Ularni faqat urug` jamoasingina emas, balki ishlab chiqarish manfaatlari ham birlashtirib turgan. Keyinchalik ularning safiga patriarchal tizim asosida 100 dan ortiq oilalar kelib qo'shilgan. Katta oilalar jamoasingular orasidan saylangan oqsoqol boshqargan. Oqsoqollar o'z navbatida olyi



## MAHALLA – DEMOKRATIK DAVLATNING ENG MUHIM BO'G'INI

oqsoqollar kengashiga birlashgan. Oqsoqollar, odatda, jamoa-qishloq hayoti bilan bog'liq barcha masalalarini oliy kengash orgali hal qilishgan. Miloddan avvalgi 3-asrdan milodiy 5-asrning boshlarigacha Farg`ona (Parvana) davlatida ham oqsoqollar kengashi muhim vazifalarni hal etgan. Kengash, asosan, sulh tuzish, vazirlar tarkibi va soliqlarni tayinlash, urush e'lon qilish, jamoa ishlariaga safarbar etish kabi masalalar bilan shug'ulangan.

Adabiyotlarda Mahallalarning ko'ping yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Narsaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Buxoroda bundan 1100-yilgari bir qancha mahallalar bo'lganini qayd etib o'tgan. Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" asarida mahallani "mahalla shahar ichidagi shaharcha"dir deb ta'riflaydi, Hirot shahri yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo'lgan mahallalardan tashkil topganini aytib o'tadi. Mahallalar, ayniqsa, Amir Temur davrida ravnaq topgan. Bu davrda mahallalar fuqarolarning kasb-kori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko`nchilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi va hokazo. Mahalla qadimda mahalliy hokimiyatning o'ziga xos bir shakli, ko`rinishi tarzida faoliyat ko'rsatgan. Uni boshqarish jamoatchilik asosida olib borilib, o'zing yozilmagan ichki tartib-qoidalariiga ega bo'lib, u hamma uchun birdekk qonuniy hisoblangan.

Bugungi kunda mahallalarning bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida, o'z faoliyatlarini tashkil etishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Ular, to'y-ma'raka marosimlarini o'tkazish, hasharlar uyshtirish, oilaviy nizolarni bartaraf etish, bemorlar holidan xabar olish ishlari bilan shug'ullanadi. Ko'pchilik mahallalarning o'z masidi bor, turli ma'rakalar uchun kerakli ashyolar (doshqozon, idishtovoq, choynak-piyola, tobut va boshqalar) mavjud. 90-yillarda mahalla hokimiyatning rasman quyi yuridik organiga aylandi. Mahalla vazifalari ancha kengaydi, u demokratik davlatning eng muhim bo'g'inalardan biriga aylantirildi.

**D.MIRZAYEVA,**  
**Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti**

## YAGONA YETKAZIB BERUVCHILAR REESTRIGA KIRITISH BO'YICHA DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH TARTIBI BELGILANDI

**Hukumat qarori bilan yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibi belgiland. 1 apreldan yuridik va jismoniy shaxslarni reestriga kiritish uchun arizalar Davlat xizmatlari markazi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinadi.**

Vazirlar Mahkamasining 18 fevral' kungi qarori bilan «Davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti» tasdiqlandi.

Ma'muriy reglament davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibini belgilaydi.

2025 yil 1 apreldan yuridik va jismoniy shaxslarni Yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritish uchun arizalar Davlat xizmatlari markazi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali qabul qilinadi.

Arizalar YAIDXP orqali dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, har kuni 24 saat davomida yuborilishi mumkin. Davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun to'lov undirilmaydi.

Vakolatlari organ ariza tushgan kundan boshlab 15 ish kunida Reestriga yagona yetkazib beruvchi sifatida kiritish haqidagi arizani ko'rib chiqadi.

Talabgorning reestriga kiritish haqidagi arizasi va unga ilova qilingan ma'lumotlar vakolatlari organ tomonidan ariza kelib tushgan kundan boshlab 2 ish kuni ichida Portalga majburiy jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtiriladi.

Talabgor arizasi ushbu Ma'muriy reglament talabalarida nazarda tutilgan ma'lumotlar bilan to'liq taqdim etilganda, vakolatlari organ, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda «Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi» DUK tomonidan YAIDXP orqali ko'rib chiqiladi.

Davlat xizmatlari markazi yoki YAIDXP orqali kelib tushgan ariza bo'yicha yuqorida nomlari qayd etilgan tashkilotlar besh ish kuni davomida o'zlarining axborot bazalaridagi va (yoki) ochiq manbalardagi ma'lumotlardan foydalangan holda, talabgorni yagona yetkazib beruvchi sifatida reestriga kiritish yoki kiritmaslik yuzasidan xulosha taqdim etadi.

Agar arizada ko'rsatilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risida ochiq manbalardan ma'lumotlar olish imkoniyati bo'lmaganda yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) xususiyatlarini ta'riflashning boshqa yetarlicha aniq usuli mavjud bo'lmagan hollarda, vakolatlari organ bozorda ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) muqobili mavjudligini aniqlash uchun ariza kelib tushgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalariga YAIDXP orqali arizani yuboradi.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalar vakolatlari organ tomonidan yuborilgan ariza kelib tushgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida o'zlarining axborot bazalaridagi va (yoki) ochiq manbalardagi ma'lumotlardan foydalangan holda, arizada ko'rsatilgan tovarning (ishning, xizmatning) bozorda muqobili mavjud yoki Mavjud emasligi haqidagi xulosasini taqdim etadi.

Arizani ko'rib chiqish uchun respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalarining xulosalari talab etilgan hollarda, arizani ko'rib chiqish muddati ariza tushgan kundan boshlab bir oy muddatdan oshmasligi zarur.

Vakolatlari organ ariza beruvchi tomonidan takdim etilgan ma'lumotlar, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalar tomonidan taqdim etilgan xulosalar hamda arizani ko'rib chikish davomida to'plangan boshqa ma'lumotlar asosida arizani qanoatlantiradi yoki qanoatlantirishni rad etadi.

Talabgor davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin. Ushbu reglament talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

**Haydar ODILOV,  
Shofirkon tuman Adliya bo'limi  
Davlat xizmatlari markazi direktori**

## MILLIY HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASINI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI SODDALASHTIRILDI

**Mamlakatimizda aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash, davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratik, eskirgan va zamon talablariga mos kelmaydigan talablarni tubdan qisqartirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.**

Shu bilan birga, olib borilgan tahilliar haydovchilik guvochnomasini rasmiylashtirish bo'yicha davlat xizmatlarida inson omilini qisqartirish, fuqarolarga masofadan xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish orqali ortiqcha ovoragarchilik, navbatlarni qisqartirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Milliy haydovchilik guvochnomasini berish tartibotlarini qisqartirish, ushbu jarayonlarni raqamlashtirish orqali fuqarolarga soddalashtirilgan davlat xizmatlarini ko'rsatishni joriy etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 22-avgustdagagi PQ-357-sون qarori ijrosini ta'minlash hamda haydovchilik guvochnomasini berish va ularni yangisiga almashtirish sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Milliy haydovchilik guvochnomasini shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali ham ariza beruvchilarning bevosita ishtirokisiz rasmiylashtirish tartibi joriy etilgan:

- milliy haydovchilik guvochnomasiga ariza beruvchilarning bosh barmoq izi ma'lumotlari joylashtiriladi, agar axborot tizimlarida ariza beruvchilarning bosh barmoq izi ma'lumotlari mavjud bo'lmagan taqdirda ariza beruvchilar o'zlarining imzo namunasini elektron shaklda taqdim etadi;

- Milliy haydovchilik guvochnomalarini olish hamda eski namunadagi haydovchilik guvochnomalarini yangisiga almashtirish bo'yicha arizalar ariza beruvchilarning YIDXPdagi shaxsiy kabineti orqali onlayn tarzda har kuni, dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, 24 saat davomida yuborilishi mumkin;

- Davlat xizmatlari markazidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida o'zi olib ketadi yoxud xohishiga ko'ra yangi rasmiylashtirilgan milliy haydovchilik guvochnomalarini pochta orqali olish imkoniyati yaratiladi;

- nazariy va amaliy imtihonlarni muvaffaqiyatlari topshirgan talabgorlarga Davlat xizmatlari markazi tomonidan milliy haydovchilik guvochnomasi (birinchi marta va almashtirish) rasmiylashtirilishi;

- milliy haydovchilik guvochnomasini olish bo'yicha murojaatlarni YIDXP orqali qabul qilinishi va fuqarolarning ixtiyoriga ko'ra milliy haydovchilik guvochnomasi pochta orqali yetkazib beriladi.

Manba. V.M. 2023-yil 12-aprel, 152-sон qarori.

**Rustam TOSHOV,  
Buxoro shaxar DXM katta mutaxassis**



## “UMRA” TADBIRLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH FAOLIYATI UCHUN LITSENIYA OLİSH TARTİBINI BİLASIZMI?

**Ariza beruvchilar toifasi:** yuridik shaxslar.

**Litsenziyalovchi organ:** O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi

**Arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:** bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari.

**Litsenziya berilganligi uchun davlat boji miqdori:** bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari.

**Arizani ko'rib chiqish muddati:** hujjatlar qabul qilish yakunlangan kundan boshlab 30 kun davomida.

**Litsenziyaning amal qilish muddati:** cheklanmagan.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-oktabrdagi 668-sон qarori. (<https://lex.uz/docs/-7151536#-7152857>)

**S. KARIMOV,  
Shofirkon tuman Davlat xizmatlari markazi  
bo'lim boshlig'i**

# O'LKAMGA BAHOR KELDI

*Qishning uzun va sovuq kunlari ortda qolgach, tabiat uyg'onadi. Bahorning ilk nurlari yerni iliqlik bilan siypalaydi, kurtaklar sekinsta ochila boshlaydi, qushlarning sho'x sayrashi esa yuraklarga umid baxsh etadi. Go'yo tabiat ham uzoq uyqudan uyg'onib, yangi hayotga qadam go'yayotgandek.*



Bahor – yangilanish fasli. U nafaqat daraxtlarning yashnab, gullarning ochilishida, balki inson ruhiyatida ham aks etadi. Yangi maqsadlar, yangi rejalar va yangi orzular paydo bo'ladi. Bahorning yoqimli epkini yuzni silaganida, qalb ham poklanib, yangicha hayot kechirish istagi tug'iladi.

Bu faslda hamma narsa yangilanadi: tabiat yashil libos kiyadi, daryolar jo'shqin oqib, gullar yer yuzini bezaydi. Xuddi shunday, inson ham bahordan ilhom olib, o'zini yangilaydi – eski g'am-anduhlarni unutib, yangi umidlar bilan yashay boshlaydi. Go'yo bahor hayotning yana bir bor taqdim etilgan imkoniyatidek.

Bahor – yosharish fasli. U tabiatni, qalblarni, orzularni yashartiradi. Insonning yuragi quvonchga to'lib, hayotga muhabbat bilan boqadi. Bahor bizga shuni eslatadiki, har bir qiyinchilik ortidan yangi tong, yangi hayot va yangi imkoniyatlar keladi.

Shunday ekan, bahorni sevaylik, undan ilhom olib, qalbimizni yangilaylik. Chunki bahor – bu faqat bir fasl emas, balki yangi hayot, yangi imkoniyat va umid ramzidir!

Bahor – she'riy ilhom manbai. Shoirlar bahorni kuylaydi, rassomlar esa uni mo'yalqalam yordamida aks ettiradi. Odamlar bahor bayramlarini nishonlab, tabiat qo'yinda dam olishadi, o'zaro do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashadi. Ayniqsa, Navro'z bayrami bahor bilan birga kelib, xalqimizni yanada quvontiradi.

Bahordagi turli xil bayramlar

## 1. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni

- Bu bayram ayollarni hurmat qilish va ularga ehtirom ko'rsatish kuni sifatida nishonlanadi. Oilalarda, ish joylarida ayollarga gullar, sovg'alar beriladi.

## 2. 21-mart – Navro'z bayrami

- Eng ulug' va qadimiy bayramlardan biri. Bahorning kelishini, tabiatning uyg'onishini nishonlash uchun o'tkaziladi.

- Odamlar somsa, halim, sumalak, osh kabi taomlar tayyorlaydi.

- Folklor chiqishlari, dorbozlar va ko'pkari musobaqalari uyuşhtiriladi.

- Mehmonorchilik, milliy urf-odatlardan urf-odatlarga mos tadbirlar o'tkaziladi.

Aprel oyidagi bayramlar

## 3. 1-aprel – Kulgi kuni

- Rasman bayram bo'lmasa ham, ko'pchilik hazil qilish, birlarini aldash orqali kayfiyatni ko'tarishadi.

## 4. Ramazon hayiti (har yili sanasi hijriy taqvimga qarab o'zgaradi)

- Musulmonlarning muqaddas bayrami bo'lib, Ramazon oyi

Yer yuzida bahor faslining ahamiyati

Bahor fasli tabiatning uyg'onish davri bo'lib, u butun yer yuziga hayot baxsh etadi. Bu fasl nafaqat go'zalligi, balki insonlar va tabiat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar bilan ham ajralib turadi. Quyida bahorning ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beramiz.

- Bahor – yangi hayotning boshlanishi. Bahor kelishi bilan tabiat uyg'onadi. Daraxtlar kurtak ochadi, gul va o'tlar yashnaydi, hayvonlar qish uyqusidan chiqadi. Ko'klam bilan birga insonlarda ham yangi rejalar, umidlar paydo bo'ladi. Bahor tabiiy ravishda yangilanish va o'zgarish ramzi hisoblanadi.

- Iqlim va tabiat o'zgarishlari. Bahor faslida ob-havo iliqlasha boshlaydi. Qorlar eriydi, daryolar to'lib jo'shadi va yer o'z unumdarligini oshiradi. Bu fasl yomg'irlar va quyoshli kunlarning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Yomg'irlar tuproqni namlantridi, bu esa ekinlarning yaxshi o'sishiga imkon yaratadi.

- Qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Bahor qishloq xo'jaligi uchun eng muhim fasllardan biridir. Dehqonlar ekin ekish ishlarini boshlab, yangi hosil uchun tayyorgarlik ko'radilar. Bahorgi yomg'ir va iliq havo ekinlar o'sishi uchun zarur sharoit yaratadi. Shuning uchun bahor dehqonlar va bog'bonlar uchun eng sermahsul fasl hisoblanadi.

- Inson salomatligiga ta'siri. Bahor inson organizmi uchun juda foydali fasl hisoblanadi. Quyosh nuri ko'payishi bilan D vitamini ishlab chiqariladi, bu esa suyaklar mustahkamligi va immunitet uchun muhimdir. Bahorda inson organizmi qish davomida



to'plangan toksinlardan xalos bo'lib, yangi energiya oladi.

Bundan tashqari, bahorning tiniq havosi inson kayfiyatini ko'taradi va depressiyaga qarshi tabiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Erta tongda sayr qilish yoki bog'da mehnat qilish salomatlik uchun katta foyda beradi.

- Madaniyat va san'atda bahorning o'rni. Bahor nafaqat tabiat va inson hayotiga, balki madaniyatga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Adabiyotda, san'atda va xalq og'zaki ijodida bahor mavzusi keng yoritilgan. Ko'plab she'rlar, qo'shiqlar va rasmlar bahorning go'zalligini tarannum etadi. Xususan, o'zbek xalqida "Navro'z" bayrami aynan bahorda nishonlanadi va yangi yilning boshlanishi sifatida katta ahamiyatga ega.

- Hayvonot va o'simlik dunyosidagi o'zgarishlar. Bahor kelishi bilan hayvonlar juftlashish va ko'payish mavsumiga kirishadi. Bu faslda qushlar uzoq masofalardan qaytib keladi, yovvoyi hayvonlar bolalaydi va tabiat yanada jonlanadi. O'simliklar gullab-yashnaydi, bu esa atrof-muhitga go'zallik va yashillik baxsh etadi.

- Bahorning inson ruhiyatiga ijobiyligi ta'siri. Bahor inson kayfiyatini ko'tarib, faoliyatini oshiradi. Qishning sovuq va og'ir kunlaridan keyin, bahorning iliq va yorug' kunlari odamlarning quvonchini oshiradi. Bahor odamlarga yangi maqsadlar qo'yish va ularni amalga oshirish uchun kuch beradi.

**Oybek ILYOSOV,  
Oqqo'rg'on tuman 1-son politexnikumi  
o'quvchisi,  
Oqqa ko'chiruvchi: Oqqo'rg'on tuman  
1-son politexnikumi maxsus fan o'qituvchisi  
I. YUSUPOV**

# MAS'ULIYATNI UNUTMANG

**Har bir qabul qilinayotgan Qonun va qonunosti hujjatlar avvalo, xalq manfaatini, uning turmush faravonligini oshirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.09.2024 yil 23 sentyabrdagi PQ-330-soni Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda oid boshqa qonunchilik ijrosi Kogon tuman hududida o'rganildi.**

O'rganishda tuman hududida PQ-330-soni farmon ijrosi nomigagina qog'ozda qolib ketayotganligi ma'lum bo'ldi.

Mazkur dasturning 12-bandida viloyat, tuman (shahar) tashkilotlarining rahbarlari va ularning o'rinosarlarining har biriga har 6 oyda 5 tadan eng og'ir ahvoldagi kambag'al oilalar biriktirilishi, mas'ullar har oyda ikki marta o'ziga biriktirilgan oilalar bilan uchrashib, kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual rejada belgilangan choralar amalga oshirilishini tahlil qilishi, yuzaga kelgan muammolarni aniqlanishi va ularni joyida bartaraft etish choralarini ko'rib borishi belgilab qo'yilgan.

Buxoro viloyat hokimining qarori bilan "Amu-Buxoro" ITBH huzuridagi Meliorativ ekspeditsiyasi Kogon tuman bo'limi uchastka boshlig'i SH.Bo'ronovga tuman "Sarayon" MFY hududidan 5 nafar kambag'al oilalar biriktirilgan.

**Ayollarning huquqlari ayollarning insoni qadr-qimmatini ta'minlash, ularning erkinligi va tenglik huquqlarini himoya qilish, shuningdek, ularga umumi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda teng imkoniyatlardan yaratishga qaratilgan xalqaro va milliy huquqiy normalar yig'indisidir.**

## AYOLLARNING HUQUQLARI

Ayollar jamiyatning muhim va faol a'zolaridir. Ular hayotning turli sohalarida muhim rol o'yaydilar, lekin ko'pincha jamiyatdagi imkoniyatlardan, ijtimoiy va iqtisodiy resurslardan teng ravishda foydalanishda cheklolrlarga duch kelishadi. Shunday qilib, ayollarning huquqlarini himoya qilish va ularga tenglikni ta'minlash nafaqat jamiyatning axloqiy majburiyati, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun ham muhimdir.

Bugungi kunda ayollarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha bir qator xalqaro konvensiyalar mavjud. Ularning eng muhammi - BMTning ayollarning barcha shakldagi diskriminatsiyadan himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi (CEDAW). Bu konvensiya ayollarga nisbatan har qanday diskriminatsiyani qisqartirish va ularga tenglikni ta'minlash maqsadida bir qator standartlarni belgilaydi.

Ayollarning huquqlarini himoya qilish - bu nafaqat ayollarning, balki butun jamiyatning taraqqiyoti uchun muhimdir. Xalqaro va milliy darajada ayollarning huquqlari himoyalanishi kerak, chunki bu jamiyatda tenglik vaadolatni ta'minlashning asosiy yo'lidir. Jamiyatdagi barcha a'zolarning huquqlari bir xil darajada himoyalanishi, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga olib keladi.

**Munira JUMAEVA,  
Qorako'l tuman FHDY bo'limi 2-toifali inspektorি**

## APOSTIL NIMA?

**Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 17-noyabrdagi qarori  
1-ilovasiga asosan «Apostil qo'yish tartibi to'g'risida»gi nizom  
tasdiqlangan va amaliyatga joriy qilingan.**

Xo'sh, apostil va apostil qo'yish deganda nimalar tushuniladi?

Apostil - maxsus shtamp. U hujjatni imzolagan shaxsning imzosi, shu hujjatni tasdiqlagan muhr yoki shtamp bosma izi haqiqiyligini tasdiqlaydigan, xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi konvensiyaga muvofiq berilayotgan rasmiy hujjatga qo'yiladi va undan chet elda foydalanish imkonini beradi. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, apostil qo'yish ushbu hujjatni imzolagan shaxsning imzosi, muhr yoki shtamp izi haqiqiyligini tasdiqlashning rasmiy tartib-qoidasidir.

Shuningdek, apostil qo'yish tartibida «yulduzcha» ham mavjud. Yulduzcha - hujjat varaqlari mahkamlanadigan joyga yopishtiriladigan hamda apostil qo'yigan vakolatli davlat idorasining gerbli muhri bosiladigan qalin qog'oz. Apostil shakli o'zbek yoki ingliz tilida to'ldiriladi. U qo'yilganidan so'ng qo'shimcha ravishda tasdiqlashni talab etmaydi.

Masalan, xorijiy davlatlarda o'qiyotgan, vaqtincha ishlayotgan yoki xizmat safarida bo'lgan chog'da tug'ilgan farzandlari uchun o'zi doimiy ro'yxatda turgan davlatdan tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani oladigan fuqarolarga apostil shtampisiz guvohnoma berilmaydi. Bizning davlat tashkilotlarimiz bergen rasmiy hujjatlarni xorijdagi rasmiy idoralarga topshirish va ular xorijda tan olinishi uchun ularga maxsus shtamp - «Apostil» qo'yilgan bo'lishi shart.

Quyidagi to'rtta tashkilot rasmiy hujjatlarga maxsus shtamp qo'yish vakolatiga ega, jumladan:

- sudlar, adliya organlari va muassasalaridan chiqadigan rasmiy hujjatlarga
- Adliya vazirligi;
- prokuratura, tergov, surishtiruv va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlardan chiqadigan rasmiy hujjatlarga - Bosh prokuratura;
- ta'lim va fan sohasi tashkilotlaridan chiqadigan rasmiy hujjatlarga - Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;
- boshqa har qanday rasmiy hujjatlarga - Tashqi ishlardan vazirligi.

## PAXTA XOMASHYOSINI O'Z MABLAG'LARI HISOBIDAN YETISHTIRGANLARGA BELGILANGAN MIQDORDA SUBSIDIYA AJRATILADI

**Farmonga muvofiq, 2025 yil paxta hosilidan:**

F'yuchers shartnomalari kalendar` yilning 1 noyabridan keyingi yilning 1 iyunigacha xo'jaliklar va qayta ishlovchilar o'rtasida birjada erkin shakllanadigan, biroq e'lon qilingan boshlang'ich narxdan past bo'Imagan narxda tuziladi;

Forvard shartnomalari kalendar` yilning 1 noyabridan keyingi yilning 1 martigacha xo'jaliklar va qayta ishlovchilar o'rtasida o'zaro kelishilgan narxlarda tuziladi;

Spot shartnomalari real vaqt rejimida omborda saqlanayotgan paxta xomashyosi hajmiga xo'jaliklar va qayta ishlovchilar o'rtasida o'zaro kelishilgan narxda tuziladi;

Saqlash omborlari yoki ijara shartnomalari mavjud bo'Imagan xo'jaliklar o'zi yetishtiradigan paxta xomashyosi bo'yicha har hosil yilning 1 martigacha forward yoki 1 iyunigacha f'yuchers shartnomalari rasmiylashtiradi;

Shuningdek, 2025 yil hosilidan paxta xomashyosini o'z mablag'lari va tijorat kreditlari hisobidan yetishtirib, Birjada sotgan xo'jaliklarga shakllangan hisobvaraq-faktura qiymatining 10 foizi miqdorida subsidiya ajratiladi.

Bundan tashqari, paxta xomashyosini yetishtirish uchun olingan imtiyozli kreditlarni hosil yilning yakuniga (tegishli yilning 31 dekabriga) qadar qaytargan xo'jaliklarga ushbu kreditlar bo'yicha to'langan foiz to'lovlaring 4 foizlik punktini subsidiya sifatida qaytarib berish tartibi joriy etiladi.

**Farmonga ko'ra, 2025 yil paxta hosilidan:**

O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi kalendar` yilning 1 noyabr` kunida (2025 yil hosili uchun 1 fevralda) paxta tolasining N'yu-York birjasidagi f'yuchers kotirovkalarining oxirgi 6 oydag'i o'rtacha kotirovkasidan kelib chiqqan holda kelgusidagi yil hosil uchun paxta xomashyosining boshlang'ich narxini (birinchi nav, ikkinchi sinf) aniqlab, Birjaning rasmiy veb-saytida e'lon qiladi;

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha paxta xomashyosi yetishtiruvchi xo'jaliklar va klasterlar hamda paxta xomashyosini qayta ishslash va ip-kalava ishlab chiqarish zanjiriga ega to'qimachilik korxonalari o'rtasida paxta xomashyosi yetkazib berish bo'yicha oldi-sotdi (f'yuchers, forward va spot) shartnomalari Birjaning paxta xomashyosi sektsiyasida har bir hudud bo'yicha alohida o'tkaziladigan savdolarda tuziladi;

Xo'jaliklar hamda qayta ishlovchilar o'rtasida tuziladigan shartnomalar tomonlarning erkin tanlovi asosida o'tkaziladigan birja savdolari orqali xo'jaliklar tomonidan yetkazib berish muddatlarini hamda bir yoki bir nechta xaridorni mustaqil ravishda tanlash orqali rasmiylashtiriladi;

\* Birjada barcha shartnomalar "Agroplatforma" axborot tizimi bilan integratsiya qilingan ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan xo'jaliklar va qayta ishlovchilar o'rtasida tuziladi.

Manbaa "Paxta xomashyosini yetishtirish va so'tishda bozor mexanizmlarini qo'llashni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-7-son, 17.01.2025 y.).

**Dadaxon YOQUBOV,  
Buxoro shahar DXM Katta mutaxassis**

**F. UMUROVA,  
Buxoro viloyat FXDY arxivi mudirasi**



## BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIDA BOSHQARUV MULOQOTINING O'RNI

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan dars jarayonida o'qituvchi hamda ta'lum oluvchilarning o'zaro ijodiy faoliyatida bilim olishga qaratilgan izlanishni boshqarish faqat pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan muloqot natijasida amalga oshiriladi. Masalan, darsda yangi mavzuni o'quvchilar ongiga singdirish, yangi materialni tushuntirish yoki muammoli vaziyat hosil qilishda sifn jamoasi bilan muloqotni to'g'ri tashkillashtirish, o'qituvchi uchun zarurdir, buning natijasida o'quvchilar birgalikda ahil jamoa bo'lib, darsda, bilimlarni o'rganishda o'zaro erkin fikr yuritadilar va izlanadilar.

Muloqotda o'qituvchining tashabbuskorligi, ta'lum-tarbiyaviy hamda ijtimoiy psixologik jihatdan qator strategik va taktik muammolar yechimini topish imkoniyatini beradi o'qituvchining o'quv-tarbiyaviy jarayondagi yo'naltiruvchanlik roli, o'quvchilarning yaxshi kayfiyati, his-tuyg'ularini shakllantiradigan, o'quv-tarbiyaviy faoliyat samaradorligini ta'minlaydigan, zarur ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish imkoniyatini beradigan qizg'in kommunikativ muloqotni pedagogik maqsadga muvofiq ta'minlaydi. Boshqaruv muloqotiga to'xtaladigan bo'lsak. Xodimlarni ma'lum tomonga yo'naltirish maqsadidagi o'zaro ma'lumot almashinuvi jarayonidir. Boshqaruv muloqoti quyidagilarda namoyon bo'ladi: buyruq va topshiriq uzatish, xodimga u yoki bu maslahatni berish; - vazifa, topshiriq qanday ado e tilganligi haqida «qayta aloqa», ya'ni hisobotni qabul qilish; - itoatdag'i xodimlarga vazifa qanday bajarilganligi haqida baho berish. Muloqotni mohirona olib boruvchi rahbarda o'z vazifalarini samarali tarzda tashkil etish imkoniyati oshadi. Xodimlarga ta'sir etish, ularga g'ayrat bag'ishlash, tashkilot maqsadi sari yetaklash kabi tashkiliy vazifalar ham malakali muloqot orqali ta'minlanadi. Rahbar boshqaruv jarayonida muloqot tadbirini tashkil etar ekan bu jarayonni rahbarlik muloqoti deb atash mumkin. To'la-to'kis va me'yorida tashkil etilgan rahbarlik muloqoti quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Aloqa-kontakt o'rnatish.
2. Masalani muhokama qilish.
3. Yechim variantlarini izlash.
4. Qaror qabul qilish.

Zamonaviy psixologiya fani shunday bilim va ko'nikmalarni bayon qilishi mumkinki, ularning ayrimlarini qo'llash muloqot muhitini ijobjiylashtirishga, o'zaro munosabatlarni yanada muqobillashtirishga ko'mak bo'ladi. Bu boradagi birinchi va joiz qadamlardan biri -rahbarning tashqi qiyofasi va ichki dunyosida muloqot uchun ijobjiy holatning aks etishidir. O'zgaga xayrixohlik, samimi yunosabat, uning manfaatlari haqida qayg'urish alomatlari o'z navbatida, xodim shaxsida ham shunday javoblarning uyg'onishiga ta'sir etadi.

**Sherzod BOBOYOROV,  
Buxoro davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi**

## ILK BOLALIK DAVRIDA RIVOJLANISH

Ilk bolalik davri: q o'daklik davridan so'ng rivojlanishning yangi bosqichi – ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi.

Tikka va to'g'ri yura olish imkoni bolani, doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashga zamin boladi. Bu yoshdag'i bolalar o'z xatti-harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bo'ladilar. Yurishni o'rganish bolaning jismoniy o'sishi uchungina emas, baiki uning psixik taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Bolaning mustaqil harakat qilishi yurishi tufayli ko'plab predmetlarga duch keladi, ulaming nimalarga ishlatalishini oila a'zolariga do'stlarida qarab biladi va o'zi ham ulardan kerakli o'rinda foydalanishga harakat qila boshlaydi. Bola yurishni o'rgangach, fazoni ham bila boradi. Kichkintoy bolalar «yaqindagi» fazoni qo'llarining harakati yordamida. bilib oladilar, bunda ko'z ham ishtirok eta boshlaydi. Bog'chagacha yoshdag'i bola «uzoqdagi» fazoni orientirovka qila boshlaydi. Bola yura boshlagach, o'z oyog'i yordamida masofa va yo'nalish bilan tanishadi, uning ko'z, qo'l va oyoqlauning o'zaro kelishib harakat qiladi, Ko'zi yordamida predmetlaming turgan joylarini birmuncha aniq aytib berish ko'nikmasi vujudga keladi. Bog'chagacha boradigan yosh davrining birinchi yarmida bolalar predmetlar bilan harakat qilib,

tanishib boradilar. Harakatlarining barcha koordinatsiyasi bolada barqaror diqqatning rivojlanishiga, idrokning aniq bo'lishiga va iroda kuchining o'sishiga olib keladi. Ammo bolalaming harakatlari kattalarming harakatlariga taqlid qilish xarakteriga ega bo'ladi. Biror bir harakatni o'z vaqtida o'zlashtirishi bilan bola uni asta- sekin mustaqil bajara boradi, bu harakat unda dadillik, ishonch va matonatlilik kabi ijobji xislatalaming tarkib topishiga yordam beradi. Bola hayotining uchinchi yilida, ya'ni organizmning intensiv o'sishi va rivojlanishi davrida harakatlaming kam bo'lishi bolaning umumi y o'sishiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli asosiy harakatlar (yurish, yugurish, predmetlarga tirmashib chiqish) bilan birgalikda, qo'l harakatlarning ham to'g'ri va o'z vaqtida rivojlanishi haqida g'amroxo'rlik qilish zarurdir. Bolaning harakatlarini asosan uning kundalik faoliyati jarayonida o'stirib borishga e'tibor berish kerak. Masalan, mustaqil ravishda yuvinish, kiyinish, ovqatlanish, badan tarbiya bilan shug'ullanish va o'yinlar o'ynash.

Har xil harakatlami bajarish va predmetlar bilan harakat qilish tevarak-atrofdagi olamni bilishga olib keladi. Bola predmetlaming or'ni, joylanishi, sifati,



hajmi, shakli va holatiari bilan tanishadi. Bularning hammasi sezgi organlarining o'sishiga ijobji ta'sir etadi. Bir yoshlik bola nisbatan yaxshi rivojlangan sezgirlikka egadir. Bola bog'cha davrining boshlanishida ba'zi tovushlarni, o'ziga yaqin kishilaming ovoz tempini aniq ajrata oladi, ba'zi bir narsalaming ta'mi va hidini farq qiladi, ranglami taniy boshlaydi. Bu yosh davrida ko'rish va eshitish analizatorlarining rivojlanishi ayniqsa yuksak darajaga yetadi. Bola asosiy ranglami bir-biridan farq qiladi. Lekin bolaga ranglaming nomini aytishga qaraganda, ulani bir-biridan ajratish osonroqdir. Bolalar qizil rangni osonlik bilan ajrata oladilar-u, binafsha rangni ajratishda ko'p adashadilar. Ko'pincha bolalar har bir rangning tusini, tovlanishini yaxshi ajrata olmaydilar.

Bolalarga ilk bolalik davridan boshlab bolalarni atrof muhitga moslashishi, jismoniy harakatlanishi, nutqning paydo bo'lishi o'z-o'zini anglashidan tashqari, bolani oila azolari va yaqinlarinig yoradami orqali rivojlanishini tezlashishiga yordam beradi. Bolani egosentrizmga bo'lgan munosabatiga befarq bo'imaslik kerak. Bolaning maktabgacha bo'lgan davirda psixofiziolgik o'zin faoliyoti, mehnat, o'qish faoliyatiga e'tibor qaratish lozim.



**Go'zal RAJABOVA,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
psixologiya kafedrasi dotsenti**

## Korxonani ijaraga berish

**O`zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi 579-modda.**

### Korxonani ijaraga berish shartnomasi

Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun mulkiy kompleks sifatida butun korxonani yoki uning bir qismini haq evaziga berish majburiyatini oladi, ijaraga beruvchi boshqa shaxslarga o'tkazishi mumkin bo'Imagan huquq va majburiyatlar bundan mustasno.

Ijaraga beruvchi o'z qarzlarini ijaraga oluvchining zimmasiga o'tkazishi haqida kreditorlarini yozma ravishda ogohlantirishi shart, kreditorlar bunga rozi bo'Imasalar, ogohlantirishni olgan vaqtidan boshlab uch oy davomida ijaraga beruvchidan tegishli majburiyatlarni bekor qilishni yoki muddatidan oldin bajarishni va shu tufayli yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli. Agar shu muddatda mazkur talablardan birontasi bildirilmasa, kreditor tegishli qarzning ijarachiga o'tkazilishiga rozilik bergen deb hisoblanadi.

Ijaraga beruvchidan majburiyatlarni bekor qilishni yoki muddatidan oldin bajarishni va zararni qoplashni talab qilgan kreditorlar bilan hisob-kitob qilib bo'linganidan keyingina korxona ijarachiga topshirilishi mumkin.

Korxona mulkiy kompleks sifatida ijaraga berilgandan keyin ijaraga beruvchi bilan ijaraga oluvchi topshirilgan korxona tarkibiga kiritilgan va ijaraga oluvchiga kreditorning roziligidiz o'tkazilgan qarzlar bo'yicha solidar javobgar bo'ladi.

Agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'Imasa, ijaraga beruvchining tegishli faoliyat bilan shug'ullanish uchun maxsus ruxsatnomasi (litsenziya) asosida olgan huquqlari ijaraga oluvchiga berilishi mumkin emas. Ijarachi maxsus ruxsatnomasi (litsenziya)si bo'Imaganligi sababli bajara olmaydigan majburiyatlarni shartnomada bo'yicha topshirilayotgan korxona tarkibiga kiritish ijaraga beruvchini kreditorlar oldidagi tegishli majburiatlardan ozod qilmaydi.

**580-modda. Korxonani ijaraga berish shartnomasining shakli**

Korxonani ijaraga berish shartnomasi taraflar imzolagan bitta hujjat tarzida yozma shaklda tuziladi va u davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Korxonani ijaraga berish shartnomasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Korxonani ijaraga berish shartnomasining shakliga riosa etmaslik uning haqiqiy bo'Imasligiga olib keladi.

**581-modda. Ijaraga olingen korxonani topshirish**

Ijaraga olingen korxona ijaraga oluvchiga topshirish dalolatnomasi bo'yicha topshiriladi.

Agar ijara shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'Imasa, ijaraga olingen korxonani topshirishga tayyorlash, shu jumladan topshirish dalolatnomasini tuzish va imzolashga taqdim etish ijaraga beruvchining zimmasidagi majburiyat hisoblanadi va uning hisobidan amalga oshiriladi.

**582-modda. Ijaraga oluvchining korxonani saqlash va uni ishlashish xarajatlarini to'lash bo'yicha majburiyatlar**

Korxonani ijaraga oluvchi ijara shartnomasi amal qilib turgan butun vaqt mobaynida korxonani tegishli texnik holatda saqlab turishi, shu jumladan uni joriy ta'mirlashi va shartnomada nazarda tutilgan hollarda kapital ta'mirlashi shart.

Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'Isa, ijaraga olingen korxonani ishlashish bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek ijaraga olingen mol-mulkni sug'ortalash bo'yicha to'lovlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ijaraga oluvchi zimmasiga yuklatiladi.

**Abdulla SAIDMURODOV,  
Buxoro viloyat Adliya Boshqarmasi  
Shofirkon tuman Adliya bo'limi Hujjalarni  
qabul qilish va taqdim etish sho'basi bosh  
mutaxassis**

## Qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun ruxsatnomasi olish tartibi

**Qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun ruxsatnomasi olish xizmatidan jismoniy hamda yuridik shaxslar DXMga kelib yoki yagona interaktiv portal orqali foydalanadilar.**

Ushbu arizani topshirish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi: 1. Qurilish labaratoriylar mavjudligi haqidagi hujjat. 2. Buyurtmachining texnik nazorati, loyiha tashkilotining mualliflik nazorati va pudrat tashkilotining ichki nazorati tayinlanganligi to'g'risidagi buyruq yoki shartnomasi nusxalar. 3. Buyurtmachining texnik nazorati, loyiha tashkilotining mualliflik nazorati va pudrat tashkilotining ichki nazorat mutaxassislarining sertifikatlari. 4. Qurilishni tashkil etish va ishlarni bajarishning tasdiqlangan loyihalari. 5. "Energiya samaradorlik" hujjati taqdim etiladi. Markaz xodimi ushbu hajjutalarni yuklab arizachidan imzo planshetlariga imzoni olib yoki portal orqali topshirilayotgan bo'lsa, arizachi elketron raqamli imzosi bilan tasdiqlab yuboradilar. Ariza imzolangandan so'ng hududiy qurilish nazorat inspeksiyasi tomonidan ko'rib chiqilib, 1 ish kunida javob beriladi arizaga. Ariza yuborishda davlat boji undirilmaydi.

**Nilufar ERGASHEVA,  
Kogon shahar DXM bosh mutaxassis**

## "Adliya-QR" axborot tizimi: fuqarolar uchun yangi qulayliklar!

**2025-yildan boshlab Davlat xizmatlari markazlarida fuqarolar uchun "Adliya-QR" axborot tizimi joriy etildi. Ushbu tizim orqali fuqarolar:**

Face-ID orqali ariza ma'lumotlarini tasdiqlash;  
Arizaga tegishli to'lovlarni amalga oshirish;  
Arizada kiritilgan ma'lumotlar bilan tanishish;  
Xizmat sifatini baholash;  
Ariza natijalarini yuklab olish;  
Zarur ma'lumotlarni markaz xodimi bilan al mashish imkoniyatiga ega bo'lishadi.  
Bu yangilik quyidagi qulayliklarni yaratadi:  
- Fuqarolar vaqtini tejaydi;  
- Navbatlar sezilarli darajada kamayadi;  
- Xizmat sifati oshadi;  
- Ortig'cha xarajatlar qisqaradi.  
Davlat xizmatlarini yanada qulay va sifatli qilish yo'lida ishslashda davom etamiz!

**Farrux ASADOV,  
Shofirkon tuman Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassis**

## YURT MA'RIFATPARVARLARI

**Buxoro qadimdan to hozirga madaniyat va ilm – fan markazi bo'lib kelgan va davom etib kelyapti. Shunday ekan XX asr davomida Buxoroda juda ko'p ilmiy-tarixiy muassasalar faoliyat ko'rsatgan. Buxoro amirligi davrida ma'naviy-ilmiy hayotda nazar tashlasak, bu davrda ijod qilgan amirlar, tarixnavislar, ko'pchiligin tashkil etadi. Ulardan Ahmad Doniy, Sadriddin Ayniy va boshqalar o'z asarlari, ijodlari bilan xalq ishonchiga kirib borganlar va ilm-ma'rifatni rivojlantirishga sabab bo'lganlar. Respublika davrida (1920-1924) yillar esa Buxoroda ilmiy jamiyat tashkil etib, shu tashkilotning rahbarlari Fitrat, Otajon Payrov Sulaymoniy, Abdulvohid Burxonov, Sadriddin Ayniyalar xalqni ma'rifatli qilishga, madaniyatni yuksaltirishga harakat qilganlar.**

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati vujudga keladi va XX asr boshlarida Buxoro amirligida kuzatiladi. Shuning bilan birga aholining munosib yashash tur mush tarzini ta'minlash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini yuksaltirish, jismonan sog'gom, intelektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakkantirish, rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Buxorodagi jadidchilikning Turkistondag'i istilochilik harakatlaridan farqli jihatlariga e'tibor qaratib, Fayzulla Xo'jayev shunday yozadi: "Buxoroda harakat boshqa yo'l bilan boradi. Buxoro jadidchiligi dehqonlar va mayda savdogarlarga tushadigan soliq og'irliklarini yengil qilish ham soliq ishlarini umumiylar tartibga solish to'g'risida ochilgan gapdan boshlab tadrijiy suratda ko'p a'zolar, sho'balar va Buxoro xalqining har xil tabaqalari orasida qilib o'ziga xayrixoh omma bilan birga haqiqiy bir yashirin jamiyatga aylana bordi". Bundan ko'rindan mahalliy boylar, savdogarlar, ulamolar, mudarrislar va talabalar bu harakatga qo'shilgan bo'lib aholining ma'naviyatini yuksaltirish, ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etish edi. Buxoro amirligida ko'plab jadidchi ma'rifatparvarlar bo'lib ular safida Axmad Donish, Axmadjon Xamdiy,

Abdulvohid Munzin, Hamidxo'ja Mehriy, Sadriddin Ayniy, Xo'ja Rofe'y, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li bu guruh tarkibida bo'lgan. Amir Nasrullo saroyida bosh xattot va rassom sifatida ish boshlagan Axmad Donish 1870-yilda adolatli davlat haqidagi tasavvurlariga mos kelmaydigan xizmatini ixtiyorli tark etadi. U mazkur voqealha haqida shunday yozadi: "...qo'shin va hokimlarga xizmat qilishdagi tartibning yo'qligi tufayli saroyda xizmat qilish menga og'ir va natijasiz ko'rindi, men taklif va e'tirozlarga qaramay, bundan ketdim va madrasaga joylashib, quruq nonga qoniqish hosil qildim". Bu esa o'z navbatida Buxoro amirligida soliqlar tartibga solinmaganligi, aholining turli xil mehnat majburiyatlariga jaib qilinishi kuzatiladi.

Jadidchilik harakati ushbu muammolarga yechim sifatida ko'riladi. Ular harakatining tub mohiyati yangi usuldagagi maktablar joriy qilish, yoshlarni chet el yoshlari bilan bemalol sport, fan, madaniyat va texnika sohasida bemalol bellasha olishi uchun harakat qilgan.

**Sitora NIYAZOVA,  
Buxoro davalat pedagogika instituti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim  
pedagogikasi kafedrasini katta o'qituvchisi**

## USTOZ

Tabiatda bugun o'zgacha chiroy,  
 Qushlarning sayrashi sirli, muloyim.  
 Bilmadim, bular nedan bermoqda darak,  
 Darakning sababin topolmay men halak.  
 Qadrli qadrliligidim, aziz Ustozim,  
 Tabiat eslatar chin insonlarni.  
 Qanchalik sog'indik, hislar betakror,  
 Har bir kunimizga siz axir darkor.  
 Ustoz, otangday ulug', deydilar,  
 Ularning hurmatu izzatidamiz.  
 Qalbimiz tubida sizning o'rningiz,  
 Chekkan zahmatlaringiz hosilasimiz.  
 Daraxt shoxlaringiz yaprog'in yoyib,  
 Sizga talpinamiz palapondek chopib.  
 Chinor daraxtining umrini ko'ring,  
 Tavallud kunlarning ko'p-ko'pini ko'ring.

**Dilrabo MUXAMEDOVA,**  
*Buxoro shahridagi 8-maktabning rasm,*  
*chizmachilik fani o'qituvchisi*



## OPAM

Bahorda ochilgan ilk gullar kabi,  
 Orom berar oftobning nuri.  
 Bilaman, ba'zida so'z yetmas ekan,  
 Ammo yuragimda bitmas tuyg`ular.

Samimiyl qalbingiz mehrga to'lgan,  
 Xushchaqchaq so'zingiz baxtni ulashgan.  
 Sizsiz dunyo chala, bu – mening tuyg`um,  
 Bolalik kunlari yodimga tushar.

Ko'zyoshlaringiz faqat baxtdan yaralsin,  
 Hayotingiz faqat quvonchga to'lsin.  
 Har kuningiz nurli tongdan boshlansin,  
 Baxt va omad sizga doim yor bo'lsin!

Tug'ilgan kuningiz bir bayram fasli,  
 Sizsiz dunyo ma'nosiz asli.  
 Dunyodagi eng yaxshi opasiz asli,  
 Tug'ilgan kuningiz muborak bo'lsin!



## JANNATIM – ONAM

Sizdan kelgan bu shirin ifor,  
 Jannat hidi ekan, onajon.  
 Jannat qanday bo'larkan desam,  
 Asli jannat yonimda ekan,  
 Chunki onam doim yonimda!  
 "Sizda orom qayda, sizda kun qayda,  
 Siz to'yib uxlagan bitta tun qayda".  
 Jannat doim mening yonimda,  
 Chunki onam doim yonimda!  
 Siz mening farishtam, mehribonimsiz,  
 Kasal bo'lsam, yonimdan uzoqlashmaysiz.  
 Jannat misol go'zal, shahlo ko'zligim  
 Jannat bilan doim birga ekanman,  
 Chunki doim siz bilan birkaman, onam!

## QALBIMNING NURI

Pok qalbingiz chashmasidan nurlar yog`ilar,  
 Har bir nasihatdan ilm yog`ilar.  
 Sabringiz saboqdir bizga doimo,  
 Mehringiz bilan bag`rimiz yashnar.

Qalbda sizga joy bor ulkan va aziz,  
 Ezgulik tilaysiz bizga har lahza.  
 Har bir ishni sabr ila bajargan qo'llar,  
 Mehrga to'lib dasturxon yozar.

Ilk qadamda tutdingiz qo'llarimizdan,  
 Yo'limizni ko'rsatdingiz duolar bilan.  
 Bizga o'rgatgan har bir so'zingiz,  
 O'mak bo'ldi sizning har bir yo'lingiz.

Yillar bir-bir orqa qolar ekan,  
 Hayot go'zal, baxtli kunlar o'tar ekan.  
 Bu kun sizning eng ulug` ayyomingiz,  
 Yurakda abadiy bo'lsin quvonchingiz.

Har bir nafas, har bir onda baxt tilab,  
 Yashang faqat baxt bilan, quvonchga to'lib.  
 Har tong quvonch sizga yor bo'lsin,  
 Buvijonim, tug'ilgan kuningiz muborak bo'lsin!

**Mexrangiz SAIDOVA,**  
*Buxoro shahridagi 8-maktabning 9-“Ye” sinf o'quvchisi*

## *G'ijduvon tumandagi 25-maktab o'quvchilari ijodidan*

**Bahor**

O'lkamga keldi bahor,  
Suygan faslim - go'zalim.  
Senga etayin izhor,  
Ushbu she'rim, g'azalim.  
Gangir-gungir suhbatlar  
Va o'yinlar zavqi bor.  
Nari ketar kulfatlar,  
Navbahorning shavqi bor.  
Bolajonlar shod, xurram,  
Ichiga sig'mas quvonchi.  
Tabiat fayzli, ko'rkan,  
Ortar qalbda ishonchim.

Dilnoza AKBAROVA

**Boychechagim**

Boychechagim boylandi,  
Malikaga aylandi.  
Bahordan berib darak,  
Elchi bo'lib saylandi.

Uzma, qo'yma, tegma, deb,  
Irim-sirim boshlandi.  
Buvilar surtib ko'zga,  
To'tiyoga aylandi.

Ko'gillarning yashnashin  
Gulga qilayin qiyos.  
Ochilaver boychechak,  
Senmi, yedagi quyosh?!

**Bahor tongi**

Bahor chog'i ertalab,  
Gul isi kelar doim.  
Uyqudan turgan buvim,  
Atrofga solar razm.  
  
So'ngra so'zlarin boshlab,  
Tillaridan bol tomib.  
Shukrona aytar bot-bot,  
Qo'lin duoga ochib.  
  
"Yana yetdik bahorga,  
So'z topolmam ta'rifga.  
Bahor qanchalar go'zal,  
Umid baxsh etar dilga".

Rixstilla AZIMOV

**Dugonalar**

Ko'klam nafasi kezdi  
Yurtimni yana bir bor.  
Dugonalar, jam bo'ling  
Nihoyat, keldi bahor.

Keling, sochpopuk taqay,  
O'rim-o'rim sunbulga.  
Muattar ifor bitar,  
Daraxtlar, turli gulga.


Sumalaklar pishadi,  
Doshdozonda biqirlab.  
Tog'dan, qirdan oshadi,  
Qizlar kulib, qiqirlab.

Parizoda ASLIDDINOVA

**Maymuncha**

Yam-yashil o'rmon ichra  
Ikki inoq maymuncha.  
O'ynashar toliqquncha,  
Tongda, kunduz va kecha.  
Bananlar jon-u dili,  
Yeyishar maza qilib.  
Daraxtlarning har xilin,  
Yashashar makon bilib.  
Ikkisi do'st va o'rtoq  
Bir-birisiz yurolmas.  
Uzoqlashsa, ko'p mushtoq  
Bo'lishar, hech turolmas.  
Xullas, bu ajib do'stlik  
Davom etgaydir mudom.  
Bo'lmasin kam-u ko'stlik,  
Do'stlar yashasin onom.

Dilso'z AMRULLAYEVA



*Sahifani G'ijduvon tumanidagi  
25-maktabning ona tili va adabiyot  
fani o'qituvchisi  
Nargiza XAYRIYEVA tayyorladi.*



# FAROBIY ASARLARIDA NAFOSAT TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH SHAKL METOD VA VOSITALARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abu Nasr al-Farobiyning asarlarida nafosat tarbiyasini shakllantirishga oid metod va usullar tahlil qilinadi. Farobi inson kamoloti va axloqiy tarbiyasida san'at va estetik didning o'rmini alohida ta'kidlagan. Tadqiqotda buyuk mutafakkirning "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishish yo'llari" kabi asarlaridagi estetik tarbiya g'oyalari tahlil qilinib, zamonaviy ta'lif jarayonida ularni qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ma'naviy va estetik tarbiyani shakllantirishda san'at, musiqa va adabiyotdan foydalanish usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** komillik, ta'lif-tarbiya, nafosat tarbiyasi, estetika, metod.

**Abstract:** This article analyzes the methods and techniques for the formation of aesthetic education in the works of Abu Nasr al-Farabi. Al-Farabi emphasized the role of art and aesthetic taste in human perfection and moral education. The study analyzes the ideas of aesthetic education in the works of the great thinker, such as "The City of Virtuous People", "The Ways to Achieve Happiness", and considers the possibilities of their application in the modern educational process. It also discusses the methods of using art, music and literature in the formation of spiritual and aesthetic education.

**Key words:** perfection, education, education of elegance, aesthetics, method.

Bugungi kunda zamonaviy fan tizimida fanlararo yondashuv rivojlanib borayotgan asosiy yo'nalish hisoblanadi. Bunda O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ijod qilgan mutafakkirlarning beqiyos xizmatlari bor. Farobi, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy kabi buyuk faylasuf va allomalarining asarları jahon sivilizatsiyasining oltin xazinasidan munosib o'rın olgan. Al-Farobi (872-950) - o'z davrining buyuk mutafakkiri, faylasufi va pedagogi sifatida nafosat tarbiyasiga katta e'tibor bergan. Uning asarlarida nafosat tarbiyasi insonni nafaqat ilmiy va aqliy jihatdan, balki axloqiy, estetik va ruhiy jihatdan ham shakllantirishga yo'naltirilgan. Farobi pedagogikasi nafosatni insonning ichki va tashqi dunyosining uyg'un rivojlanishi sifatida ko'rgan va buni ideal jamiyatni yaratishning asosiy shartlaridan biri deb bilgan. U o'z asarlarida tarbiya jarayonida nafosatni shakllantirishni dolzarb pedagogik muammo sifatida ko'rsatgan.

Al-Farobi nafosat tarbiyasini odamning yuqori axloqiy va estetik jihatlarini rivojlanish bilan bog'laydi. Uning fikricha, inson nafosat tarbiyasini olganda, nafaqat o'z bilimlarini kengaytiradi, balki bu jarayon uning shaxsiy kamolotiga ham olib keladi. Farobi nafosat tarbiyasini ideal shaxsni, ya'ni jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri anglagan, axloqiy jihatdan yuqori darajaga erishgan va estetik qiymatlarni qadrlagan insonni tarbiyalashning muhim elementi deb bilgan. Farobi nafosat tarbiyasini insonning ma'naviy, axloqiy, estetik va intellektual rivojlanishi sifatida ko'radi. Uning asarlarida tarbiya jarayoni nafaqat bilim o'rgatishdan iborat emas, balki o'quvchining ruhiy va axloqiy jihatlarini shakllantirish, uning estetik idrokini va jamiyatagi mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan. Nafosat tarbiyasi maqsadi, Farobiyning fikricha, insonni to'liq rivojlanishga yo'naltirishdir. Farobi pedagogik qarashlariga ko'ra, ideal jamiyat - bu barcha fuqarolari o'zining axloqiy va ma'naviy kamolotiga erishgan, nafosatga ega bo'lgan jamiyatdir. Bunday jamiyatda nafaqat bilim va ilm-fan rivojlanadi, balki axloqiy va estetik qadriyatlar ham yuqori darajaga ko'tariladi. Farobi, nafosat tarbiyasini, shaxsning jamiyatdagi mas'uliyatini anglash

va bu orqali jamiyatni yaxshilashning asosiy vositasi sifatida qaraydi. Farobiyning pedagogik qarashlarida nafosat tarbiyasining dolzarbli shundaki, u jamiyatda axloqiy va ma'naviy kamolotga erishishning muhim vositasi sifatida qaraladi. U, tarbiya jarayonida ilmiy bilimlar, axloqiy tarbiya va estetik qadr-qimmatlarning uyg'unligi shaxsning to'laqonli rivojlanishini ta'minlashi kerakligini ta'kidlaydi. Nafosat tarbiyasi, o'z-o'zini anglash va jamiyatga foydali bo'lgan shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Estetika yoxud nafosatshunoslik eng qadimgi fanlardan biridir. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik vaqtini o'z ichiga oladi. Biroq u o'zining hozirgi nomini XVIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo'lmish go'zallik va san'at haqidagi mulohazalar har xil san'at turlariga bag'ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o'z aksini topgan edi. Estetikaning falsafiy mohiyatini yana uning san'at asariga yondashuvida ko'rish mumkin. Ma'lumki, har bir san'atshunoslik ilmi oz tadqiqot obyektiga uch tomonlama - nazariy, tarixiy, tanqidiy jihatdan yondashadi. Masalan, adabiyotshunoslikni olaylik. Adabiyot nazariyasi faqat adabiyotgagina xos bolgan badiiy qonuniyatlarni, badiiy qiyofa yaratish usuli va vositalarini o'rganadi. Adabiyot tarixi muayyan tarixiy, badiiy jarayonlar orqali badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Adabiy tanqid esa adabiy-badiiy ijodning zamonaviy jarayonlarini tadqiq etadi va har bir yangi asarni baholaydi, asar ijodkorining ijodiy rivojlanishini kuzatib boradi. Musiqada ham, tasviriy san'atda ham va boshqa san'at turlarida ham shunday. Estetikada esa tadqiqot obyektiga yondoshuv uch emas, birgina nazariy jihatdan amalga oshiriladi: tarix ham, tanqid ham nazariyaga bo'ysundiriladi. To'g'ri, "estetika tarixi" degan ibora va shu nomda kurslar o'qitiladi. Lekin bu nom, ibora shartli tarzda qo'llaniladi. Chunki, u fan tarixi emas, balki tarixan davrlarga bo'lingan estetik nazariyalar tahlilidir. Asarlarining aksariyati falsafa, mantiq, sotsiologiya va ensiklopediya yozish sohalarida edi. U islam davrida paydo bo'lgan birinchi eron faylasufidir. Nafosat tarbiyasi insonning ichki va tashqi go'zalligini shakllantirishga qaratilgan tarbiya turi bo'lib, u odob-axloq, estetik did, madaniyat, go'zallikni anglash va unga intilish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Farobi asarlarida nafosat tarbiyasi san'atdagi, tabiatdagi, qurshab olgan hayot voqeligidagi go'zallik vositalari asosida tarbiyalash bo'lib, Farobi asarlarida insonni garmonik tarbiyalash vositalaridan biri deb hisoblab kelingan. Nafosat tarbiyasingning asosiy vazifasi tabiatdagi, san'atdagi, hayotdagagi go'zallikni qabul qila olish, tushunish qobiliyatini tarbiyalash, fahmlash, go'zallikka riosa qilishga odatlantirishdan iborat. Nafosat tarbiyasi davomida bola hayotdagagi go'zallikni tushunadi, go'zallikni muhofaza qilishga, o'zi ham go'zallik yaratishga intiladi. Nafosat tarbiyasi barkamol shaxs tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismidir. O'quvchilarida nozik didilikni, go'zallikni fahmlay va qadrlay olishga o'rgatish nafosat tarbiyasingning asosiy masalalaridan biridir. Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya) bu o'quvchilami voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilaming ijtimoiy va mehnat munosabatlardagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik obil kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Bugungi kunda maktabda nafosat tarbiyasingini berish turli yo'llar bilan amalgalashiradi. Nafosat tarbiyasi "Matematika", "O'qish", "Jismoniy tarbiya" "Mehnat" darslari jarayonida, ijtimoiy foydali mehnat jarayonida, turmushni chiroyli qilib tashkil etish va o'quvchilaming bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlarda beriladi. Bola o'qishni o'rganmasdan ilgariroq unga badiiy so'z ta'sir eta boshlaydi. U kattalar o'qib beradigan bolalar kitobini, kattalar hikoyasini tinglaydi, maqol va masallami eshitadi, bolalar



yozuvchilarining she'rlarini yod oladi.

Musiqa vositasi orqali nafosat tarbiyasini berish. Musiqa kishining fikr va tuyg'ularini musiqiy obrazlar yordamida ifodalaydi. Ashula dars va xor yoki musiqa to'garaklariga ishtirot etish o'quvchilami kuy, ohanglar dunyosiga olib kiradi, ulaming tuyg'u va kayfiyatiga ta'sir etadi. Bolalar ashula darsida va xor to'garagi mashg'ulotlarida nota savodini o'rganadilar, musiqa terminlari bilan, musiqa janrlari va cholg'u asboblarining turlari bilan tanishadilar hamda vokal ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. Musiqa ta'sirining kuchayib borishi, musiqa eshitish uquvining o'sishi, bolalaming musiqa va ashula sohasidagi bilim doirasining kengayishi o'quvchilaming musiqani o'zlashtirib olish qobiliyatining o'sishiga yordam beradi, ularda durustgina nafosat musiqa didini hosil qiladi.

Nafosat tarbiyasiga qo'yiladigan talablar:

- Nafosat tarbiyasini berishning xilma-xil usullarda amalga oshirish, badiiy materiallami tushuntirishda o'quvchilami zeriktirib qo'ymaslik va ularga ortiqcha nasihatgo'ylik qilmaslik;

- Nafosat tarbiyasini berishda bolalarni didini buzadigan narsalardan ehtiyoq qilish;

- Nafosat tarbiyasiga doir suhbatlar va boshqa tadbirlami oldindan ishlab chiqilgan rejaga muvofiq va ilgari bajarilgan ishlami hisobga olingen holda tizimi va rejali ravishda o'tkazish;

- Tabiiyki, o'qituvchi o'quvchilaming nafosat tarbiyasini olishlariga muvaffaqiyatlari rahbarlik qilishi uchun o'zi barcha go'zalliklami sezishi va sevishi, san'atning turli sohada yaratilayotgan barcha yaxshi narsalardan xabardor bo'lishi, bu sohada o'z bilimini kengaytirib borishi, bitta-ikkita badiiy to'garakka rahbarlik qila olish qo'lidan kelishi lozim. Yaxshi yo'lga qo'yilgan nafosat tarbiyasi yosh avlodni barkamol inson qilib. Tarbiyalashda yanada katta muvaffaqiyatlami qo'lga kiritishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr al-Farobi nafosat tarbiyasini inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko'rsatgan. Uning asarlarida san'at, musiqa va estetik did orgali inson qalbini yuksaltirish, ezgulik va komillikka yo'naltirish g'oyalari ilgari surilgan. Farobiyning pedagogik yondashuvlari zamonaviy ta'lif jarayonida nafosat tarbiyasini shakllantirishda samarali metod va usullarni ishlab chiqishga asos bo'la oladi. Uning ilmiy merosidan foydalanish orgali yosh avlodning axloqiy va estetik dunyoqarashini rivojlanish, ularni yuksak badiiy did, ma'naviyat va ma'naviy qadriyatlariga ega bo'lishiga ko'maklashish mumkin. Farobiyning falsafiy va pedagogik qarashlar bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, insonparvarlik, ezgulik va go'zallikni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Uning ta'lif-tarbiyaga oid g'oyalari hozirgi pedagogika, san'at va madaniyatshunoslik sohalarida ham chuqur o'rganilib, amaliyatga tatbiq etilmoqda. Shu boisdan Abu Nasr al-Farobiyning ilmiy merosi yosh avlodni har tomonlama yetuk inson sifatida shakllantirishda muhim nazarini va metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

## 2025-yil 15-martdan 15-aprelga qadar respublikada “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi”

### **“FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISH VA FUQARO MUHOFAZASI OYLIGI”**

Yurtimizda 15-martdan 15-aprelga qadar “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi” o’tkazilmoqda. Ushbu oylik doirasida aholini favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar va boshqa xavf-xatarlardan himoya qilish bo'yicha targ'ibot ishlari amalga oshiriladi. Oylik davomida quyidagi asosiy tadbirlar o’tkaziladi:

- ommaviy targ'ibot va o'quv mashg'ulotlari: Aholiga favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligi haqida ma'lumot beriladi, evakuatsiya, o'zini-o'zi himoya qilish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha treninglar tashkil etiladi;

- favqulodda vaziyatlarga tayyorlik: Xavfli hududlarda joylashgan ob'ektlar va tashkilotlarda favqulodda vaziyatlarga tayyorlikni oshirish, xavfsizlik texnikalarini amalga oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar;

- xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar: Fuqarolarni tabiiy ofatlar va texnogen xavf-xatarlardan himoya qilish bo'yicha zarur bilimlarni oshirishga qaratilgan ma'lumotlar va ko'nikmalarni tarqatish.

Bu oylik, shuningdek, aholining favqulodda vaziyatlarga tayyorligini oshirish, xavfsizlik madaniyatini yuksaltirish va favqulodda vaziyatlarga tez va samarali javob qaytarishga tayyor bo'lish uchun muhim ahamiyatga ega.

**J.QALANDAROV,**

**Buxoro shahar FVB boshlig'i o'rinosi, kapitan**

### **BOTULIZM**

Botulizm – inson va hayvonlardagi jigar, me'da-ichak traktlari va markaziy nerv tizimini zararlantirishga olib keluvchi, botulin toksini bilan yuzaga keladigan og'ir infektsion kasallik. U toksinni yallig'lanish, og'ir ich ketishi va murakkab nerv simptomlariga sabab bo'ladi.

Botulizm, asosan, ichimliklar, konserva va yetuk mahsulotlar orqali tarqalishi mumkin. Uning simptomlari aralashanlar, kuchli o'sish va paralichlarga olib kelishi mumkin. Agar vaqtida davolanmasa, o'limga olib kelishi mumkin. Botulizmni davolashda antibiotiklar va botulin toksiniga qarshi antitoksinlar ishlatiladi.

**D.KO'MAKOV,**

**Buxoro shahar FVB inspektori, kapitan**

### **FUQARO MUHOFAZASI**

Fuqaro muhofazasi – tabiiy ofatlar, texnogen hodisalar va boshqa xavfli vaziyatlardan aholi, xo'jalik ob'ektlari va davlat mulkini muhofaza qilishga qaratilgan tizim. Bu sohadagi ishlar, jumladan, favqulodda vaziyatlarda odamlarni o'zaro o'zaro xavfsizligini ta'minlash va zararlardan himoya qilishga yo'naltirilgan.

Bu borada biz tabiiy va texnogen ofatlardan himoya qilish, odamlarni evakuatsiya qilish va himoyalash, kuzatish va tezkor yordam ko'rsatish, mutaxassislar va xizmatlarni tayyorlash, targ'ibot masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqdamiz.

**A.SAFAROV,**

**Buxoro shahar FVB bo'linma boshlig'i, leytenant**

### **ZILZILA SODIR BO'LGANDA...**

Har bir korxona rahbari yer silkinishi oqibatlarini kamaytirishning asosiy tadbirlarini bilishi zarur. Bular quyidagilardan iborat: hududning seysmik xaritasi, unda zilzila bo'lish ehtimoli bor joylar va uning kuchi ko'rsatiladi; zilzilaga bardosh beradigan uylar va sanoat inshoatlarini qurish; zilzila sodir bo'lib qolgan holda aholi o'zini qanday tutishi va xatti-harakatlari haqida tushuntirish; seysmik stansiyalarda uzluksiz navbatchilikni tashkil qilish va olib borish; zilzilar haqida aniq xabar va aloqa tizimini tashkil qilish; qutqaruv, kuch va vositalarni tayyor xolga keltirib qo'yish; aholini xavfsiz, o'z vaqtida evakuatsiya qilish tadbirlarini ishlab chiqish; moddiy-teknik ta'minoti (plakatlar, oziq-ovqat, dori-darmon) zaxiralarini tashkil qilish; zilzila xaqida xabar beruvchi belgilarni aholiga tushuntirish va o'z vaqtida qo'llash.

**H.SHUKUROV,**

**Buxoro shahar FVB kichik inspektori, katta serjant**



### **YONG'IN – TEXNIKAVIY EKSPERTIZASI VAZIFASI NIMA?**

Priborlaringiz sozmi?

Is gazi turmushda foydalaniladigan tabiiy gazning chala yongan qoldig'i bo'lib, tutun mo'ri yoki dudburonlar orqali tashqariga chiqariladi. Isitish pechlar va suv isitish qozonlari tutun mo'rilarining yashash uyi tomidan yuqoriga chiqarilmasligi, gaz plitalarining uzoq vaqt davomida yoniq qoldirilishi va dudburonlarining yo'qligi, qo'lbola va sertifikati bo'lmagan isitish pechlar, jumladan, Eron pechidan foydalanish insonlarning is gazidan zaharlanishiga sabab bo'ladi. Bunday uskunalar o'rnatilgan xonada uplash esa chuqr zaharlanish yoki o'limga olib kelishi mumkin.

**Y.HAMROYEV,**

**Buxoro shahar FVB katta inspektori, kapitan**

### **YONG'INLAR PROFILAKTIKASI**

Yong'inga qarshi kurash barchamizning asosiy vazifalarimizdan hisoblanib, bu ish insonlar hayoti va salomatligini, davlat va jamiyat, fuqarolar moddiy boyliklarini asrash yo'lidagi ijtimoiy ahamiyatli harakatdir. Shunday ekan, barchamiz “Yong'in xavfsizligini ta'minlash – eng ustuvor vazifa” tamoyiliда ish olib borishimiz shart. Har birimiz ish joylarimizda, mahallamizda va o'z xonadonimizda yong'in xavfsizligi qoidalariiga rioya qilib, hushyorligimizni bir lahma ham yo'qotmasligimiz maqsadga muvofiqli.

**A.AXMEDJANOVA,**

**Buxoro shahar FVB kichik inspektori, kichik serjant**

### **QURILISHDA YONG'IN XAVFSIZLIGI**

Xalqimiz topgan tutganini imorat solib, to'ylar qilishga odatlangan. Bugun to'ylarimiz dabdabali, qurilayotgan imoratlar bir-biridan hashamatli. Hamma ham uy qurib, unga kirishdan avval xonadonlarning elektr va gaz montaj ishlarining nechog'li mukammal bajarilganligiga to'liq ahamiyat beravermaydi. Mana shu jihatning o'zi ham loqaydlik hisoblanadi va u kelgusida sizga kattagina muammolar tug'dirishi hech gapmas.

**M.JUMAYEV,**

**Buxoro shahar FVB inspektori, leytenant**

### **SEL VA TOSHQIN BO'LGAN VAZIYATDA...**

Agar sel va toshqin xavfi bo'lsa, darhol xavfsiz hududga chiqish zarur. Avvalo past yoki suvg'a to'lib ketishi mumkin bo'lgan joylardan yo'l olish kerak.

Suvning to'lanishiga qarab, undan foydalanish uchun xavfli joylardan yuzlab metr uzoqlashish zarur. Joylashgan binolarning qavatlardan yuqori bo'lgan joylarga chiqish, elektr qurilmalari, gaz va suvli xavflardan qochish kerak.

Agar sel yoki toshqindan qochish imkoniyati yo'q bo'lsa, yuqori qavatlarga yoki qo'shni binoga chiqish lozim. Agar odamlar yordamga muhtoj bo'lsa, xavfsizlik bilan ishlash yoki yordam olish uchun aloqa qilish zarur.

Eng muhimi, qo'rquv vasvasasiga tushmaslik, aniq harakatlarni amalga oshirish va xavfsizlikka e'tibor berishdir.

**U.JAMOLOV,**

**Buxoro shahar FVB kichik inspektori, oddiy askar**



## NAVRO`Z

Unib chiqqan bugdoyni  
Qolga olib shirmoyni.  
Ovozimiz borini  
Baralla biz aytaylik:  
Navro`z keldi, kutaylik.

Karnay-surnay chalinar,  
Sumalaklar qilinlar.  
Mahallamiz yigilar;  
Baralla biz aytaylik:  
Navro`z keldi, kutaylik.

Bir-birimiz yoqlaylik,  
Elga xizmat qilaylik.  
Dasturxonlar tuzaylik,  
Baralla biz aytaylik:  
Navro`z keldi, kutaylik.

Keling, qizlar kuylaylik,  
Milliy libos kiyaylik,  
Sochlarimiz oraylik,  
Baralla biz aytaylik:  
Navro`z keldi, kutaylik.

Argimchoqlar uchaylik,  
Baytu baytlar aytaylik,  
Qolga xina surtaylik,  
Baralla biz aytaylik:  
Navro`z keldi kutaylik.

Koksomsalar qilaylik,  
Mehmonlarni kutaylik.  
Aziz bolgan Navro`zni  
Baralla biz aytaylik:  
Navro`z keldi, kutaylik.

**Rayhonabonu RO`ZIQULOVA,**  
**Kogon shahridagi 5-IDUM**  
**7-“B” sinfo ‘quvchisi**

## DADA

Dada, siz men uchun butun olamsiz,  
Sog'insam, ko'zdan oqqan mungli jolamsiz.  
Men sizni judayam yaxshi ko'raman,  
Mehringizni qo'msaguvchim, go'zal nolamsiz.

Qalbim yorishadi eshitsam bir bor,  
Go'zalim, sog'indim degan so'zingiz.  
Qizlarini sizdek suygan yana qayda bor,  
Ko'ksi qalqon, mehri daryom o'zingiz.

Nimadir xohlasam kunmi yoki tun,  
Derdiz: yetsa molim, yetmasa jonim.  
Muhayyo qildingiz quvonchim uchun  
Mening qahramonim – siz, dadajonim.

Firog'ingiz ko'rmayin hech ham,  
Umriningizi uzun qilsin, Allohim.  
Onam bilan birga bo'ling siz har dam,  
Baxtimizni butun qilsin, Allohim.

**Mohlaroyim QUQONBOYEVA,**  
**O'zbekiston Xalqaro Islom**  
**akademiyasi**  
**2-bosqich talabasi**



## BAHOR TAROVATI

Bahor keldi, gullar ochildi,  
Tabiatga nur sochildi.  
Quyosh kulib boqdi yerga,  
Shabnam tushdi lolalarga.  
Yomg'ir yog'ar, mayin, ohista,  
Dala-yu bog` yashnar asta.  
Ko'klam nafasi yurakda,  
Yashnar hayot har yurakda.  
Qushlar sayrab, qo'shiq aytar,  
Tabiat ham shodlik sochar.  
Bahor keldi, quvonch keldi,  
Dunyo yana go'zal bo'ldi!

**Muhabbat SALIMOVA,**  
**"Yosh qalamkash" to'garagi a'zosi**



## TUN

Ko'zimga kelmas uyqu, o'ylab-o'ylab tolaman,  
Netay, qo'llimga yana qalamimni olaman.  
Armonlarim bir talay, azob berar qalbimga,  
Qorong'u tun sharpasi darmon bo'lar dardimga.

Qora bulut suzadi, har shaklda osmonda,  
Nechun buncha sinov ko'p, yer yuzida, insonda?  
G'iybatchiyu, nodonlar tosh otishdan tolmaydi,  
Nahot ular bilishmas, hech kim boqiy qolmaydi.

Ko'zi ochiq ko'rlnari ko'rib fig'on bo'laman,  
O'larmoqqa bo'lmanq shay, bir kun o'zim o'laman.  
Loy otmoqqa urinmang, loy bo'ladi qo'lingiz,  
Maslahatim: birodar, xato – sizning yo'lingiz.

Ko'zim ochilgan har tong shukronalar aytaman,  
Meni kuting, do'stlarim, yana bir kun qaytaman.  
Dushmanlik qilmoqlikdan bormi biror bir foyda,  
Tun chog'i ayon dog'i, garchi go'zal oymoma.

**Muxtor FAYZIEV,**  
**G'ijduvon tuman maktabgacha va maktab**  
**ta'limi bo'limi mudiri**



## Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida

**Bundan buyon davlat fuqarolik xizmati tatbiq etiladigan barcha vazirlik va idoralarda xodimlarni ishga qabul qilish, faoliyati samaradorligini baholash, ularni xizmat pog'onalarida o'stirish, rag'batlantirish yoki intizomiy jazolash va xizmatni tugatish masalalarida har xil yondashuvlarga barham beriladi.**

Joriy yilning 8-avgust kuni "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonun qabul qilindi, mazkur qonun O'zbekistonda ijro hokimiyyat funktsiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlaridagi 118 mingdan ortiq davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati bilan bog'liq barcha munosabatlarni yagona qoidalar asosida tartibga soladi. Endi bevosita qonun bilan tanishib o'tsak, unda davlat organlarida fuqarolik xizmatini o'tash tartibi, ushbu sohadagi davlat boshqaruvi, davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi belgilandi. Jumladan, davlat xizmatiga davlat tilini biladigan, tegishli malaka talablariga javob beradigan O'zbekiston fuqarolari qabul qilinadi. Davlat xizmatchilar uchun 5 kunlik ish haftasi va haftasiga 40 soatdan oshmaydigan ish davomiyligi belgilanadi. Ularga «hayfsan», «jarima» ishdan bo'shatish bilan bir qatorda malaka darajasini pasaytirish va lavozimini pasaytirish tarzidagi intizomiy jazolar ham qo'llaniladi. Davlat xizmatchilariga 27 kundan kam bo'limgan yillik asosiy ta'til beriladi.

Qonun bilan davlat fuqarolik xizmatchilariga «siyosiy» (vazir, rais, direktor va boshqa), «boshqaru» (departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari) va «yordamchi» (mutaxassis, inspektor va konsul'tantlar) malaka darajalari beriladi. Bunda ma'lumoti, ish staji va malaka oshirish kurslarining natijalari hisobga olindi. Bu bilan endilikda yuristlar, huquqni muhofaza qiluvchi va mudofaa organlaridagi xodimlarning maxsus unvonlari kabi fuqarolik xizmatchilar ham maxsus martabalar, ya'ni malaka darajalariga ega bo'ladi. Qonunga ko'ra, davlat xizmatchisi o'zaro yaqin qarindoshlikda yoki quda tomonidan qarindosh bo'lgan shaxslarning aynan bitta davlat organi va tashkilotida birga xizmat qilishi mumkin emas. Ularning pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa faoliyat turlari bilan, qolaversa, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi. Xizmat vakolatlarini boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan biron-bir mukofot, foyda yoki sovg'alar olish qat'iy taqiqlanadi. Bundan tashqari, davlat xizmatchilar O'zbekiston hududidan tashqarida hisobvaraqlar ochishga va ularga ega bo'lishga, chet elda ko'chmas mulkka va boshqa mol-mulkka egalik qilishga haqli emas. Ular chet davlat fuqaroligini olishi, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishi taqiqlanadi. Belgilangan cheklov larga rioya etilmagan taqdirda davlat fuqarolik xizmatchisi nafaqat ishdan ketishi, balki jinoiy javobgarlikka tortilishiga asos bo'ladi. Qonun bilan korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinmaydi. Bundan tashqari, korruptsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlarni egallab typgan davlat fuqarolik xizmatchilar majburiy rotatsiya qilinadi. Shu bilan birga, qonunga ularning odob-axloq qoidalariga rioya etish shartligi, davlat organining nufuzini tushirishga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlardan tiyilishi, o'z xizmat mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanmasligi, davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi shartligi kabi muhim normalar kiritildi.

**Sanjar HAZRATKULOV,  
Kogon shahar Adliya bo'limi  
Davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i**

## MEROS ISHI OCHILDI

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani, Amirabot MFY, Quyi Arabxona qishlog'ida yashab, 2024-yil 9-mart vafot etgan Bazarova Izzat Nazarovna mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rлaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

Manzil: G'ijduvon tumani, XXI asr ko'chasi 8-uy.  
\* \* \*

Buxoro viloyati, Romitan tumani, Bog'isaydon MFY, Vag'ani qishlog'ida yashab, 2018-yil 13-iyulda vafot etgan Komilov Toshpo'lot Shodiyeovich mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rлaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Romitan tumanidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.  
\* \* \*

Buxoro viloyati, Buxoro shahar, Mustaqillik ko'chasi, 46-uy, 5-xonadonda yashab, 2025-yil 19-yanvarda vafot etgan Saliev Izatillo Asatullayevich mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rлaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Buxoro shahridagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

**O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 439-moddasiga ko'ra o'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarga yillik asosiy ta'tillar, shuningdek o'rindoshlar haqli bo'lgan qo'shimcha mehnat ta'tillari asosiy ish joyidagi yillik mehnat ta'tili bilan bir vaqtida beriladi.**

## O'rindoshlik asosida ishlovchi xodimlarga yillik mehnat ta'tili qay tartibda beriladi?

Agar o'rindoshlik asosida ishning birinchi ish yilida xodim olti oydan kam ishlagan bo'lsa, o'rindoshlik asosida ishda yillik mehnat ta'tili uchun ishlangan vaqtga mutanosib ravishda haq to'lanadi.

Birinchi ish yilida olti oy ishlagan o'rindoshlarning yillik mehnat ta'tiliga, shuningdek ishning keyingi yillari uchun yillik mehnat ta'tiliga o'rindoshlik asosida ishning o'rtacha ish haqidan kelib chiqqan holda odatdagagi tartibda haq to'lanadi.

Asosiy ish joyi bo'yicha yillik mehnat ta'tilining davomiyligi o'rindoshlik asosidagi ishdagi mehnat ta'tilining davomiyligidan ko'p bo'lgan hollarda, ish beruvchi o'rindoshning iltimosiga ko'ra unga o'rindoshlik asosidagi ishdagi yillik mehnat ta'tilidan tashqari asosiy ishidagi yillik mehnat ta'tili va o'rindoshlik asosidagi ishning yillik mehnat ta'tili davomiyligi o'rtasidagi farqni tashkil etuvchi kunlarga ish haqi saqlanmaydigan ta'til ham berishi shart.

**Abdunabi SAIDOV,  
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi**

## Meros guvohnomasini rasmiylashtirish tartibi

**SAVOL: Meros guvohnomasini qanday notarial harakat va meros ishi qachon ochiladi.**

**JAVOB:** Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish notarial harakat turlaridan biri bo'lib, ushbu notarial harakat murakkabligi bois notariusdan alohida e'tibor, boy bilim va tajribani talab qiladi.

Meros ishi fuqaroning o'limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida ochiladi.

Meros qoldiruvchining vafot etgan kuni (zarurat bo'lganda vafot etgan vaqt ham), u vafot etgan deb e'lon qilinganda esa, agar sudning qarorida boshqa muddat ko'rsatilgan bo'limasa, vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sudning qarori kuchga kiradigan kun meros ochilgan vaqt deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1146-moddasiga ko'ra meros ochilgan joydagi notarius merosxo'rning iltimosiga ko'ra unga merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma beradi.

Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma meros ochilgan kundan e'tiboran olti oy o'tganidan keyin beriladi. Qonun bo'yicha meros olinganida ham, vasiyatnomaga bo'yicha meros olinganida ham, agar notarius tegishli mol-mulkka yoxud butun merosga nisbatan guvohnoma berishni so'rab murojaat etgan shaxslardan boshqa merosxo'rlar yo'qligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lsa, guvohnoma yuqorida ko'rsatilgan muddat tugamasidan oldin berilishi mumkin.

Merosxo'r shaxsan o'zi meros ochilgan joydagi notarial idoraga kelib, arizani taqdim etadi. Merosxo'r meros ochilgan kundan e'tiboran istalgan vaqtida merosdan voz kechishga haqli. Merosdan voz kechish merosxo'r tomonidan meros ochilgan joydagi notariusga ariza berish orqali amalga oshiriladi, agar ishonchnomada vakil orqali merosdan voz kechish vakolati maxsus nazarda tutilgan bo'lsa, merosdan shu tarzda voz kechilishi mumkin, merosdan voz kechish keyinchalik bekor qilinishi yoki qaytarib olinishi mumkin emas.

Agar merosxo'r vasiyatnomaga bo'yicha ham, qonun bo'yicha ham vorislikka chaqirilsa, u ana shu asoslarning biri yoki har ikkalasi bo'yicha o'ziga tegishli bo'lgan merosdan voz kechishga haqli.

Merosxo'r merosdan voz kechganida vasiyatnomaga bo'yicha yoki qonun bo'yicha merosxo'rlar jumlasidan bo'lmish boshqa shaxslar foydasiga voz kechayotganini ko'rsatishga haqli.

Amaldagi qonunchilik bo'yicha notarius merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berish paytida meros qoldiruvchining vafot etganligini, meros ochilgan joyi va vaqtini, meros mol-mulki tarkibi va uning joylashgan joyini, meros qoldiruvchi bilan merosxo'rlearning qarindoshlik munosabatini hamda qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasini aniqlaydi.



**ZATOEVA,  
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi  
huzuridagi notarial arxiv mudirasi**

## O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlar

**O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagи "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi O'RQ-937-son qonuniga muvofiq quyidagilarga nisbatan huquqlar e'tirof etiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan fuqaroligi bo'limgan shaxslar tomonidan 2018-yil 1-mayga qadar yakka tartibda uy-joy qurish orqali o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga;

2. Fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident bo'lgan yuridik shaxslar qonunchilik hujjalari muvofiq ajratilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjalarda ko'rsatilgan yer uchastkasi maydonidan 2018-yil 1-mayga qadar ortiqcha egallagan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga;

3. O'zboshimchalik bilan qurilgan yakka tartibdagi uy-joylarga bo'lgan mulk huquqini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan tashkil etilgan Ko'chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari (bundan buyon matnda Ko'chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari deb yuritiladi) tomonidan e'tirof etish mumkin deb topilganligi hollariga yoki uni e'tirof etish rad etilganligi yoxud arizalarning ko'rib chiqilishi bir martalik umum davlat aksiyasining muddati o'tganligi sababli yakuniga yetmaganligi hollariga;

4. 2021-yil 8-iyunga qadar tuman (shahar) hokimining qaroriga ko'ra qonunchilik hujjalari muvofiq fuqarolarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga yoki rezident bo'lgan yuridik shaxslarga ajratilgan, tasdiqlash masalasi Qoraqpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hamda Qoraqpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi yoki tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan ko'rib chiqilmagan yer uchastkasiga (bundan shunday yer uchastkasida ikki yil ichida binolar va inshootlar qurilmagan yoki ularning qurilishi boshlanmagan yoxud yer uchastkasidan maqsadsiz foydalilanigan hollar mustasno);

5. Fuqarolarning bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylariga hamda ular egallagan yer uchastkasiga;

6. 2020-yil 9-martga qadar kichik sanoat zonalari hududiga joylashtirilgan tadbirkorlik subyektlarining yashash uchun mo'ljallanmagan binolari va inshootlari yoki ularning qismlari joylashgan yer uchastkasiga;

7. Xususiyashtirilgan binolar va inshootlar egallagan yer uchastkasiga;

8. Fuqarolarning, yakka tartibdagi tadbirkorlarning va rezident bo'lgan yuridik shaxslarning qonunchilikka muvofiq mulk (egalik qilish) huquqi e'tirof etilgan binolari va inshootlari egallagan yer uchastkasiga.

**Bexruzbek TOXIROV,  
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi  
Huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish va  
metodik ta'minlash sho'basi katta  
maslahatchisi**

## Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy asoslari

### Korruptsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarining manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi.

Korruptsianing yana bir xavfli tomoni shuki, islohotlar rivoji sharotida fuqarolar ongida ayniqsa yosh avlodning bir qismida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq degan mutloqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishi va qaror topishi mumkin. Qing'ir yo'l bilan boylik orttirishga intilish basharti u jamiyatning va huquqiy nazoratning e'tiboridan chetda qolsa odamlarni ayniqsa hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlarni yomon yo'liga og'diradi.

Korruptsianing hatti-harakatlari nafaqat mamlakatimizning halol fuqarolarini tadbirkorlikdan chetlatadi balki chet elliq sheriklarda ham ishonchszilik uyg'otadi va ularni cho'chitib qo'yadi.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddimasida ta'kidlanganidek, korruptsiya bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlarini buzilshiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Korruptsiya rivojlantirish uchun mo'ljallagan mablag'larni o'ziga jaib qiladi, xorijiy investitsiyalar oqimlari kirib kelishi va tashqi yordam ko'rsatilishiga to'sqinlik qiladi.

Qatar davlati rahbari tomonidan O'zbekiston davlati bugungi kunda karrupsiyadan xoli davlat ekanligi, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun murosasiz ishlar amalga oshirilayotganligi bois davlat rahbarimiz mukofotlandi.

Belgilangan tartib-talablarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash barcha birdek majburiy ekanligini, mazkur tartib-talablarga nazarda tutilgan qoidalarni buzganlikda aybdor shaxslar albatta qonun hujjalarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

**O'. RAZIKOV,  
Fuqarolik ishlari bo'yicha Peshku tumanlararo sudi raisi  
M.A. MATYAKUBOV,  
sud'ya  
SH.G.AFUROV  
devonxona mudiri**

## Ekstremizm va terrorizm - jamiyat taraqqiyotiga tahdid

### Ekstremizm va terrorizm, hozirgi kunda dunyo jamiyatining eng katta xavflaridan biri bo'lib, jamiyatlar o'rtasida yirik ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy muammolarni keltirib chiqaradi. Ularning tarqalishi nafaqat bevosita inson hayotiga tahdid solishi, balki davlatlarning xavfsizligiga, xalqaro munosabatlarga va umumiylara taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ekstremizm odamlarning yoki guruhlarning ijtimoiy, siyosiy, diniy yoki madaniy qarashlari mutlaq yoki zo'ravonlikka asoslangan fikrlash va harakatlarni ifodalovchi ideologiyadir. Ekstremizm har qanday shaklda, jumladan, diniy, siyosiy, etnik yoki boshqa ideologiyalarda mavjud bo'lishi mumkin.

Ekstremistik qarashlar o'zgacha fikrlarni va qarama-qarshi g'oyalarni toqat qilmaslikni taqozo qiladi. Bunday qarashlar ko'pincha zo'ravonlik, terroristik hujumlar yoki siyosiy qarama-qarshiliklarga olib keladi. Ekstremizm jamiyatda bo'linishlarga, nafratga va ijtimoiy adolatsizliklarga sabab bo'lib, barqarorlikni buzadi.

Terrorizm fuqarolarni qo'rqitish, ma'lum siyosiy yoki ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan zo'ravonlik yoki qo'rqitish amaliyotidir. Terroristlar odatda hujumlar orqali davlatni yoki jamoatchilikni tahdid qilishadi va o'zlarining g'oyalarni yoyishga harakat qilishadi. Terrorizm, jumladan, jinoyatlarning qulay shakllari, portlashlar, o'ldirish, qo'lga olish, zo'ravonlik va boshqa ko'plab yollanmalardan foydalanadi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda ta'lim muhim rol o'ynaydi. Yoshlarni kengroq dunyoqarashga ega bo'lishga va boshqa madaniyatlarni hurmat qilishga o'rgatish zarur. Bunday tarbiya orqali ijtimoiy bag'rikenglikni va ko'p madaniyatning xususiyatlarini hurmat qilishni o'rganish mumkin. Ijtimoiy adolatni ta'minlash jamiyatda ijtimoiy tenglik, adolat va imkoniyatlarning ta'minlanishi ekstremizmning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish, yirik iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o'rtasida barqarorlikni ta'minlaydi.

**A. AXMEDOV,  
O'zbekiston Respublikasi IIV TQD TQKX xodimi**

### Fuqarolarga ID-karta quyidagi muddatlarga beriladi:

- \* 1 yoshgacha bo'lgan bo'lalarga — 2 yil muddatga;
- \* 1 yoshdan 16 yoshgacha — 5 yil muddatga;
- \* 16 yoshdan — 10 yil muddatga.

\* Bola tug'ilgandan boshlab 16 yoshga to'lguniga qadar ID-karta ota-onalar, vasiylarning (homiylarning) ixtiyoriga ko'ra beriladi.

\* **Eslatma:** fuqaro ID-kartasi amal qilish muddati tugaganda va tegishli yoshga to'lgandan so'ng bir oy muddatda ID-karta olish uchun murojaat qilishi lozim.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-sentabrda PF-6065-son Farmoni.

**ID-karta qancha muddatga beriladi?**



**Firuza NAZAROV,  
Buxoro shahar adliya bo'limi DXM yetakchi mutaxassisini**

## MA'NAVİYATLI YOSHLAR – KELAJAGIMIZ DAVOMCHILARI

*Yurtimizda yoshlarning intelektual va ijodiy salohiyatni mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmogda. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan hayotga tadbig etilayotgan 5 ta muhim tashabbus yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalg etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlikni targ'ib qilish masalalari davlat siyosati darajasida e'tiborga olinmoqda.*

Ayniqsa, bu borada jamiyat hayotining muhim qatlami hisoblangan talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgan e'tibor har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega. Ularni mamlakatimizning haqiqiy fuqarolari etib shakllantirish, Vatan oldidagi farzandlik vazifalarini sidqidildan bajarishga tayyorlash, o'ziga xos individual fazilatlarni shakllantirish va takomillashtirish, ishtimoiy faoliik, tashabbuskorlik, o'qishga va kasbga bo'lgan hurmat hissini keng targ'ib qilish kun tadbiridagi masalaga aylanmoqda. Bu borada, albatta, biz pedagoglar ham tashabbusni qo'lga olib, oliy ta'lim dargohida tahsil olayotgan o'g'il-qizlarni ishtimoiy-siyosiy va huquqiy ongini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni qiziqishlari asosida ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish,

axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, badiiy tarbiyani shakllantirish ishlarini yo'nga qo'yishda o'z hissamizni qo'shishimiz farovon kelajakni ta'minlashga xizmat qiladi. Talaba-yoshlarning ma'naviy va jismoniy kamolotini yuksaltirish ishlarini takomillashtirishga ko'maklashish, diniy, ekstremizm, terorizm, giyohvandlik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash borasida talaba-yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni qaror toptirish, sport sohasida qobiliyatni namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish, yoshlar ma'naviyatini oshirish, ular orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, talaba qizlarni kasb-hunarlar egallashlariga ko'maklashish ishlarini tizimli tashkil etishda faol ishtirot etishimiz bugungi kunning talabidir. E'tirof etish joizki, ko'plab iste'dodli o'g'il-qizlarimiz o'zlarining intelektual salohiyati bilan xalqaro miyosdagi tanlovlardan, konferensiylardan, sport musobaqalari,



qolaversa, barcha sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishib, Vatanimiz sharafini himoya qilib kelayotganligi barchamizni dildan quvontiradi.

Biroq yutuqlarimiz bilan bir qatorda, ayrim yoshlar o'rtaida zararli odatlarga ruju qo'yish holatlari uchrab turganligini inkor qilib bo'lmaydi. Ana shunday salbiy harakatlarning oldini olish uchun oliy ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni shakillantirish masalalariga nafaqat o'qituvchilar, balki butun jamiyatimiz birdek mas'ul va javobgardir. Zero, barkamol avlod va yuksak axloqli vatanparvar yoshlar bugunimiz va ertamizning haqiqiy davomchilaridir.

**Gullola RAXMONOVA,  
BuxDPI "Umumiy pedagogika"  
kafedrasi katta o'qituvchisi**



### \*Xushxabar

## HUMOYUNGA HAVASIM KELDI

*Zahiriddin Muhammad Bobur o'n ikki yoshida podsholik taxtiga o'tirgan, yurtni boshqargan. Tarix zarvaraglarida ajdodlarimiz bilan bog'liq bunday faktlar talaygina. Ammo biz qachongacha ular bilangina faxrlanib yuramiz? Bugungi kunimizni gahramonlari, ilmda peshqadamlarini ko'proq kashf qilish va ularni algash ma'naviy burchimiz emasmi?*

Bu savolga javobni uzoqdan izlash shart emas. Buxoro viloyatining Jondor tumanida Ilyos Eshmurodov degan ijodkor bor. Aka nasrda qalam tebratadi. Uning sevimli nevarasi Humoyun Ilyosov esa tuman markazidagi "Qaldirg'och" maktabgacha ta'lum tashkilotining tarbiyalanuvchisi.

Olti yoshda. Bolada ajdodlarimizga xos bir favqulodda iste'dod bor.

Humoyunning ustozи Kumushoy Ibodullaeva shogirdini matematika faniga bo'lgan muhabbatini erta aniqladi. Uni besh oy davomida "Mental arifmetika" bo'yicha shug'ullantirdi. Bolajonning tirishqoqligi, favqulodda iste'dodiga qoyil qolib, uni turli tanlovlarga jalg qildi. Natija esa kutganidek bo'lib chiqdi. Yosh matematik "Mental arifmetika" bo'yicha yosh toifasida yurtimizda tengsiz deb topildi. Shogirdining ilmiga ishongan ustoz uni Xalqaro tanlov sari yo'naltirdi.

– Humoyun shogirdlarim orasida eng tirishqoq va qobiliyatli, – deydi Kumushoy mehnatlari besamar

ketmayotganidan xursand bo'lib. – Yaqinda u Birlashgan arab amirligining Dubay shahrida tashkil qilingan Xalqaro "Fuzuliy olimpiadasi" da qatnashib, tengdoshlari orasida 1-o'rinni oldi. Agar shu maromda shug'ullansak, keyingi – Turkiya, Rossiya federatsiyasi kabi davatlarda o'tkaziladigan tanlovlarda ham faxrli o'rirlarni olishiga ishonaman. Shogirdimning kelajagidan umidim katta.

DMTT rahbariyati imkoniyatidan kelib chiqib, bolajonni taqdirladi. Unga tantanali ravishda elektro somakat sovg'a qilishdi. Bugun Humoyunning o'ziga bo'lgan ishoni ortgan. Biz uning orzusi bilan qiziqdik.

– Jonu dilim – matematika, – deydi beg'uborgina bolajon. – Asosiy orzuim – kelajakda mohir shifokor bo'lib, bemorlarga sidqidildan yordam berish. Bu uchun ko'proq o'qib-o'rganishim kerakligini bilaman. Shu bois izlanishdan to'xtamayman.

Biz Humoyun orzusiga erishishiga ishonamiz. Ammo bir faylasufning aygan gapini shu o'rinda keltirishni lozim topdim: "Iste'dodsiz bola yo'q. Iste'dodi yuzaga chiqmagan bolalarga bo'lishi mumkin". Shunday ekan, iste'dodlarni kashf qilish, ularni qo'llab-quvvatlash, to'g'ri yo'naltirish o'zbekman degan insonning ma'naviy, insoniy burchidir...

**Obid QO'LDOSH**

## BOLALARNING TA'MINOTI UCHUN QILINADIGAN QO'SHIMCHA XARAJATLAR

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lif olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida q'amxo'rlik qilishga majburligi belgilab qo'yilgan. Mazkur rahbariy qoida asosida farzandlarning ota-ona tomonidan ta'minoti xususidagi huquqiy normalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 5-bo'limida o'z aksini topgan.


Shular jumlasida kichik bir norma mavjudki, unga ko'ra, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 103-moddasida bolalarning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlar to'g'risidagi qoidalar mustahkamlangan.

Ota-ona nafaqat bolalarni moddiy ta'minlanishi yoki buning uchun aliment berishi lozim, balki bolalar ta'minoti uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xarajatlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi.

Bunday holatlar qonunchilikda "favqulodda holatlar" sifatida baholanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 103-moddasida ota-ona favqulodda holatlarda bolaning ta'minoti uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xaridlarda ishtirok etishi shartligi belgilangan. Bunda favqulodda holatlar jumlasiga bolanining og'ir shikastlanishi, kasal bo'lishi va boshqalar kiritilgan. Masalan, bola kasal bo'lib qolganda uning sog'lig'ini tiklash va parvarish qilish uchun ketgan summa hamda bolaning davolaniishi uchun zarur bo'lgan dori-darmon xarajatlari ota-ona o'rtasida teng taqsimlanishi zarur.

Qoidaga ko'ra, bolalarning ta'minoti uchun qo'shimcha xarajatlar ota-ona tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi zarur. Agar ota yoki ona bunday xarajatlarni amalga oshirishdan bosh tortsa, sud ularning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olib, qo'shimcha xarajatlarni qisman pul bilan to'lanadigan qat'iy summada undirish haqida hal qiluv qarori chiqaradi. Pul bilan to'lanadigan qat'iy summa miqdori sud tomonidan ish materiallari o'rganib chiqilib, bolaning sog'lig'ini tiklash uchun qilinishi lozim bo'lgan xarajatlar, maxsus parvarishda bo'lishi va dori-darmonlar uchun ketadigan summadan kelib chiqib belgilanadi.

**Shohida BOZOROVA,  
Fuqarolik ishlari bo'yicha Romitan tumanlararo  
sudi raisi,**  
**Zubayda KURBONOVA  
Fuqarolik ishlari bo'yicha Romitan tumanlararo  
sudi sud'yasi**



## NIKOH SHARTNOMASI

Nikoh shartnomasi bu er-xotin o'rtasida nikoh tuzishdan oldin yoki nikoh jarayonida tuziladigan huquqiy bitimdir. Nikoh shartnomasi, odatda, er-xotinning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydi, shuningdek, nikoh davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy, ijtimoiy yoki shaxsiy masalalarga doir masalalarni tartibga soladi.

Nikoh shartnomasining maqsadi quyidagi jihatlarni tartibga solish bo'lishi mumkin:

1. Mulk va mol-mulk huquqlari: Nikohdan oldin yoki nikoh davomida turmush o'rtog'ining mulk huquqlari, ayniqsa, iqtisodiy masalalar, jamg'armalar, aktivlar va qarzlarни qanday taqsimlash haqida kelishuv.

2. Bolalar va ularning parvarishi: Nikohda tug'ilgan bolalar haqida qarorlar, ularning ta'lifi, parvarishi va tarbiyasi masalalari ham shartnomada ko'rib chiqilishi mumkin.

3. Nikohdan ajralish holatida: Agar nikohdan ajralish yuz bersa, shartnoma tomonlarning qanday huquqlarga ega bo'lishini belgilashi mumkin.

4. Ijtimoiy va shaxsiy huquqlar: Nikohda er va ayol o'rtasida ijtimoiy majburiyatlar va huquqlar, masalan, er-xotin bir-biriga yordam berish yoki ularning alohida shaxsiy erkinliklari.

Nikoh shartnomasi, ayniqsa, moliyaviy ahvoli yoki mulki katta bo'lgan kishilar o'rtasida muhimdir. Shartnoma yuridik kuchga ega bo'lishi uchun notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.

**Oydina NABIYEVA,  
Qorako'l tuman FHDY bo'limi mudirasi**

## 2025-yil 15-martdan 15-aprelga qadar respublikada "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi"

### AHOLI XONADONLARIDA TARG`IBOT ISHLARI

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi davomida aholi xonadonlarida targ`ibot ishlari o'tkazish juda muhimdir. Ushbu tadbirlar orqali aholiga favqulodda vaziyatlarga tayyor turish, xavfsizlik qoidalari va zarur bo'lgan hollarda harakatlar to'g'risida ma'lumot berish maqsad qilinadi.

Targ`ibot ishlarida aholiga tabiiy ofatlar, texnologik xavf-xatarlar, yong'inlar yoki boshqa favqulodda holatlar yuzaga kelganda qanday harakat qilish kerakligi haqida tushuncha bermoqdamiz.

**M. KARIMOV,  
Peshku tuman FVB boshlig'i, kapitan**

### IJTIMOIY SOHA OBYEKTLARIDA YONG'IN XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

"Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi" oyligi davomida targ`ibot ishlari olib borilmoqda.

Hozirgi kunda yong'in xavfini oldini olish, gaz uskunalar, elektr jihozlari va boshqa texnik xavfsizlik qoidalariiga amal qilish juda muhimdir. Aholiga ijtimoiy soha obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash, uya xavfsiz turmush tarzini tashkil etish bo'yicha maslahatlar bermoqdamiz.

**N. BAHRONOV,  
Peshku tuman FVB boshlig'i o'rinnbosari, kapitan**

### YUQIMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLISH

"Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi" oyligi davomida targ`ibot ishlari olib borilmoqda.

Fuqaro muhofazasi tizimi va uning tuzilmalari haqida ma'lumot taqdim etish, aholiga favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatadigan tashkilotlar haqida xabardor qilishni amalga oshirmoqdamiz. Turli yuqimli kasallikkarni oldini olish haqida tushuncha bermoqdamiz.

**A. SHARIPOV,  
Peshku tuman FVB Tezkor bo'linma boshlig'i, kapitan**

### QURILISH OBYEKTLARIDA PROFILAKTIK TADBIRLAR

Peshku tumanida "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi" oyligi davomida targ`ibot ishlari olib borilmoqda.

Aholi o'rtasida qurilish obyektlarida profilaktik tadbirlar amalga oshirmoqdamiz. Mavzu doirasida o'quv mashg'ulotlari, seminarlar va amaliy darslar o'tkazilmoqda.

Targ`ibot ishlarida ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarni jalb qilish samarali bo'layapti.

**M. XOLMURODOV,  
Peshku tuman FVB katta inspektor, katta leytenant**



## BALLI, QIZLAR!

**Bahorda quyosh nuri ko'proq chiqadi, havo iliqlashadi va tabiiy muhit uyg'onadi. Ko'plab o'simliklar gullaydi, hayvonlar ko'payadi va tabiatda umumiyyat uyg'oq va faoliyat kuzatiladi.**

Bahor fasli insonlar uchun ham yangi boshlanishlar, ilhom va motivatsiya davri hisoblanadi. Ushbu fasl ko'plab shoirlar, yozuvchilar va rassomlar tomonidan ilhom manbai sifatida ishlatalgan. Ana shunday go'zal faslda Buxoro tuman "Barkamol avlod" bolalar maktabining 12-maktabda faoliyat olib borayotgan "To'qish" to'garagi a'zolari o'tasida "Balli qizlar" ko'rik-tanlovi tashkil etildi va o'tkazildi.

"Balli, qizlar" ko'rik-tanlovida to'garak a'zolari 4 ta shart bo'yicha chaqqonlik va zukolik bilan bellashdilar. Faxrli o'rinnlarni egalagan to'garak a'zolari maktab tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandilar.

**Zarina BOQIYEVA,  
Dildor BAFOYEVA,  
Buxoro tuman "Barkamol avlod" bolalar maktabi  
"To'qish" to'garagi rahbarlari**

## NAVRO'Z - YASHARISH VA YANGILANISH BAYRAMI

**Navro'z kunlarda atrofda ajib manzaralar barq urib, tabiat uyg'onmoqda. Bahor havosidan qalblarga tarovat, iliqlik yugurmoqda. Yangilanish, yasharish fasli boshlandi. Shukuhli bu kunlarda esa yurtimizda Navro'z umumxalq bayrami keng nishonlanadi.**



Asrlar tarixiga ega bu bayram tomoshalarida xalqimizning qadimiy urchodatlari, milliy an'analarimiz qayta tiklanib, yangicha tus oladi. Shu tariqa milliy meroslarimiz avlodlar qalbiga singib boradi. Navro'z bayrami O'zbekistonda yangi umidlar va yaqin orada kutilayotgan yangiliklar bilan chambarchas bog'liqidir. Shuning uchun ushbu kunda, hatto eng chuqur dilxiraliklarni kechirish, janjal qilmaslik, kuchsiz va muhtojlarga yordam berish kabi xatti-harakatlar odat tusiga aylanib, ular insonlarga uyiga yaxshiliklar keltirishiga ishonishadi. Yana bir yaxshi xislat — yaqinlarni mehmon qilish hisoblanadi. Ushbu kunda uy bekalari bayramning maxsus ko'katli chuchvarayu, somsalarini pishirishi, qozonlardagi xushbo'y palovning ifori barcha joylarga tarqalishi, uyga tashrif buyurgan mehmonlarni esa mazali shirinliklar bilan mehmon qilinishi, yurtimizning o'ziga xos betakror odati hisoblanadi.

**Shahlo TO'LANOVA,  
Kogon tuman 13-umumiy o'rta ta'lif maktabining  
boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi**

**Yurtimizda yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarlik, jinoatchilikning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamdag'i profilaktik ishlar tizimi yo'liga qo'yilgan.**

## YOSHLAR VA VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLİSH DOLZARB VAZIFA

Belgilangan chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan Buxoro viloyatidagi tuman va shaharlardagi mavjud 544 ta mahalla fuqarolar yig'inalarida yoshlar o'rtasida huquqbazarlik profilaktikasi va jinoatchilikning oldini olish maqsadida mahalla yoshlar yetakchilari hamda profilaktika inspektorlari o'rtasida tezkor ma'lumot almashinuvi va amaliy hamkorlik yo'iga qo'yilgan.

Bundan tashqari, Mudofaa boshqarmasi hamda huquqni muhofaza qiluvchi davlat idoralari bilan hamkorlikda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, huquqiy savodxonligini oshirish, ular o'rtasida huquqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan mingdan ortiq loyiha va tadbirlar amalga oshirilgan. Ularda jami 520 ming nafarga yaqin yoshlar ishtirot etgan.

Ta'kidlash o'rinniki, bugungi globallashuv jarayonida yoshlar va voyaga yetmaganlar siyosati barcha davlatlar uchun asosiy masalalardan biri hisoblanib, bu borada tizimli ishlar amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, AQShda voyaga yetmaganlar bilan ishlashda samaradorlikni oshirish uchun maxsus dastur ishlab chiqilgan. Dasturning asosiy maqsadi 9 yoshdan boshlab, ya'ni bolalar mustaqil fikrleshni boshlagan paytda ularga huquq va majburiyatlar haqida birlamchi ma'lumot berishga qaratilgan.

Yurtimizda ham yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarlik va jinoatchilikning oldini olish maqsadida 2016 yil 14 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, 2021 yil 13 iyulda "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2022 yil 7 iyunda Vazirlar Mahkamasining "2022-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilingan.

Mazkur hujjatarga ko'ra, yoshlar o'rtasida huquqbazarlik va jinoatchilikning oldini olish, huquqiy savodxonligini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, joylarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Belgilangan chora-tadbirlar esa yoshlar tarbiyasida ijobjiy natijalarga erishishga xizmat qilmoqda.

**M.KAMOLOV,  
J.RAJABOV,  
Peshku tuman adliya bo'limi boshlig'i.**

## MOBILE-ID NIMA?

Mobile -ID tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash boyicha yagona axborot tizimining tarkibiy qismi hisoblanib, shaxsni uning mobil telefon raqami orqali identifikatsiyalashni nazarda tutadi.

**SAVOL: Elektron raqamli imzo nima? Elektron hujjat nima?**

**JAVOB:** Elektron hujjatdagi mazkur elektron huj-jat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo;

Elektron hujjat, bu — elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning o'quvchilariga, umumiyyat o'rta ta'lif tashkilotlarining bitiruvchi sinf o'quvchilariga, "Temir daftari", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turgan fuqarolarga elektron raqamli imzo kaliti bepul beriladi.

**A.MUBORAKOV,  
sho'ba boshlig'i**

## MEHNAT SOHASIDAGI IJTIMOIY SHERIKLIK PRINSIPI

**Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik prinsipi xodimlarning, ular vakillarining, ish beruvchilarning, ular vakillarining, shuningdek davlat organlarining ijtimoiy-mehnat munosabatlarni tartibga solish masalalari yuzasidan xodimlarning, ish beruvchilarning va davlatning manfaatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlashga qaratilgan hamkorligidan iboratdir.**

Mehnat sohasidagi ijtimoiysheriklik prinsipi asoslangan holda mehnat to'g'risidagi qonunchilik: yakka tartibdagagi mehnatga oid munosabatlarni hamda ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish masalalari yuzasidan xodimlarning va ish beruvchilarning manfaatlarini muvofiqlashtirish maqsadida mehnat sohasidagi ikki tomonlama (xodimlar, ularning vakillari va ish beruvchilar, ularning vakillari o'rtasidagi) va uch tomonlama (xodimlarning, ish beruvchilarning vakillari va ijob etuvchi hokimiyyat organlari o'rtasidagi) hamkorlikni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

xodimlarning va ish beruvchilarning vakillikni ta'minlash hamda o'z manfaatlarini himoya qilish uchun birlashishga bo'lgan huquqini kafolatlaydi;

xodimlar va ish beruvchilar vakillarining jamoaviy muzokaralar olib borishga, jamoa kelishuvlarini hamda jamoa shartnomasini tuzishga bo'lgan huquqini mustahkamlaydi;

ish beruvchi tomonidan boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining saylab qo'yiladigan organi (kasaba uyushmasi qo'mitasi, kasaba uyushmasining tashkilotchisi yoki kasaba uyushmasi guruhining tashkilotchisi) yoki xodimlarning boshqa vakillik organi (bundan buyon matnda kasaba uyushmasi qo'mitasi deb yuritiladi) bilan kelishgan holda qanday ichki hujjatlar qabul qilinishi mumkinligini belgilaydi;

mehnat nizolarini hal qilishda (tartibga solishda) xodimlarning va ish beruvchilarning vakillari ishtirokini nazarda tutadi;

xodimlarning va ish beruvchilarning mehnat sohasidagi manfaatlarini muvozanatini ta'minlashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni mustahkamlaydi.

**E.SUNNATOV,  
Buxoro viloyat Adliya boshqarmasi  
Huquqiy axborot sho'basi  
bosh maslahatchi**



Xadicha Sulaymonova 1931-yilda maktabni tamomlab, Toshkentga yo'lladi. O'sha yillari O'rta Osiyoda oliy ma'lumotli yurist kadrlarga bo'lgan talab ancha yuqori bo'lgan. Shu maqsadda Toshkentda Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi. Xadicha aynan shu institutning tayyorlov kursiga qabul qilinadi. U tayyorlov kursini tugatgach, institutning 2-bosqichidan o'qishini davom ettiradi. 1935-yilda oliygochni yuqori natijalar bilan tugatadi. Xadicha Sulaymonova dastlabki ish faoliyatini tuman xalq sudida boshlaydi. U qisqa muddat ichida Oliy sud a'zoligiga tavsya etiladi. 1935-yilning o'zidayoq 22 yoshli Xadicha Oliy sud sudyaligiga saylanadi. Shu davrgacha bo'lgan tarix davomida hech bir shaxs bu yoshida shunday lavozimni egallamagan edi.

Uning sudyalik faoliyati boshlanishi otmishimizda mash'um iz qoldirgan "Qatag'on davri ga to'g'ri keldi. U ziddiyatlari bir davrda o'z millati va vijdoni oldida qonunlar doirasidan chiqmagan holdaadolatli qarorlar qabul qila oldi. X.Sulaymonovaning ilmga chanqoqligi u ish faoliyati bilan band bo'lsa-da aslo so'njadi. U aspirantura o'qish uchun Moskva Yuridik institutiga o'qishga kirdi.

## O'zbek huquq ilmining faxri – Xadicha Sulaymonova

Turon zaminida o'chmas iz qoldirgan iste'dodli olimlarimiz yetishib chiqqan, ular orasida akademik olimlar ham o'rinni olgan. Ular qatorida Xadicha Sulaymonova ham bor. U 1913-yilning 3-iyunida Andijon viloyatida ziyoli oilasida dunyo kelgan. Otasi Sulaymon Kelginboy o'g'li o'z davrining bilimdon kishilaridan bo'lib, urushda halok bo'lgan. Ro'zg'ordagi barcha mas'uliyat onasi Otinchaning yelkasiga tushadi. Lekin suronli yillarga qaramasdan Xadichaning onasi qat'iyatli ayol bo'lgani sababli farzandlarini hech kimdan kam qilmasdan ham ota, ham ona bo'lib tarbiyalaydi.

Xadicha Sulaymonovaning qay darajada bilimli va keng dunyo qarashga ega ekanligini o'sha davrda O'zbekistonda muammoli hamda yechimini topmagan mavzuga qo'l organicidan ham bilishimiz mumkin. U dissertatsiya mavzusi sifatida "Harbiy intervensiya va grajdalanish urushi davrida O'zbekistonning jinoyat qonunlari mavzusini tanlaydi. Ammo 1941-yilda ko'plab begunoh insonlarning yostig'i quritgan Ikkinchiji jahon urushining boshlanishi unga dissertatsiya ishini oxiriga yetkazib, himoya qilishga yo'lli bermadi. Urush boshlangandan so'ng u Toshkent yuridik institutida talabalarga dars berish uchun jo'natiladi. Xadicha Sulaymonovaning tirishqoqligi va mehnatkashligini biz uning amaliyot sohasidagi ishlarida, pedagogik faoliyatida erishgan natijalarida ham ko'rishimiz mumkin. Institutida ishlagan yillari bo'lajak yuristlarga kuchli nazariy bilim beradi. 1948-yili SSSR Fanlar Akademiyasi Yuridik institutiga doktoranturaga yuboriladi. U akademiyada asosan O'zbekistonda sovet sudlarining tashkil topish tarixiga oid masalalar bilan shug'ullanadi. U o'z maqolalarida o'lkamizda 1928-yilgacha mavjud bo'lgan shariat sudlarining ijobji va salbiy tomonlarini, hattotki ulardan ayrimlaridan mintaqadagi tahlikaviy holatdan kelib chiqib foydalanish zarurligini qo'rqmasdan bayon etib, ularni chop etadi. Uning doktorlik ilmiy izlanishlari ijobji baholanib, fan doktori degan nomga ega bo'lgan birinchi ayol sifatida e'tiborga sazovor bo'ldi. X. Sulaymonova Falsafa va huquq institutini tashkil etishga va uni huquq ilmiy-tadqiqot markaziga aylantirishga bosh qosh bo'ldi. 1954-yilning dekabrida Xadicha Sulaymonovaga "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni beriladi. U 1956-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylanadi va akademik unvonini oladi. 1958-yil 24-yanvarda

uning rahbarligida hozirgi kunda uning nomi bilan ataladigan Toshkent sud ekspertiza ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi.

Xalqaro yirik anjumanlarda Xadicha Sulaymonovaning siyosatchilarga xos bo'lgan nutqlari jaranglay boshladи. U Amsterdam, London, Kolombo, Tokio, Dehli, Praga, Sofiya, Qohira kabi qator nufuzli shaharlardagi xalqaro anjumanlarda ishtirok etib, o'z mulohazalarini aniq yoritib bera o'ganligiga tarix guvohdir.

X. Sulaymonova 1964-yilda O'zSSR Oliy sudi raisi etib saylanadi. O'sha davrda u nafaqat Osiyoda, balki butun dunyoda ushbu lavozimni egallagan birinchi ayol bo'ldi. Bu martaba XX asrda shakllangan gender tengligi va ayollar huquqlari haqida olamga bong urib kurashayotgan, bu gooyani ilgari surayotgan dunyo- ning yetakchi davlatlaridagi ayollarga emas, o'zbek ayoliga nasib etgan edi.

1965-yil 26-noyabrda og'ir xastalik bilan kurashishlardan so'ng X. Sulaymonova vafot etdi. Buyuk olimadaman meros bo'lib qolgan hayot maktabi barcha uchun o'rnak va iftixordir. Huquq olamida o'zidan o'chmas iz qoldirgan adolat tarafori, haqiqat talabgori bo'lgan Xadicha Sulaymonovning 2022-yilda 110 yilligi tantanali nishonlandi. Shu munosabat bilan Toshkent davlat yuridik universitetida Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiya tashkil etilgandi. Bu yil esa ilk huquqshunos olimanining 112 yilligi keng nishonlanadi. Biz yosh huquqshunoslar esa ustoz qoldirgan ilmiy merosdan saboq olamiz va u bilan faxrlanamiz.

**Laziza AMIROVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
talabasi**

### SUBSIDIYA OLISH UCHUN QANDAY MA'LUMOTLARNI TAQDIM ETISH KERAK?

- pasport;– oila a'zolarining pasporti va nikoh qayd etilganligi guvohnomasi (to'liq oila va voyaga yetgan farzandi(lari) bo'lganda) va farzandlarining tug'ilganlik haqidagi guvohnomalar (agar voyaga yetmagan bo'lsa) nusxasi;
- nikoh bekor qilinganligi haqidagi guvohnoma yoki nikoh haqiqiy emas deb topilganligi to'g'risidagi sud qarori (nikoh qayd etilgan hollarda) va oilaviy holati to'g'risida FHDYO organlari arxividan ma'lumotnomma nusxasi (nikoh qayd etilmagan hollarda);
- doimiy propiska joyidan kadastr raqami va turiga tegishli ma'lumotlar;
- doimiy propiska joyidan uy daftarinig yoki kvartira kartochkasining (17-shakl bo'yicha) nusxasi;
- ariza beruvchi va birgalikda qarz oluvchilarning daromadi hamda ushlab qolning daromad soliqlari haqida ma'lumotnomma (qo'shimcha daromadlar bo'lsa soliq deklaratsiyasi).

Ariza yakunlari bo'yicha talabgorga ijobji javob olinagan taqdirda fuqaro o'zining tanloviya ko'ra, subsidiyani uy-joy sotib olish uchun boshlang'ich badal yoki kredit foiz to'lovlarining bir qismini qoplashga qaratilgan mablag' shaklida olishi mumkin bo'ladi.

**J.ABDURASHIDOV,**  
**Davlat xizmatlari ko'rsatilishi ustidan nazorat**  
**qilish sho'basi bosh maslahatchi**

### ISH BERUVCHINING MEHNATGA OID HUQUQ LAYOQATI VA MUOMALA LAYOQATI

**Ish beruvchi tashkilotlarning mehnatga oid huquq layoqati va muomala layoqati ular belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi.**

Tashkilotlar alohida bo'linmalarining mehnatga oid huquq layoqati ularning faoliyatini tartibga soluvchi nizomlar tasdiqlangan paytdan e'tiboran vujudga keladi.

Yakka tartibdagagi tadbirkor bo'lgan ish beruvchining mehnatga oid huquq layoqati va muomala layoqati u yakka tartibdagagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olinigan paytdan e'tiboran yuzaga keladi.

Uy ho'jaligidagi ishlarni bajarish uchun va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'Imagan boshqa shaxsiy maqsadlarda yollanma mehnatdan foydalanayotgan jismoni shaxs bo'lgan ish beruvchining mehnatga oid huquq layoqati hamda muomala layoqati u fuqarolik muomala layoqatiga to'liq hajmda ega bo'lgan paytdan e'tiboran, ko'rsatilgan yoshga to'Imagan shaxsnинг mehnatga oid huquq layoqati va muomala layoqati esa u O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodexida belgilangan hollarda o'n sakkiz yoshga kirguniga qadar fuqarolik muomala layoqatiga to'liq hajmda ega bo'lgan kundan e'tiboran yuzaga keladi.

Qonunga, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjalarga, tashkilotning ta'sis hujjalari va ichki hujjalarga muvofiq ish beruvchining mehnatga oid munosabatlardagi huquq va majburiyatlar:

tashkilotning mulkdori;  
tashkilotning boshqaruvi organlari yoki ular vakolat bergan boshqa shaxslar; ish beruvchi bo'lgan jismoni shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunlarda mol-mulk egasining, yuridik shaxs majburiyatlar bo'yicha muassisning (ishtirokchining) subsidiar javobgarligi belgilangan hollarda yuridik shaxs bo'lgan ish beruvchining mehnatga oid munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar uchun mol-mulk egasi, yuridik shaxsning muassisi (ishtirokchisi) subsidiar javobgar bo'ladi.

**Sh.TOYIROV,**  
**Buxoro viloyat Adliya boshqarmasi**  
**Huquqiy axborot sho'basi boshlig'i**

## O'RINDOSHLIK ASOSIDA ISHLOVCHI XODIMLARGA YILLIK MEHNAT TA'TILI QAY TARTIBDA BERILADI?

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 439-moddasiga ko'ra o'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarga yillik asosiy ta'tillar, shuningdek o'rindoshlar haqli bo'lgan qo'shimcha mehnat ta'tillari asosiy ish joyidagi yillik mehnat ta'tili bilan bir vaqtida beriladi.

Agar o'rindoshlik asosida ishning birinchi ish yilida xodim olti oydan kam ishlagan bo'lsa, o'rindoshlik asosida ishda yillik mehnat ta'tili uchun ishlangan vaqtga mutanosib ravidashda haq to'lanadi.

Birinchi ish yilida olti oy ishlagan o'rindoshlarning yillik mehnat ta'tiliga, shuningdek ishning keyingi yillari uchun yillik mehnat ta'tiliga o'rindoshlik asosida ishning o'rtacha ish haqidan kelib chiqqan holda odatdagi tartibda haq to'lanadi.

Asosiy ish joyi bo'yicha yillik mehnat ta'tilining davomiyligi o'rindoshlik asosidagi ishdagi mehnat ta'tilining davomiyligidan ko'p bo'lgan hollarda, ish beruvchi o'rindoshning iltimosiga ko'ra unga o'rindoshlik asosidagi ishdagi yillik mehnat ta'tilidan tashqari asosiy ishidagi yillik mehnat ta'tili va o'rindoshlik asosidagi ishning yillik mehnat ta'tili davomiyligi o'rtasidagi farqni tashkil etuvchi kunlarga ish haqi saqlanmaydigan ta'til ham berishi shart.

A.SAIDOV,  
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi  
mas'ul xodimi

## USTAMALAR NOTO'G'RI TO'LNGANI TUFAYLI JAVOBGARLIK DIREKTORNING ZIMMASIDA BO'LADIMI?

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 sentyabrdagi 823-sont qarori bilan tasdiqlangan "Umumi o'rta ta'lif muassasalarining o'rak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantrishning direktor jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida" nizom 16-bandiga asosan umumta'lim muassasasi pedagog, psixolog va kutubxona xodimlarining bazaviy tarif stavkasiga har oylik ustama belgilash, xodimlarni mukofotlash va ularga moddiy yordam ko'rsatishning to'g'ri, xolis va adolatlilik amalga oshirilishi uchun javobgarlik Ishchi guruh rahbari zimmasiga yuklatildi.

L.RASULOV,  
Inson huquqlari sho'basi bosh maslahatchisi

## SUBSIDIYALAR KIMLARGA BERILADI?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-martda "Uy-joy sotib olish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 182-soni qarori qabul qilingan.

Shunga ko'ra, mazkur mablag'lar faqatgina uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan oilalar, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlar, mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtiroy etayotgan yoshlar va shu toifadagi boshqa O'zbekiston fuqarolariga ajratiladi.

-nikohi bekor qilingan oila, turmush o'rtog'i vafot etgan, bedarak yo'qolgan yoki yolg'iz o'zi bo'la turib, nikohdan o'tmasdan bolali bo'lgan yoxud boshqa sabablarga ko'ra ota-onalardan birining yolg'iz o'zi bir yoki bir nechta bolani tarbiyalayotgan oila;

-subsidiya ayrim toifadagi shaxslar (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi va boshqa harbiy tuzilmalarning xodimlari (harbiy xizmatchilaridan tashqari)) va davlat hisobidan uy-joylar bilan ta'minlanmagan nafaqadagi harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zoligiga (er yoki xotini) nisbatan ham tatbiq etiladi.

Subsidiya olish uchun fuqaro 18 yoshiga to'lgan bo'lishi kerak. Agar fuqaro mehnat migranti bo'lganda, uning nomidan oila a'zolari ham ariza berishi mumkin.

Burxon DJAMOLOV,  
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi Davlat ximatlari  
ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish sho'basi boshlig'i

«EZGULIK»

Muassis:  
«Ma'naviyat  
sarchashmasi»  
MCHJ

MUHARRIR:  
Obid QO'LDOSH

Gazeta  
«EZGULIK»  
tahririysi kompyuter  
markazida sahifalandi.

Navbatchi muharrir:  
Hamzabek  
TURDIYEV

Musahhihi:  
Nafosat TOTLIYEVA

Sahifalovchi:  
Mubina  
TOYIROVA

## OTM BITIRUVCHILARI IYUL` VA AVGUST OYLARI O'QIMAGANI UCHUN KAMROQ KONTRAKT TO'LAYDIMI?

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi Nizom (26.02.2013 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2431) 26-bandiga ko'ra oliy ta'lim muassasalari bitiruvchi kurs talabalarining oxirgi o'quv yili (qismlarga bo'lib to'langanda oxirgi o'quv semestri) uchun to'lov, to'loving belgilangan miqdoridan iyul` va avgust oylari uchun to'lanadigan stipendiya miqdorini chegirib qolish orqali amalga oshiriladi.

Bunda, chegirib qolinadigan stipendiya miqdori kontrakt asosida o'qitish uchun to'lov miqdorining oxirgi belgilangan stipendiyaning miqdori 0,75 koeffitsienti qo'llangan bazaviy miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi.

M.DAVRANOV,  
Sho'ba boshlig'i

## TAJRIBASIZ HISOBCHINING XATOSI

Buxoro tumanida yashovchi fuqaro G.Rning Buxoro viloyat Sanitariyaepidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-sont qarori bilan tasdiqlangan "Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalarni hamda yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga, nafaqani tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 37-bandida nafaqalar bo'yicha o'rtacha ish haqi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 257-moddasi mazkur Nizom va mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilanganligi sababli ishlab homiladorlik va tug'ish nafaqasiga chiqqanligi, lekin nafaqa pullari kam to'langanligidan norozi bo'lib ishlab homiladorlik va tug'ish nafaqasiga chiqqanligi, lekin nafaqa pullari kam to'langanligidan norozi bo'lib qilgan murojaati o'rganib chiqildi.

Murojaatni o'rganish natijasida fuqaro G.Rga homiladorlik va tug'ish nafaqasi pullari kam to'langanligi aniqlanib, fuqaroning manfaatida Fuqarolik ishlari bo'yicha Buxoro tumanlararo sudiga nafaqasi to'lovlarini undirish to'g'risida da'vo ariza kiritildi.

Sudning 20.03.2025-yildagi qaroriga asosan fuqaroning buzilgan huquqlari tiklanib, da'vo arizasi qanoatlantrilib fuqaro foydasiga 152 216 733 so'm moddiy zarar undirish belgilandi.

T.AZIMOV,  
Buxoro viloyat Adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

## OTA-ONANI MODDIY TA'MINLAMAGAN FARZANDGA JAVOBGARLIK BORMI?

Albatta bor. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 475-moddasiga ko'ra voyaga yetgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovashi, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik 15 sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga yoki ma'muriy qamoq qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslarga BHMning 20 baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 123-moddasiga ko'ra uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ota-onal o'zining farzandidan moddiy ta'minot olish uchun fuqarolik sudiga murojaat qilishi kerak bo'ladi. Sud orqali ota-onani moddiy ta'minlash majburiyati yuklangandan so'ng ham farzand ota-onasini moddiy ta'minlamasa yuqorida nazardautilgan javobgarlik kelib chiqadi.

Chunki bizda voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning o'za ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishlari majburiyat sifatida Konstitutsiya darajasida qayd etilib, Konstitutsiyamizning 66-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

B.SAIDOV,  
Adliya boshqarmasi bosh maslahatchisi

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar muallifga  
qaytarilmaydi. Mualliflar  
fikri tahririyat nuqtai  
nazaridan farqlanishi  
mumkin.

Gazetada internet  
materiallaridan foydalаниди.

Tahririyat manzili:  
Buxoro shahri, A.Temur ko'chasi, 25-uy.  
Telefon: (99)700-25-04

Elektron gazeta 2023 yil 23 yanvarda  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №41930465 raqam  
bilan ro'yxatdan o'tgan.